

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01. RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K 821.512.133.09-1(092)

To‘xtamuratov Furqat Safarmuradovich

**MUHSINIY ADABIY MEROSI: MANBALARI, MATN
TARIXI VA TAHRIRI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTASIYA

**Ilmiy rahbar: Nurboy Jabborov,
filologiya fanlari doktori, professor**

Toshkent – 2023

MUNDARIJA

KIRISH	3-10
I BOB. MUHSINIY TARJIMAI HOLI VA SHOIR ASARLARINING MANBALARI TAHLILI	
1.1. Shoir biografiyasiga doir manbalar tahlili.....	11-29
1.2. “Gulshani jovid” devoni qo‘lyozmalarining monografik tavsifi.....	29-47
II BOB. IJODKOR ADABIY MEROSINING KO‘LAMI VA MATN XUSUSIYATLARI	
2.1. Shoir adabiy merosining ko‘lami.....	47-67
2.2. Ijodkor asarlarining matn xususiyatlari.....	67-79
III BOB. SHOIR SHE‘RLARINING MATN TARIXI VA TAHRIRI MASALASI	
3.1. Shoir asarlarida matn tarixi	79-99
3.2. Matn tahriri	99-117
XULOSA.....	118-122
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	123-137

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon matnshunosligida adabiy merosni qo‘lyozma manbalar va arxiv hujjatlari asosida ilmiy o‘rganish, muayyan ijodkor asarlarining muallif variantiga yaqin matnlarini tiklash, matn va ijodiy niyat, matn va talqin kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish har qachongidan ham dolzarb vazifalardan bo‘lib kelmoqda. Bu borada amalga oshirilgan va tadqiqot jarayonidagi ishlar matnshunoslikning nazariy asoslari va ilmiy amaliyot bilan bog‘liq masalalarini yanada ko‘lamli va chuqurroq o‘rganish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi.

Dunyo matnshunosligida qo‘lyozma manbalar genealogiyasini ilmiy tekshirish, bir qo‘lyozmadan boshqasiga o‘tish jarayonida matnda kechadigan o‘zgarishlar jarayonini kuzatish, aniq asarlar misolida matn tarixini, ya’ni asliyatdan boshlab keyingi ko‘chirilish va nashr jarayonlarida matn takomili yoki tekstologik xatolarni aniqlash, ijodkor laboratoriyasini badiiy matn kontekstida tadqiq qilish ilmning ushbu sohasi oldida turgan muhim vazifalardandir.

O‘zbek matnshunosligida, ayniqsa, keyingi bir asr muddatda qo‘lyozma manbalar va badiiy matn qonuniyatlarini ilmiy o‘rganish borasida boy tajriba to‘plandi. Lekin ushbu tajribani yangi tadqiqotlar hisobiga kengaytirish va takomiliga etkazish hanuz dolzarbligicha turibdi. Ayni kezda “Matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy-madaniy merosimizning hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilayotgan”¹ sababi shunda. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti namoyandasi Husaynquli Sulaymonquli o‘g‘li Muhsiniy (1860–1917) nazmiy devonining qo‘lyozma manbalari, asarlarining matn tarixi va tahriri masalalari shu paytga qadar maxsus tadqiq qilinmagani qo‘lyozma manbalar ustida tadqiqot olib borishni taqozo etadi. “Gulshani jovid” devoni qo‘lyozmalari va nashr nusxalari qiyosiy-matniy tadqiqini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. //Халқ сўзи, 2017 йил 25 май.

amalga oshirish, shoir she'rlarining ishonchli va mukammal matnlarini tiklash zarurati ushbu dissertasiya mavzusining dolzarb ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorlari, "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusidagi ma'ruzasida hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertasiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiy merosi misolida qo'lyozma manbalar va ularning paleografik xususiyatlari, matn tarixi va tahriri masalalari rus olimlari D.S.Lixachev, B.V.Tomashevskiy va S.A.Reyser² singari rus olimlari va P.Shamsiyev, H.Sulaymon, G'.Karimov, Sh.Sirojiddinov, N.Jabborov, A.Erkinov, N.Shodmonov, R.Zohidov, O.Jo'raboyev, Q.Pardayev singari o'zbek matnshunoslari tadqiqotlarida yoritilgan³. Ushbu ilmiy ishlardagi nazariy qarashlar

² Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург, Изд-во «Алетейя», 2001, стр. 34-35; Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М., 1959, стр. 148; Рейсер С.А. Основы текстологии. Изд. 2-е. – Л.: Провещение 1978. – стр.176.

³ Шамсиев П. Алишер Навоий «Сабъаи сайёр» достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари хакида: Фил.ф.н... дис. - Тошкент, 1952; Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари: Фил.ф.д....дис. - Тошкент, 1970; Сулаймон Х. «Хазойин ул-маоний»

adabiyotimiz tarixidagi boshqa ijodkorlar qatori Muhsiniy asarlarini o‘rganishda ham alohida qimmatga ega.

Bevosita shoir hayoti va ijodining o‘rganilishiga kelsak, ijodkor asarlariga munosabat dastlab “Tazkirayi Qayyumiy” asarida uchraydi⁴. M.Olimov maqolasida Muhsiniyning O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida qo‘lyozma devoni saqlanishi, 1917 yilda tartib berilgan bu devon avtograf nusxa bo‘lib, 332 betdan iboratligi haqida ma’lumot berilgan⁵. “Sovet O‘zbekistoni” gazetasining 1968-yil 7- fevral sonida bosilgan xabar-maqolada Qo‘qon adabiyot muzeyi ilmiy xodimi Ahmadjon Madaminov XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Qo‘qonda yashagan o‘zbek shoiri Muhsiniy Husaynqul asarlarining qo‘lyozma to‘plamini topgani aytiladi⁶. R.Xoliqov maqolasida esa Muhsiniy nafaqat iste’dodli shoir, balki noziktab’ tarjimon, mohir xattot va rassom ekani⁷ haqida so‘z yuritilgan. Tadqiqotchi U.Ne‘matov maqolasida shoirning Muqimiy bilan munosabati to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar berilgan⁸. Begali Qosimov tadqiqotlarida Muhsiniyning ijodiy salohiyati, o‘z davri adabiy muhitida tutgan o‘rni ilmiy asoslarda ko‘rsatilishi zarurati haqida so‘z yuritilgan⁹.

текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. /Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. – Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1959, – Б.5-28; Каримов Ғ. Ўзбек классик адабиётининг баъзи назарий масалалари. /Ғулом Каримов – маърифат фидойиси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – Б.56-63; Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Тошкент: Akademnashr, 2015.- Б. 7-9; Матншунослик сабоқлари. – Тошкент.: Navoiy universiteti, 2019. – Б.18; Жабборов Н. Бадиий матн тахрирининг хос хусусиятлари /«Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари» мавзuidaги илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2014.- Б. 28-32; шу муаллиф. Ўзбек матншунослигининг долзарб муаммолари /«Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгиланиш тамойиллари» мавзuidaги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, Adabiyot uchqunlari, 2016.- Б. 99-105; шу муаллиф. Матншуносликнинг айрим назарий масалалари / «Ўзбек матншунослигининг назарий ва амалий муаммолари» мавзuidaги Республика илмий анжумани материаллари. – Қарши, Насаф, 2019. - Б. 3.7; Эркинов А. Матншуносликка кириш. – Тошкент, 1997; Алишер Навоий «Хамса»си талқини (XV – XX аср боши). – Тошкент: Tamaddun, 2018; Матншунослик ва манбашунослик асослари. –Тошкент, 2019; Шодмонов Н. «Шоҳиду-л-икбол» – адабий манба. – Тошкент: Muharrir, 2009. - Б. 22-26; Зоҳидов Р. «Саботул ожизин». (Манбалар, шарҳлар, илмий-танқидий матн). – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.- Б. 184-185.

⁴ Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Т.: ЎзРФА Қўлэзмалар институти тахририй нашриёт бшлими. 1998, II китоб 380 – 381-б.

⁵ Олимов М. Муқимийга қасида ва унинг муаллифи // Ўзбекистон маданияти. 1966, 2 февраль.

⁶ Совет Ўзбекистони газетаси. 1968 йил 7-февраль. 3-бет.

⁷ Холиқов Р. Муҳсиний серкира ижод соҳиби // Адабий мерос. – Тошкент: Фан, 1973. № 3, – Б. 264-271.

⁸ Неъматов У. Муҳсинийнинг Муқимийга бағишланган қасидаси. // Адабий мерос. Т.: 1977. 9. 95- бет.

⁹ Қосимов Б. Излай – излай топганим... .Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. -Б.26; шу муаллиф. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011. – Б.173.

Sh.Karimovanning dissertasiyasida Zavqiy va Muhsiniy ijodida poetik mazmun va shakliy izlanishlar muammosi o‘rganilgan¹⁰.

Shoir devoni “Barhayot gulshan” nomi bilan nashr etildi. Biroq asliyat bilan qiyosiy tahlil natijalari ijodkorning devonga kirmagan she’rlari hali ko‘p ekanini ko‘rsatadi. Ushbu dissertasiya shoir asarlari qo‘lyozmalarini to‘liq qamragani, ijodkor devoni manbalari qiyosiy-matniy tahlil etilgani, asarlarining matn tarixi va tahriri ilmiy o‘rganilgani jihatidan shu paytgacha bajarilgan tadqiqotlardan farq qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishning ilmiy-nazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Muhsiniy devoni qo‘lyozmalari va nashrlarining qiyosiy-matniy tahlilini amalga oshirish, shoir asarlarining matn tarixi va tahririni tekshirish orqali noma’lum qolib kelayotgan she’rlarini aniqlash va asliyatga muvofiq ishonchli matnlarini tiklashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Muhsiniy hayoti va ijodiy biografiyasiga oid yangi ma’lumotni aniqlash;

“Gulshani jovid” devoni qo‘lyozmalarining ilmiy-monografik tavsifini amalga oshirish;

shoir adabiy merosining ko‘lami va matn xususiyatlarini yoritish;

ijodkor lirik asarlarining matn tarixini aniqlash va ilmiy asoslash;

shoir asarlari manbalarini matn tahriri nuqtai nazaridan tekshirish;

manbalarning qiyosiy tahlili asosida shu paytgacha ma’lum bo‘lmay kelgan she’rlarini aniqlash va ilmiy muomalaga olib kirish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Husaynquli Muhsiniy devonining O‘zR FA ShI asosiy fondida saqlanayotgan 7392 inventar raqamli, Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyida 4303 va 178 inventar raqamli

¹⁰ Каримова Ш. Ўзбек мумтоз шеърлятида поэтик мазмун ва шаклий изланишлар. Фил. фан. фалс. док-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – 164 б.

qo‘lyozmalardan, shuningdek, shoir avlodlari qo‘lida saqlangan ikki qo‘lyozma nusxasidan foydalanildi.

Tadqiqotning predmetini Muhsiniyning biografiyasiga doir yangi ma‘lumotlarni aniqlash, shoir devonining qo‘lyozma va bosma manbalari qiyosi, ijodkor she‘rlarini matn tarixi va tahriri nuqtayi nazaridan tadqiq qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari. Ilmiy ishni yozishda qiyosiy-tarixiy, analitik va germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qo‘lyozma manbalar asosida Muhsiniyning ilmiy biografiyasi tavallud va vafoti sanalari, hayot va ijod yo‘liga doir, ijodiy kamoloti tadriji, adabiy davrasi haqidagi yangi ma‘lumotlar aniqlangan;

shoir devonining 7392 inventar raqamli qo‘lyozmasini shoir asarlari mavjud nashrlari bilan qiyoslash natijasida ijodkorning shu paytgacha ilm ahliga ma‘lum bo‘lmagan 75 ta g‘azal, 1 ta murabba, 8 ta muxammas, 1 ta musaddas, 1 ta musamman, 1 ta qasida, 2 ta masnaviy, 1 ta maktub, 1 ta ruboiy, 7 ta ta‘rix janriga doir jami 2241 misra she‘ri aniqlanib, ilmiy muomalaga olib kirilgan;

ijodkor asarlarining matn tarixi, she‘rlari matnining devon qo‘lyozmalari hamda nashr variantlaridagi tafovutlari sabablari aniqlanib, shoir devonining “Barhayot gulshan” nomi bilan chop etilgan nashridagi lirik she‘rlaridan tushirib qoldirilgan 52 misra qayta tiklangan, dastlabki manbaga muvofiq ishonchli matni tiklangan;

Muhsiniy nazmiy asarlarining matn tarixi uch tamoyil: birinchidan, asar yozilishiga ta‘sir ko‘rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni, ikkinchidan, manbalarda (devon, bayoz, tazkira va h.k) ijodkor asarlarining kitobat tarixi, uchinchidan, joriy nashrlarda ijodkor asarlari matni masalasi kesimida tekshirilib, ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Muhsiniy biografiyasi yangi ma'lumotlar bilan boyitildi, jumladan, shoir vafoti sanasiga oydinlik kiritilib, 1917-yil ekani aniqlandi, adabiy davrasi haqidagi faktlar to'ldirilgan;

shoir devoni qo'lyozma manbalarining monografik tavsifi amalga oshirilgan, adabiyotshunoslikda ma'lum bo'lmay kelayotgan 2241 misra she'ri aniqlanib, ilmiy muomalaga olib kirilgan, ijodkor devonining "Barhayot gulshan" nomli nashridan tushirib qoldirilgan g'azal, muxammas, musamman, maktub, ta'rix janrlariga mansub jami 52 misra she'ri tiklanib, ular matnining mukammalligi ta'minlangan;

Muhsiniy she'riyati mavzu jihatdan besh guruhga: ishq-muhabbat, diniy-tasavvufiy, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy hamda axloqiy-falsafiy she'rlarga bo'linishi aniqlanib, ulardan har birining alohida ajralib turuvchi xususiyatlari aniqlangan;

shoir asarlarining matn tarixi va tahriri o'rganilib, asarlari yozilish jarayonidan ularning kotiblar tomonidan ko'chirilishigacha, matbuotda chop etilishidan to'plam holidagi nashrlarigacha bo'lgan jarayon tahlil etilib, muallif va kotib tahriri masalalari yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shoir asarlarining asliyat manbalariga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektida ko'rib chiqilgani, asosiy va yondosh manbalar asosida dalillangani, amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida o'rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Husaynquli Muhsiniy devoni qo'lyozmalarining manbashunoslik aspektida tahlil etilgani, shoir biografiyasi yangi ma'lumotlar bilan boyitilgani, ijodkor asarlarida matn tarixi va tahriri masalalari ilmiy baholangani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertasiya materiallaridan Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishida "O'zbek adabiyoti tarixi", "Matnshunoslik", shuningdek, "Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

magistratura mutaxassisligida “Matnshunoslik nazariyasi”, “Ilmiy-tanqidiy matn nazariyasi”, “Matn va talqin muammolari” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, Qo‘qon adabiy muhiti, Muhsiniy merosi bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil qilishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Husaynquli Muhsiniy adabiy merosining manbalari va matniy tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Husaynquli Muhsiniy ilmiy biografiyasi, shoir asarlarining ko‘lami va mavzuiy tasnifiga doir ilmiy tahlillardan hamda shoir devonining O‘zR FA ShI asosiy fondida saqlanayotgan 7392 inventar raqamli, Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi muzeyidagi 4303 inventar raqamli qo‘lyozmalari, shuningdek, shoir avlodlari qo‘lida saqlangan ikki qo‘lyozma nusxalariga doir ma’lumotlardan; qo‘lyozma manbalardan yangi aniqlangan 2241 she’riga doir ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 21-noyabrdagi 01-1691-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning Qo‘qon adabiy muhitiga bag‘ishlangan qismi Husaynquli Muhsiniy biografiyasi va devoni manbalariga doir yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan;

Muhsiniy ilmiy biografiyasini yaratish asoslari va shoir devoni qo‘lyozmalarining monografik tavsifi, shoir devonining tayanch manbalarini aniqlash mezonlari va ijodkor asarlarini o‘rganishda matn tarixining o‘rni haqidagi ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020-yillarda bajarilgan “PZ-20170926459 raqamli “Navoiyshunoslik tarixi” (XX-XXI asrlar)” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 24-oktyabrda imzolagan 01/1-1904-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek adabiyotiga doir qo‘lyozma devonlar katalogini tuzish hamda ko‘p nusxali manbalarni tavsiflash, ularning tayanch

manbalarini aniqlashga doir ilmiy-nazariy tamoyillar ishlab chiqilishiga asos bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, olti fasldan tarkib topgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

I BOB. MUHSINIY TARJIMAI HOLI VA SHOIR ASARLARINING MANBALARI TAHLILI


1.1. Shoir biografiyasiga doir manbalar tahlili

Husaynquli Muhsiniy hayot yo‘liga doir ma‘lumotlar keltirilgan manbalarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Shoirning o‘z asarlari.
2. O‘sha davrga doir tazkira va majmualar.

Ushbu manbalardagi ma‘lumotlar bir-birini to‘ldirishi, ayrim munozarali fikrlarga oydinlik kiritishi jihatidan shoir ilmiy biografiyasini yaratishda muayyan ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash kerak. To‘g‘ri, bu ma‘lumotlar Husayniyning mukammal ilmiy biografiyasini yaratish uchun kamlik qilishi mumkin. Lekin mavjud ma‘lumotlarni to‘plash, tizimga solish, tahlil etish nuqtayi nazaridan shoir ilmiy biografiyasini yaratish yo‘lidagi muhim qadam vazifasini o‘tashi ayon.

Shoirning o‘z asarlari. Muhsiniy biografiyasi haqidagi dastlabki manba uning o‘z asarlaridir. Jumladan, “Gulshani jovid” devoni nusxasi debochasida shoir mana bunday so‘zlarni yozadi:



اکتسابی جلوه کرا و لوب غایتده تحریر و نهایتده
بر عین کویستروب علم و فنون او قوتما فعه مادون
قیدلار و خود طبیعتده امانی دانش و جمایه
ارتباط و اختلاط لار نغمه عن صمیم لقلب خلاص و عنقاد و عن علم

نه او چو نغمه از نیک براتب سر لقلارنده اللذین اولوا العلم درجه
ایه مد و جلالی کونکلام نبایغه اوت ساکون سمر کرا نغمی
تحقیق ز نور کلام و دقیق مضمون معانی و انتظام و
مصرف قیام کسبده اند و منده الاز نیک استفاضه صحبت
اولاریدن فی کسبه سواد حروف و استطلاع معانی
مقدور اولدی و انا کونکلام لوجده المجر قسطه تحقیقه مضمون

“Ammo ba’d ushbu sargashta bodiyai hechmadoniy va mustag‘raqi bihori jahl va nodoniy va zoviyai shaydi kunji isyon Husaynquli bin Sulaymonquli aslahallohu ahvolahu bu tavr ila bayoni hol va bu nahj ila ma’ruzi mofilxayol edarkim, ul hazrat volidi buzrukvorim xotiri xibrat mazohirlarina faqir farzandi dilpazirlarini takmili maorif va tahsili ulum iktisobi jilvagar o‘lub, g‘oyatda tahrir va nihoyatda targ‘ib qo‘pturub, ilm va funun o‘qutmoqg‘a mo‘dun qildilar. Va xud tabiatimda

ahli donish va jamohiri biynish irtibot va ixtilotlarig‘a an samimil qalb ixlos va e‘tiqod qilurdim. Ne uchunkim, alarning marotib manzilatlarinda “Allaziyna utul- ilma darajotin...” oyati mamduhalari ko‘nglum bunyodig‘a o‘t solib, umr garonmoyayi tahqiqi rumuzi kalom va tadqiqi mazmuni ma‘oniyi nasr va intizom tahsilina masruf ettim. Alhamdulillah val-minna alarning istifodai suhbatlari maymanatlari asarlaridin filjumla savodi huruf istilo‘i ma‘oniy maqdur o‘ldi”¹¹.

Debochadan olingan ushbu iqtibos bir necha jihatdan muhimdir. Birinchidan, otasi Sulaymonquli shoirning ma‘rifatini oshirish va ilm o‘rganishiga katta ishtiyoq bildirgan va bu yo‘lga astoydil targ‘ib etgan Ikkinchidan, Husaynqulining tabiatida ham donishmand va bilimdon kishilar bilan yaqinlashishga va ular suhbatiga kuchli ixlos va e‘tiqod bo‘lgan. Uchinchidan, shoir kichik yoshidan ilm va hikmat ahli bilan bo‘lgan ana shunday suhbatlarda Qur‘oni karimdagi ilmga targ‘ib etuvchi “Alloh sizlardan iymon va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur” singari oyatlarni tinglaganda yuragiga o‘t tushgani, natijada qimmatli umrini so‘z ramzlari zamiridagi haqiqatlarni anglash hamda nasr va nazm ma‘nolarini tadqiq qilish yo‘llarini o‘rganishga sarflaganini ta‘kidlaydi. To‘rtinchidan, ilm ahlining saodatli suhbatlari foydasidan savod chiqarib, ma‘nolarni anglash qobiliyatiga ega bo‘lganini bildiradi. Muhsin Olimov maqolasida ham shoirning otasi Sulaymonqul ilmli, ayniqsa, she‘riyatni qadrllovchi kishilardan bo‘lgani, o‘g‘li Husaynni bilimli qilishga intilgani ta‘kidlanadi¹².

Husaynquli Muhsiniyning baxti shunda ediki, otasi ilmu fazl ahli davrasiga olib borib, uning qalbiga ilmga muhabbat o‘tini solgan, savod chiqarishi va maoniy ilmni anglashiga jiddu jahd qilgan bo‘lsa, madrasada tahsil olishiga, ilmda kamolga erishuvida Nabiqul amakisining hissasi katta bo‘lgan. Mazkur amakisiga bag‘ishlangan etti bandli muxammasida uning qaysi madrasada ta‘lim olgani va haj safariga borish sanasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Mana, muxammasning shu mazmundagi bandi:

¹¹ Мухсиний. Гулшани жовид. Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти асосий қўлёзмалар фонди. Инв. №7392. – Б. 2^а

¹² Олимов М. Муқимийга қасида ва унинг муаллифи. //Совет Ўзбекистони, 1968 йил 7 февраль.

*Manim ilmim rivojig 'a takofu ayladi chandon,
Olib Sul-tonmurodbek madrasasida hujrai arzon -
Kim, anda ilm tahsil ayladim xursandu ham shodon,
O'qub har nav' ilm, ko'n-glum ichra qolmadi armon,
Bihamdillahki, ma'lum o'ldi har mazmuni ma'nosi*¹³.

Ushbu band mazmunidan anglashiladiki, Muhsiniy Qo'qonning Sul-tonmurodbek madrasasida ta'lim olgan va Nabiqul amakisi uning ilm olishi uchun astoydil harakat qilgan. Muxammasdagi "*Olib Sul-tonmurodbek madrasasida hujrai arzon*" misrasi adabiyotshunos Muhsin Olimovning: "Shoir dastlab mahallasidagi Mirzo Yodgor, keyinroq esa Hokim oyim madrasasida tahsil ko'radi", degan fikrlari to'g'ri emasligini ko'rsatadi¹⁴. "Tazkirayi Qayyumiy"dagi: "...ibtidoiy tahsilni mahalla masjidida olib, ...so'ngra Madrasai Sul-tonmurodbekda mudarris domla Abdulmo'min Shahrixoniy nomli kishidan ulumi arabiy sarf, nahv, lug'at o'rganmishdur"¹⁵, degan ma'lumot ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Shoir Nabiqul amakisiga bag'ishlangan muxammasida uni *javonmard, tijorat ahli donosi, karim un-nafsu komil, ag'niyo ahlining a'losi, zarifu xurdadon, ahli donishlar mirzosi, bazlu saxoda mulki Farg'ona aro mashhur, Kalomi Haq tilovat qilg'oni-chun orazi purnur, hama arkonlarining xurdadonu bazmorosi* singari sifatlar bilan vasf etadi. Muxammas satrlarida shoirning bu ulug' insonga muhabbati va hurmati nechog'liq baland bo'lgani samimiyat va mahorat bilan badiiy talqin etilgani kuzatiladi. Mazkur muxammasning beshinchi bandi mazmunidan shoirning 19 yoshda hajga borgani ma'lum bo'ladi:

*Ziyorat qildim o'n to'qquz yoshimda ravzai aqdas,
Munosib ko'rmasa Haq, etmagay ul joyga har kas,
Manam bir el oyog'i ostida aftoda xoru xas,
Meningdek ko'rmag'ondur bir sipehri nilgun atlas,
Qatori bandalarda osiyu sharmanda rasvosi*¹⁶.

¹³ Muhsiniy. Barxat gulshan. – Farqona, 2008. – B.119.


¹⁴ Olimov M. Muksimiyga qasida va uning muallifi. // Совет Ўзбекистони, 1968 йил 7 февраль..

¹⁵ Qayumov P. Tazkirai Qayumiy. -T.: ЎЗР ФА Қўлэмалар институти тахририй нашриёт бўлими. 1998, II китоб. – Б. 380 – 381.


¹⁶ Muhsiniy. Barxat gulshan. – Farqona, 2008. – B.119.

Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning muborak ravzalarini ziyorat etgan shoir nihoyatda ta'sirlanadi. Haq taolo munosib ko'rmasa, bunday baxtga hamma ham erisha olmasligini aytadi. O'zini "el oyog'i ostida aftoda xoru xas" deya ta'riflaydi. Bu moviy atlasga tashbeh etiluvchi falak bandalar qatorida uningdek osiyu sharmanda rasvoni ko'rmagani haqida yozadi. Professor Nurboy Jabborov Furqatning shunga monand misralarni tahlil etar ekan, mana bunday yozadi: "...shoir o'zini yuzi qarolik va osiylikda, Haq taolo yo'riqlarin tuta olmay, umrini abas kechirganlikda, o'z joniga zulm qilganlikda ayblaydi. Tabiiyki, bu sharqona o'zini malomat qilish natijasi. Umuman, mumtoz shoirlarimizning deyarli barchalari "Malomatda salomat" degan qoidaga amal qilganlari ma'lum. Ya'ni, ularning fikricha, inson hech qachon xotirjamlikka berilmasligi kerak, nafsning xohishlariga bo'ysunmasligi zarur. Buning uchun o'zini taftish qila bilishi, har doim o'z holidan ogoh bo'lishi lozim. Mazkur misralarda ushbu qarash hosilasi aks etgan"¹⁷. Bizningcha, Muhsiniyning "Meningdek ko'rmag'ondur bir sipehri nilgun atlas, Qatori bandalarda osiyu sharmanda rasvosi" satrlarini ham ana shu mezon asosida tahlil etilsa, to'g'ri bo'ladi. Shoir bu orqali o'zini malomat qiladi, qalban va ruhan poklanadi.

Muhsiniyning 1887-yili o'n to'qqiz yoshida hajga borgani haqidagi ma'lumot shoir o'z dastxati bilan ko'chirilgan 7392 inventar raqamli qo'lyozma devon debochasida ham berilgan. Shoir debochada, jumladan, mana bunday yozadi:



¹⁷Жабборов Н. Фуркатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси: фил. фан. док-ри.... дисс. – Тошкент, 2004. – Б. 57



“...validi amjadim jonim qulog‘ina go‘shvorai durri nasoyihlarin osub deydilarkim: “Ey qurratul-ayn nurul-absorim, biz validayn rizolig‘imiz rizoyi Parvardigori olamin va rasuli insu jindur”. Alhaq ushbu kalimoti maymanat nasimotlaridin dimog‘i jonim muattar o‘lub dedimki: “Ey padari buzrukvorim va ey qiblai ofozatosorim, ushbu pandu ma‘vizalar nasimidin bihori umidim purdur va niholi orzularim pursamar o‘ldi. Va lekin zamirim kunjida pinhon maqsadim bordurkim, marzoyi xotiralari o‘lg‘och mutlaq ul-inon muraxxas aylasalarkim, ushbu ozod gardanim taalluq zanjirig‘a asir va poyi orastalarim nafaqai ro‘zgor silsilasig‘a dastgir o‘lmasdin sarlavhai taqdirimda kotibi devoni qazo tavofi baytulloh va ziyorati ravzai Rasululloh tahrir qilg‘on bo‘lsa, isyon dudi birlan qaro bo‘lg‘on tanim va xatou nisyon g‘uboridin oludalong‘on jismimni “Va man daxalahu kana ominan” sayqali-la musaffo “Va lillahi alannosi hijjul-bayti man istato‘a ilayhi sabilan” sobuni-la mujallo aylasam”¹⁸.

¹⁸ Муҳсиний. Гулшани жовид. Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти асосий қўлёзмалар фонди. Инв. №7392. – Б. 3-аб.

Ushbu ko‘chirmadan Muhsiniyning otasi bilimdon va ma’rifatli kishi bo‘lgani anglashiladi. Chunki otasi shoirga “Alloh taoloning roziligi ota-onaning roziligidadir”, mazmunidagi muborak hadisni eslatib, nasihat qiladi. Shoir otasi bilan muloqot jarayonini ham go‘zal badiiyat bilan ifodalaydi. Ya’ni valine’matining qutlug‘ nasimlarga monand pandu o‘gitlaridan umid dengizi durlarga to‘lgani va orzularining nihollari quvvat olgani haqida so‘z yuritadi. Otasiga ko‘nglining tubida yashirin bo‘lib turgan maqsadini bayon etadi. Valine’matidan rozi-rizolik ila chin ko‘ngildan ozod bo‘yniga mas’uliyat zanjiriga asir, oyoqlarim tirikchilik tashvishlariga bog‘lanmay turib, agar qismat devonining kotibi taqdirimga baytulloh tavofini va payg‘ambarimiz ravzalari ziyoratini yozgan bo‘lsa, gunohlar tutunidan qoraygan tani va xatolaru unutishlar g‘uboridan kirlangan jismini “Kimki u erga kirsa, omonlik topgay” oyati mazmuniga muvofiq poklash, “Yo‘lga qodir bo‘lgan odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish (farzi) bordir” mazmunidagi oyat sovuni bilan jilo berish niyati borligini bildiradi. Bu fikrlar, birinchidan, sajli nasrda (buzrukvor – ofazatosor, bihor-nihol, asir-dastgir, baytulloh – Rasululloh, qaro bo‘lg‘on – oludalang‘on, musaffo - mujallo) bitilgani, ikkinchidan, *qurratul-ayn, nurul-absor, bihori umid, niholi orzularim, zamirim kunji, taalluq zanjiri, ro‘zgor silsilasi, kotibi devoni qazo, xatou nisyon g‘ubori* singari istioralar, Qur’oni karim oyatlariga asoslangan iqtibos san’atlari vositasida go‘zal badiiyat bilan ifodalangani Muhsiniyda adabiy idrok, badiiy did baland bo‘lganidan dalolat beradi.

“Ma’ziratnomai Muhsiniy ba axiyi arjumand xud” deb nomlangan masnaviyda bitilgan haj safarnomasida shoir yo‘lda ko‘rgan kechirgan azobu qiyinchiliklarini yozib qoldirgan. Ushbu masnaviyda, jumladan, quyidagilarni o‘qiymiz:

*Voy bar hol hojilarki, kelur,
O‘zlarin munda xoru zor qilur.
Makkada ro‘zgori o‘tmasdek,
Kori dunyosi anda bitmasdek.
Yo‘lda zulmu ta’addiy, jabr ko‘rub,*

*Farchai non yo 'qina sabr ko 'rub.
Kechalar masjid ichra xob qilub,
Yo 'lni tobi jigar kabob qilub¹⁹.*

Demak, shoirning haj safari mashaqqatu zahmatlarga to'liq bo'lgani ma'lum bo'ladi. Yo'lda zulmu sitam, jabr ko'rgani, ochlikka sabr qilishga to'g'ri kelgani, masjidlarda tunab, jigarni kabob qilish evaziga haj ibodatini ado etgani haqida so'z yuritadi shoir.

*Bu tariq ila kelmish hujjoj,
Yo 'l adoshi topolmayin minhoj²⁰.*

Hojilar shu tariqa to'g'ri yo'lni topa olmasdan adashgani safar mashaqqatini ziyoda etgani kuzatiladi. Ana shu tarzda qiyinchiliklarga qaramay, Muhsiniy haj arkonlarini katta ixlos va e'tiqod bilan ado etgani quyidagi satrlardan ayon bo'ladi:

*Hajar ul-asvad uzra nolau zor,
Ruknlarda quchib bari devor.
Ka'ba tunin qaro qilib ohim,
Zavqu shavqi maqomi Ibrohim.
Oquzub ashk ishqidin har dam,
Kelturub jur'a chashmai Zamzam²¹.*

Hajar ul-asvadni tavof etar ekan, shoir nolayu zor etadi. Haj ruknlarini bajarar ekan, Ka'batulloh devorini quchadi. Tunni tongga ulab maqomi Ibrohimda zavqu shavq bilan ibodat qiladi. Haq taolo ishqidan ko'zlaridan yoshlarini oqizib, Zamzam suvini ichadi.

*Har namozi furuzi jahru xafiy,
Maskanim erdi jodai xanafiy.
O'lturub yig'ladim ba bahri duo,
Ba'd say'i vuqufi Marvau Safo.
Hosil andin axir o'lub mahrum,
Azmi rij'at ko'ngul qilib mag'mum²².*

¹⁹ Қўлёзма девон. Тўқ жигаррангда Қўкон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. 91-⁶саҳифа.

²⁰ Ўша манба 92-^a саҳифа.

²¹ Ўша манба 93-^a саҳифа.

Har bir namozni, u xoh jahriy o‘qiladigan, xoh maxfiy o‘qiladigan namoz bo‘lsin, Xanafiy mazhabi qoidasiga ko‘ra ado etgani, Marva va Safo tog‘lari orasida sa’y etgach, yig‘lab duo qilgani, har qancha mashaqqatli bo‘lmasin, azmi rij’at qilar, ya’ni hajdan qaytar ekan, ko‘ngli g‘amga to‘ladi.

Muhsiniy, kech bu gunbazi davvor,

Chunki fazlu kamol ahli xor.

Kimki olam ichinda siflau dun,

Baxtu iqbolu tole’i afzun.

Shukr ayla Xudoga, hamdu sipos,

*Qildi ashraftarini bayn an-nos*²³.

Bu misralar Muhsiniy qalbidan o‘tgan lirik kechinmalarning badiiy talqini ekani jihatidan qimmatlidir. Shoir fazlu kamol ahli xor, past va tubanlarning baxtu iqboli ziyoda ekanidan kuyinadi. O‘zini odamlar orasida eng sharaflilardan qilgani uchun Yaratganga maqtovlar aytadi.

Muhsiniy ko‘p qiyinchiliklarga uchragan bo‘lsa ham, haj safari davomida dunyoning bir qancha mamlakatlarini ko‘radi, turli xalqlarning yashash tarzi bilan tanishadi. Adabiyotshunos Usmonjon Ne‘matov bu haqda shunday yozadi: “Qo‘qon adabiy muhitida yetishgan shoirlar orasida hoji Ubaydulloh Zavqiy, hoji Husaynquli Muhsiniylar dunyo ko‘rgan shoirlar ekanligi bilan ajralib turadi. Ular umrlari davomidagi unutilmas haj safari munosabati bilan O‘rta Osiyo, Yevropa, Turkiya, Hindiston, Afg‘oniston, Arabiston kabi yurtlarda bo‘lib, bu mamlakatlardagi hayot manzaralari, odamlarning xulq-atvori, turmush tarzi, bir-biriga munosabatlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan”²⁴.

“Tazkirayi Qayyumiy”da bu haqda quyidagicha ma’lumot beriladi: “Muhsiniy ham Zavqiy kabi 1887-yilda haj safarida bo‘lgan. Lekin uning safari Kavkaz va Turkiya orqali emas, balki Hindiston orqali bo‘lgan. Demak, Muhsiniy va uning hamsafarlari tanlagan safar marshruti baland tog‘ yo‘llari, uchirma dovonlar, changalzorlar o‘rmonlar bo‘ylab kechgan. Shuning uchun Muhsiniyning

²² Ўша манба 93-^a саҳифа.

²³ Ўша манба 93-^a саҳифа.

²⁴ Неъматов У. Завкий ва Муҳсинийнинг сафарномалари./Завкий ижоди (мақолалар, хотиралар, шеърлар). - Фарғона, 2008. – Б.73.

safarnoma masnaviysida yo‘l xatarlari, azob uqubatlari, noqulay ob-havo sharoitlari, vahimali dovonlar, dara va jarlar tasviriga ko‘p o‘rin berilishi tabiiydir”²⁵.

Tabiiyki, dunyo ko‘rishi shoir dunyoqarashining kengayishiga, asarlarining mazmunan boyishiga ta’sir ko‘rsatmay qolmagan. She’rlarida hayot falsafasining murakkab va ziddiyatli tomonlari chuqur mazmun va go‘zal badiiyat bilan aks etgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Shoir asarlari mazmunidan ma’lum bo‘ladiki, haj safaridan qaytgach, u do‘kondorlik bilan shug‘ullangan. “Barhayot gulshan” devoni so‘zboshisida yozilishicha, Muhsiniy madrasa ta’limidan so‘ng ota kasbi savdogarlik bilan shug‘ullangan. U Avliyoota, Turkiston singari shaharlardan qo‘y olib kelib Farg‘ona vodiysi bozorlarida sotadi. Haj safaridan keyin ota-onasi ra’yiga muvofiq uylanadi. Muhsiniyning 2 nafar qizining ismlari noma’lum va Muhyiddin (1892-yil), Nuriddin (1894-yil) ismli o‘g‘illari bo‘lgan²⁶. Shoir umrining oxirlarida iqtisodiy taqchillik bilan kun kechirgan. G‘azallaridan savdogarlik bilan shug‘ullangan kezlarida molu davlati va yoru birodarlari ko‘p bo‘lgani anglashiladi. Savdoda kimlardir Muhsiniyga xiyonat qiladi, shu sababli molu dunyosidan ayrilib qolgani, boshiga qiyin kunlar tushganda yaqin xeshlariyu do‘stlari uni unutgani achchiq til, alamli xotira bilan eslanadi. Qo‘lyozmada qizil siyohda “Fi-l-mutoyiba” sarlavhasi bilan bitilgan quyidagi baytlar ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Kettingiz bizni qilib oxir gado, siz boy bo‘ling -
Kim, g‘aniylik fikrin aylab muddao, siz boy bo‘ling.
Ahd aylab erdingiz: “Ayrilmag‘aymen o‘lgucha”
Yuz qasamlar ichib “Valloh, Xudo”, siz boy bo‘ling,
Aylading begonalig‘ oxiridakim, ey bevafo,
Bo‘lmayin ham oqibatlig‘ oshno, siz boy bo‘ling²⁷.*

²⁵ Завкий ижоди (мақолалар, хотиралар, шеърлар) “Фарғона” нашриёти 2008. –Б.76.

²⁶ Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.7.


²⁷ Қўлёзма девон. ЎЗР ФАШИ фонди. Инв. 7392. 54-бет.

Munojot ruhidagi gʻazalida yozishicha, shoir Yaratganga iltijo qilib, bir vaqtlar qoʻlidan ketgan molu davlatini qaytarib berishini soʻraydi. Xalq uni taʼnamalomat qilayotgani, ammo bir vaqtlar qoʻlida molu davlati boʻlgan kezlarida xeshu begona uni izzat qilgani, hamyonida puli qolmagach, undan yuz oʻgiranlari, kecha ulfat boʻlgan yoru birodarlar endi undan qochgani bilan bogʻliq lirik kechinmalar oʻziga xos talqin etiladi sheʼrda. Mana, oʻsha baytlar:

*Ey shahim, bergil yana qoʻldin yiturgan davlatim,
Chunki yoʻqtur taʼnai mardumgʻa tobu toqatim.
Bor erdi ul dam bisotim ichra oncha naqdu mol,
Qildilar xesh-u yana begonalar ham izzatim.
Koʻrdilar hamyonni xoli aqchadin, yuz oʻgurub,
Qochtilar yoru birodar – kecha kunlar ulfatim²⁸.*

Ushbu satrlar orqali shoirning mol doʻst boshqayu jon doʻsti boshqa ekani haqidagi falsafiy xulosalari, odamzodning nokomil ekanidan nadomat chekkan. Shoirning yuqorida keltirilgan baytlarida ishora qilingan voqealar devonining 7392 inventar raqamli qoʻlyozmasi 119-^{ab}sahifalaridagi toʻqqiz bandli musammanida ham aks etgani kuzatiladi. Mazkur musammanda Muhsiniy savdogarlik ishi bilan mashgʻul boʻlgani va sherigi Hakimboy ismli kishi unga tuhmat, boʻhton qilib barcha molu pulini olib qoʻyganini achchiq soʻzlar bilan kinoyali tilda ifodalaydi. Adib shu voqeadan soʻng qoʻychilik bilan mashgʻul boʻlib, dashtu sahrolarda azob chekkanini iztirob bilan taʼsirli talqin etadi. Asar matnida ushbu voqea 1877-yilda sodir boʻlgani tarixi sarih, yaʼni tarix sanasini ochiq-oydin koʻrsatish usulida bayon etiladi. Mana, qoʻlyozmadagi musammanning shu mazmundagi bandlari:

²⁸ Ўша манба. 61-^бет.



*O'zumni ajratib oldum bu yanglig' men chekub diqqat,
 Yana qo'ychilig' aylab chekmisham javru jafu mehnat,
 Kezib sahrou cho'lni har shahrlarda chekib g'urbat,
 Hama farzandu ashyo xonu boylardin qilib uzlat,
 Jazoyi mehnatim andak Xudoyim qildi bo davlat,
 O'zumni nonimi yermen tashakkur birla beminnat,
 Javonmardi zakunchi nomi barxurdor dunyodin,
 Xabarsiz sarnavishti lavhai "Nahnu qasamno" din.*

*O'zum topgan edim kuygan emastur oni zarnixi,
 Oni ko'ksig'a sonchildi husudu buxlni mixi,
 Chidolmay davlatimg'a kinasidin chiqti tirnixi,
 Yana ustig'a ortuqcha mango jabr ila bu pixi,*

*Edi bir ming sakiz yuz etmish ettida tarixi,
Faqat bu to'rt yuz so'mdur o'shal dastmoyani bixi,
Hakimboyi zakunchi nomi barxurdor dunyodin,
Xabarsiz sarnavishti lavhai "Nahnu qasamno" din²⁹.*

Ushbu satrlar shoirning hayoti oson kechmagani, mehnatu zahmat bilan o'tgani isbotidir. Asarlarida aks etgan hayotiy haqiqatlar, birinchidan, ijodkor biografiyasiga doir ma'lumotlarni to'ldirishi, ikkinchidan, o'sha davr ijtimoiy muhiti haqidagi tasavvurlarni boyitishi, uchinchidan, uning ijodiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash imkonini berishi, to'rtinchidan, asarlarining yaratilish tarixi bilan tanishtirishi jihatidan qimmatlidir.

Umuman, Muhsiniy asarlarida shoir biografiyasiga doir qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bu esa, o'z navbatida, mazkur asarlarning shoir ilmiy biografiyasini tiklashda muhim manba bo'la olishini tasdiqlaydi.

O'sha davrga doir tazkira va majmualar. Po'latjon domla Qayyumovning "Tazkirayi Qayyumiy" asarida Muhsiniy biografiyasi haqida quyidagicha ma'lumot beriladi: "Muhsiniy – bu shoir shaharni(ng) kunchiqar tomonida bo'lmish Marg'ilon dahasida Mirzo Yodgor mahallada hozir Zarafshon nomli ko'chada 3-nci nomerli hovlida 1860 inchi yilda dunyoga kelmishdir. Nomi Mulla Muhsinjon hoji bo'lib, Sulaymonboy o'g'lidir. Har vaqt imzo etarda Husaynquli ibn Sulaymonquli deb yozgan emish. Boshqa ibtidoiy tahsilni mahalla masjidida olib, ayrim xattotda husni xat ta'lim olmishdur. So'ngra Madrasai Sultonmurodbekda mudarris domla Abdulmo'min Shahrixoniy nomli kishidan ulumi arabiy sarf, nahv, lug'at o'rganmishdur... 1887-yilda bir guruh ulfatlari ila Hindiston orqali Xijoz safariga chiqib, adoyi haj etmishdur"³⁰.

Ushbu tazkirada shoirning tavallud sanasi 1860-yil ekanini ta'kidlagan Po'latjon domla Qayyumov "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti: (materiallar va xotiralar)" deb nomlangan boshqa asarida uning tug'ilgan yili haqida o'zgacha ma'lumot beriladi: "Shoir Muhsiniy. Bu kishining nomi Mulla Husaynjon hoji

²⁹ Қўлёзма девон. ЎзР ФАШИ фонди. Инв. 7392. 119-^{аб}бет.

³⁰ Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Т.: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти тахририй нашриёт бўлими. 1998, II китоб. – Б. 380.

bo‘lib Sulaymonqul boy o‘g‘lidir. Xo‘qand shahrini(ng) Marg‘ilon dahasida Mirzo Yodgor mahallasida 1863 nchi yilda tug‘ildi”³¹. “Tazkirayi Qayyumiy”da shoirning ismi Muhsinjon hoji tarzida taxallusi bilan adashtirilgan bo‘lsa, keyingi asarida tavallud sanasi uch yil keyin etib belgilangan. Lekin boshqa barcha ma’lumotlar shoirning 1860-yilda tug‘ilganini tasdiqlaydi.

Muhsiniy shoir bo‘lish bilan birga mohir xattot ham bo‘lgani ma’lum. Tazkirada uning xattotlikni bolalikdan o‘rgangani ta’kidlanadi: “...ayrim xattotda husni xat ta’lim olmishdur”³². Abdulqodir Murodov shoirning: “Arab, fors va o‘zbek adabiyotlaridan xabardor, iste’dodli shoir, turli xatlarga mohir xattot kishi edi... Devoni nasta’liq xatida. 1916-yilda o‘zi ko‘chirgan boshqa qo‘lyozmalari ham bor”³³ligi haqida ma’lumot beradi.

“Tazkirayi Qayyumiy”da shoirning surati va siyrati, adabiyotga erta muhabbat qo‘ygani va boshqa fazilatlari xususida ham qimmatli qaydlar uchraydi: “Xushfe’l, serzavq, ochiq chehrali, mehmonnavoz, notiq va bedilxon, fozil shoir edi. Forsiy, turkiy nazm devoni ikki tilda bo‘lib, o‘z o‘g‘illaridan hozirda hayot mullo Nuriddinjonning qo‘llarida saqlanmoqdadir. Madrasai Sultonmurodbekda istiqomat vaqti yozgan shoir Mirzo Abdulqodir Bedilning devoniga ko‘zimiz tushgani bordur. Shoir Firqatning ustodi shoir Nisbatiy ekani Muhsiniydan manquldir. Novcha bo‘yli, qotmaroq gavdali, bug‘doy rangli, ozoda ko‘rinishli, shoirlik o‘ziga zeb tushmish kishi ekani ko‘rganlarga ma’lum bo‘lsada, shuhratni sevmay edi. Nihoyat, 1917 nchi yilda 57 yoshinda muharram oyining 3-nchisida yuqorida ko‘rsatilmish joyda vafot etmishdur”³⁴.

Bu iqtibos, birinchidan, Muhsiniyning tashqi qiyofasi va tabiati haqida tasavvur uyg‘otishi, ikkinchidan, shoirning devoni va uning saqlanish joyi ma’lum etilgani, uchinchidan, madrasada o‘qigan kezlari xattot sifatida Mirzo Abdulqodir Bedil devonini ko‘chirgani xususida ma’lumot berishi jihatidan qimmatlidir.

³¹ Қайюмов П. “Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти: (материаллар ва хотиралар)” –Т.: Тамаддун, 2011. – Б. 197-198.

³² Ўша манба. – Б. 381.

³³ Мuroдov A. Ўрта Oсиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971. – Б.134.

³⁴ Қайюмов П. Тазкирайи Қайюмиий. Т.: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти тахририй нашриёт бўлими. 1998, II китоб. – Б. 381.

Po‘latjon domla Muhsiniy portretini chiroyli tasvirlab, shunday yozadi: “Qoracha yuzli, bo‘g‘iq ovozli, ozodavash, hazilkash, suhbat shirin fozil kishi edi. Rojij bilan juda ulfat edi. Cholg‘uda ham usta bo‘lib, o‘zidan keyin bir “Ash‘ori Muhsiniy” nomida bir devoni qoldi. Bir o‘g‘li bo‘lsa-da, boshqa xizmatlar bilan mashg‘uldur. Shodmon hoji va Muhammadjon hojilar bilan bir qancha ulfatlar bilan haj safariga chiqqani va Hindistonda qalandar bo‘lishib qiziq talqin aytib gadoylik qilganlari to‘g‘risida, Mahmud xoja orqali aytgan. Shodmon hojining so‘zi so‘zlanib kulishib yurilar edi. Yoqubjon eshonning huzurida bo‘lar edi. Buning devoni Qo‘qon shahri muzeyiga berilgani to‘g‘risida o‘g‘lining aytgani bor bo‘lsada, shahar muzey kitobxonasida bu kitob ko‘rinmadi, o‘g‘irlangan bo‘lsa kerak. 87 “a” g‘azali Muhsiniy (Bir varaqchadan ko‘chirib oldik. Lekin chalaroq holda ekan. Namuna uchun olib qo‘ydik)”³⁵.

Shundan so‘ng manbada shoirning 7 baytli bir g‘azalini keltiradi. Mana o‘sha g‘azal bayti:

*Yo Rab, mani majruhning dardi nihon o‘lturgusi,
Rangu ruhimdur hajrdin chun za‘faron o‘lturgusi.*

Ushbu g‘azal Navoiyning “O‘lturgusi” radifli g‘azaliga tatabbu’ tarzida yozilgani bilan ahamiyatlidir.

Po‘latjon domla shoir ijodi haqida qimmatli fikrlarni bildirib mana bunday yozadi: “Shoir Muhsiniy devonining I nchi jildida nasr ila bir kirish so‘zi yozibdur. (Abjad hisobi ila 1330 sana 1911-12 m.da bo‘lib chiqadur). “Hazo ta’rix ta’lif” sarlavhasi bor. Ushbu devoni “*Muhsiniy aslahallohu la havolihi*”. So‘ngra tubandagicha qisqagina nazm ila bunday boshlaydi. Bu ham muqaddimadur:

*Saodatmand bo‘ldi baxti feruz,
Masarratbaxsh ham chun iydi Navro‘z.*

Toshkandli To‘ra nomli shoirning shul radifli g‘azaliga tatabbu’ etmish ekan. (U) tubandagidir:

Ketdi toshingni rashkida durri yaman, yaman,

³⁵ Қайюмов П. “Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти: (материаллар ва хотиралар)” –Т.: Тамаддун, 2011. – Б. 197-198.

*Ham hasrati ko 'zingga bu g'izoli xo 'tan, xo 'tan,
Nomu taxallusing na debon so 'rdi ul nigor,
Muhsin dedim taxallusu nomim Husayn-Hasan*”³⁶.

Mazkur ma'lumotlar Muhsiniy devoni debochasidan olingan va g'azal matni 7392 inventar raqamli qo'lyozmada mavjud. Faqat To'ra nomli shoir g'azaliga bog'langan tatabbu' matni shoir asarlarining qo'lyozmalarida uchramadi. Ushbu g'azal maqtasida shoir o'zining ismi Husayn va taxallusi Muhsin ekanligini aniq ifodalagan. Debochada keltirilgan g'azal baytlaridagi ayrim so'zlar va so'z birikmalari muallif tomonidan 7392 inventar raqamli qo'lyozmada ma'lum darajada tahrir qilinib o'zgartirilgani kuzatiladi.

Muhsiniy taxminan 1880-90-yillarda oila quradi. Uning ikki qiz, ikki o'g'il farzandlari bo'lgan. Shoir taxminan 1890-yillardan qo'y savdosini to'xtatib, do'kondorlik bilan shug'ullangan. Marg'ilon, Quva, Shahrixon, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlardagi savdogarlar bilan tanishadi. Ular bilan do'stona aloqada bo'ladi. Bu aloqalar natijasida shoirning 7392 inventar raqamli va nashr devonida Quva, Namangan, Andijon, Toshkent, Marg'ilon kabi shaharlarga yuborilgan she'riy maktublari bor. Ushbu maktublarda turli kasb egasi bo'lgan insonlarning ijobiy fazilatlari va salbiy jihatlari ifoda etilgan.

Muhsiniy Quva shahriga jo'natgan she'riy maktubida Mullo Azim Oxund, domulo Ibrohimcha, mullo Sadridin, Abdurasul oxund, hoji Solihjon, Vahobjon boyvachcha, hoji Zuhridin, Solijon, Mullo Azimjon, Mullo Fozil, domlo Yunusali, usta Iso najjor, Mirzo Muhammad, Ibrohimjon usta, Mullo Qodirjon, Sadridin so'fi, Hoshimboy aka kabi turli kasb va tabaqa vakillari ismi zikr qilingan.

Namangan shahriga jo'natilgan she'riy maktubda Bahodir savdogar, Mullo G'ulomjon kabi kishilar shoir ko'ngliga ma'qul bo'lgani ifodalangan. Toshkent shahridagi shoir oshna-og'aynilariga yozilgan maktubida G'afurxo'ja, Mansurxon, In'omjon, Zayniddin, Mulla Mo'minjon ismli insonlarning qilgan yaxshiliklari e'tirof etilgan.

³⁶ Қайюмов П . Тазкираи Қайюмий. Т.: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти тахририй нашриёт бўлими. 1998, II китоб. – Б. 381-382.

Shoirning Marg‘ilon shahridagi yaqinlariga atab yozilgan maktubida bir qancha muhtaram kishilar nomi zikr qilingan. Jumladan, mingboshilar Mahmudbek, va muruvatli oshnalari Egamberdi, Muhammadalixon, Dodajon boy, Hoji Amin hamda mashhur Yusufjon qiziq ham eslanadi. Andijonga bitilgan maktubda Akbar Ali, Nosir ismli kishilar eslanib yurt hurriyatga erishgani bilan muborakbod etadi.

Muhsiniy Qo‘qon adabiy muhitining o‘sha davrdagi yetuk namoyondalari Muqimiy, Furqat, Nisbatiy, Zavqiy kabi ijodkorlar bilan ham yaqin munosabatda bo‘lgan. Adabiyotshunos Usmon Ne‘matov: “Muhsiniyning Muqimiyga bo‘lgan munosabati, unga bo‘lgan sadoqati e‘tirofga loyiqdir. Uning Muqimiyga bag‘ishlab yozgan qasidasi – ustoz shoirga hurmati va e‘tiqodining yorqin isboti”³⁷ deb yozganda ana shu munosabatlarni nazarda tutgan.

Har qanday ijodkor o‘zi yashayotgan adabiy muhit bag‘rida kamolga erishadi. Shu jihatdan, o‘tgan asr avvalida Qo‘qon adabiy harakatchiligi Muhsiniy dunyoqarashiga, adabiy-estetik tafakkuri takomiliga muayyan ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lishi ham ayni haqiqatdir. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining etuk bilimdoni professor Begali Qosimov “Izlay-izlay topganim...” monografiyasida XX asr o‘zbek adabiyoti namoyondalari qatorida Muhsiniy nomini ham quyidagicha eslaydi: “Avvalo, juda boy va qadimiy an‘anaga ega bo‘lgan, o‘z bag‘rida adabiy-badiiy tafakkurning jahon tan olgan ulkan daholarini yetkazgan bir adabiyotda o‘n-o‘n besh yillik davrning bir-ikki, hatto to‘rt-besh shoir-u adib bilan chegaralanishi mantiqqa zid bo‘lur edi. Darhaqiqat, 1905-1917-yillarda ham adabiy-madaniy harakatchiligimizdagi qizg‘in faoliyatni ko‘rmaslik mumkin emas. Masalan bu davrda... Qo‘qonda – Zavqiy (1853-1921); Muhayyir (1845-1918), Usmonxo‘ja Zoriy (1939-1816), Abdullajon Nasimiy (1866-1941), Mullo Yormuhammad Yoriy (1853-1944), Ibrohim Davron (1872-1922), Mirza Xo‘qandiy (1880-1943), Husaynqul Muhsiniy (1860-1917), Ziyouddin Xaziniy (1861-1921)...”³⁸

³⁷ Неъматов У. Муҳсинийнинг Муқимийга бағишланган қасидаси. Адабий мерос. 1977 йил 9-сон. –Б. 93.

³⁸ Қосимов Б. “Излай-излай топганим...: – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.26.

Keyinchalik olim rahbarligida yozilgan “Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti” darsligida Muhsiniyning oʻsha davr adabiy hayotida tutgan oʻrnini alohida taʼkidlab koʻrsatgan: “Ibrat isteʼdodli shoir. U uch-oʻzbek, fors va arab tillarida erkin ijod qilgan. Oʻz sheʼrlarini toʻplab, devon tuzgan. Zamondosh shoiri Muhsiniy (1860-1917) ham uni “sohibi devon” deb taʼriflaydi”³⁹.

Shuningdek, professor Begali Qosimov “Uygʻongan millat maʼrifati” kitobida ham Muhsiniy ijodini oʻrganish haqida qimmatli fikr bildirib shunday deydi: “Haziniy, Muhyi, Saryomiy, Muhsiniy, Fazliy, Tabibiy kabi oʻz davri adabiy muhitida katta mavqega ega boʻlgan ijodkorlarning oʻrni ilmiy asoslarda koʻrsatib berilmogʻi lozim”⁴⁰.

Mumtoz va milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining etuk bilimdoni, adabiyotshunos olim, professor Sharif Yusupov “Tarix va adab boʻstoni” nomli kitobida shoir Muhsiniy nomini Qoʻqon adabiy muhiti namoyondalari qatorida zikr etgan. Olim asarida shunday yozadi: “Masalan, mutaxassislar tomonidan “Qoʻqon adabiy muhiti” nomi ostida ilmiy istifodaga kiritilgan va alohida qudrat kasb etgan ijodiy maktabda Pisandiy, Tamkin, Qoriy, Nisbatiy, Muhayyir, Yoriy, Zavqiy, Muhsiniy, Mavlaviy Yoʻldosh, Nusrat, Nayyiriy, Shaydoiy, Umidiy-Havoiiy, Roiq Sinandiy singari oʻnlarcha ulkan isteʼdod sohiblari ijod qilgan...”⁴¹ini eʼtirof etgan.

Muhimi, adabiyotshunos olimlarning shoir ijodiga, uning nazmiy iqtidoriga bergan baholari tazkiralardagi maʼlumotlar bilan uygʻun va ular bir-birini toʻldiradi.

Muhsiniy umrining soʻnggi yillarini iqtisodiy qiyinchilikda oʻtkazgani sheʼrlaridan anglashiladi. Shoir Muhsiniy 1917-yil 23-sentyabrda Qoʻqonda vafot etadi. Uning qabri Katta qabristonda. Qoʻqon shahrida hozir shoirning avlodlari yashab kelmoqda.

³⁹ Qosimov B va boʻshq. “Milliy uygʻonish davri ўzbek adabiyoti” Universitetlar va pedagogika oliy ўquv yurtlari uchun darslik. – T.: Maʼnaviyat, 2004. – B.173.

⁴⁰ Qosimov B. “Uygʻongan millat maʼrifati” – T.: Maʼnaviyat, 2011. – B.173.

⁴¹ Юсупов Ш. “Тарих ва адаб бўстони” – T.: Маънавият, 2003. – B.141.

1.2. “Gulshani jovid” devoni qo‘lyozmalarining monografik tavsifi

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti namoyondasi Husaynquli Sulaymonquli o‘g‘li Muhsiniy shoir, tarjimon va xattot sifatida o‘zidan boy meros qoldirgan.

Muhsiniy devoni va she‘rlarining jami besh qo‘lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 7392 inventar raqami bilan, ikki qo‘lyozmasi Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyida 4303 va 178 inventar raqamlari bilan, yana ikki nusxasi shoirning avlodlaridan qo‘qonlik To‘xtasin Nuriddinovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Bundan tashqari, Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyidagi 79/12 konvert papkada Muhsiniy mustahzodi va ikki g‘azalining matni ham mavjud.

O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondidagi 7392 inventar raqamli qo‘lyozma. Ushbu manba bevosita muallifning o‘z dastxati bilan ko‘chirilgani jihatidan qimmatlidir. Matn nasta‘liq yozuvida ko‘chirilgan bo‘lib, matn o‘lchami 15x7sm. Qo‘lyozmaning yana bir muhim jihati unda debocha mavjudligidir. O‘zbek adabiyoti tarixidagi debochalar bilan maxsus shug‘ullangan adabiyotshunos Farida Karimova Muhsiniyini XIX asr oxiri – XX asr boshlarida devon tartib berish barobarida, an’anaga muvofiq unga debocha yozgan shoirlar qatorida keltiradi⁴².


Debocha qo‘lyozmaning 2^b-8^b-sahifalarida sariq, yashil va och siyohrang qog‘ozlarga nasr va nazmda qora rangli siyoh bilan har bir betga 15 qatordan yozilgan. 2^a-betdan boshlab sahifaning pastki chap tomonida poygir qo‘yilgan. Qo‘lyozma devonning 8^a-sahifasida jadval chizilgan, biroq matn yozilmagan. 8^b-sahifasida kolofon chizilib, unda *Husaynquli bin Sulaymonquli* deb muallif ismi bitilgan. 9-sahifa raqamlanmagan.

Lirik she‘rlar matni tillarang hal yuritilgan jadvalga olinib, ikki bo‘lakka ajratilgan va har bir sahifaga 14-13 baytdan g‘azallar bitilgan. Qo‘lyozma jami 168

⁴² Каримова Ф. “Навоийдан кейинги даврда яратилган дебочалар” услубий қўлланма. - Н.: “Наманган наشريёти” 2007. – Б.25.

sahifadan iborat. Devon muqovasi to‘q qizil rangda va ustki qismi yashil va sariq rangli naqshlar bilan bezatilgan. Qo‘lyozma sariq rus fabrika qog‘oziga kichik nasta’liq xatida qora siyohda bitilgan. Qo‘lyozmaning 2-betidan boshlab raqam qo‘yilgan va unvon chizilgan.

Devonning 10^b-sahifasidan g‘azallar bitilgan bo‘lib, varaqlarning pastki chap tomoniga poygir qo‘yilgan. Devonning 10^b – 90^b sahifalariga g‘azallar ko‘chirilgan. 90^b-sahifada g‘azallar yakunlanib, quyidagi kolofon bitilgan:



“Va sallallohu ‘ala xoyri xolqihi Muhammad. Bihamdihi va nusalliy va sallim. Tamom shud g‘azaliyoti in devoni taashshuq bunyon badasti uya nishin kunji isyon al-hoji Husaynqulijon muallifi in devon. Fi suhuri sanayi 1335 fiy 20-sha’bon. Va olihi va as’hobihi ajma’in”.

Ushbu hijriy sana milodiy hisobda 1917-yilga to‘g‘ri keladi. Demak, Muhsiniy umrining so‘nggi yilida mazkur devonni o‘z qo‘li bilan ko‘chirib, tartib bergan. Devon qo‘lyozmasi o‘lchami 21,5x14sm.

Qo‘lyozma varaqlari o‘ziga xos shaklda zarhal jadvalga olingan va qora siyohda she‘rlar bitilgan. An‘anaviy devon tuzish talabiga muvofiq jami 239 ta g‘azaldan 5 tasi hamd (10^b-11^a-sahifalar) va 3 tasi (11^a-12^a-sahifalar) na’t g‘azallardir. Qo‘lyozmaning 12^a-sahifasidan boshlab alifbo tartibida dastlab alif harfi bilan tugagan g‘azallar kiritilgan. Har bir varaq ikki bo‘lakka ajratilgan va

gʻazallar chegaralanib, qizil siyohda radif harfi yoki “valahu ayzon” arabiy jumlasini bitilgan. 13^b-sahifadan boshlab alif harfi bilan yakunlangan forscha gʻazallar keladi va qizil siyohda “Gʻazaliyot bar radifi forsiy” jumlasini yozilgan. Umuman, devonda avval muayyan harf bilan tugagan oʻzbek tilidagi gʻazallar, izidan ana shu harf bilan yakunlangan forscha gʻazallar koʻchirilgani kuzatiladi. Oʻziga xos bu tartib gʻazallar matnining avvalidan oxirigacha amal qiladi.

Qoʻlyozmadagi oʻzbekcha gʻazallarga “*ba alfozi turkiy*”, fors-tojikcha gʻazallarga “*ba alfozi forsiy*” degan sarlavha qoʻyilgan. Fors-tojikcha gʻazallardan oldin qizil siyoh bilan sarlavhaga “*gʻazaliyot bar radifi forsiy*” degan jumla yozilgan boʻlsa, baʼzi gʻazallardan oldin “*valahu ayzon bialfozi forsiy*” tarzidagi jumlar bitilgan. Muallif har bir gʻazal sarlavhasini qizil siyohda ajratib koʻrsatadi. Masalan, 14^b-betda “*gʻazali muvashshah bar radifi alifbo bialfozi turkiy*”, degan sarlavha qoʻyilgan. Muvashshah gʻazal kimga va muxammaslar qaysi shoir gʻazaliga bagʻishlangani qizil siyohda bitilgan. Oʻzbekcha gʻazallarga ham forscha sarlavha qoʻyilgan oʻrinlar bor. Forsiy gʻazallar hamma oʻrinlarda ham sarlavha bilan ajratilmagan. Jumladan, 25^b-sahifadagi 9 baytli dol harfi bilan tugagan gʻazal va 63^a, 64^{ab}, 65^b, 69^{ba}, 70^{ab}, 78^b, 90^b-sahifalardagi gʻazallarga forsiy deb sarlavha yozilmagan. 161^a-betda Qodirjon radifli forsiy gʻazal koʻchirilgan.

Ayrim sahifalarda interpolyatsiya, yaʼni muallifning qizil siyohdagi qaydlari bor. Gʻazallar alifbo tartibida joylashtirilgan boʻlib, turkiy va forsiy gʻazallar aralash kiritilgan. Devonning 73^a, 74^{ab}, 109^a hamda 113^{ab}-betlarida sheʼrlar yozilmasdan varaq ochiq qoldirilgan. Ushbu qoʻlyozmaning yana bir diqqatni tortadigan jihati shuki, Tavallo Toshkandiy gʻazaliga muxammas va boshqa bir qancha muxammaslar devonning soʻnggi betlariga kiritilgan. Bu hol Muhsiniy mazkur sheʼrlarni nisbatan keyinroq yozgani haqidagi toʻxtamga olib keladi.

Qoʻlyozmada gʻazallardan keyin muxammaslar koʻchirilgan boʻlib, bu janrdagi sheʼrlar ham oʻzbekcha va forscha aralash kitobat qilingan. Muhsiniy muxammaslari ham mumtoz sheʼriyatimizda kuzatilgani kabi ikki turga boʻlinadi: tabʼi xud, yaʼni oʻz muxammaslari va boshqa shoirlar gʻazallariga bogʻlangan taxmislar. Shoirning ushbu janrga mansub 22 sheʼridan 14 tasi tabʼi xud

muxammaslardir. Muhsiniy, bundan tashqari, Fuzuliy, Zoriy, Muhyi, Furqat, Mavlono Mo‘yin, Tavallo kabi shoirlar g‘azallariga taxmislar bog‘lagan. Qo‘lyozmaning 90^a-165^a-sahifalarida muxammaslarning bu ikki turi aralash holda ko‘chirilgan.

Devonning 165^a-168^b-sahifalariga ruboiylar kitobat qilingan. Shoir ruboiylari soni 28 ta bo‘lib, ular Muhsiniyning kichik janrda katta ko‘lamli falsafiy fikrlarni ifodalay olish salohiyatidan darak beradi.

Muhsiniy musammat janrining muxammasdan tashqari, musamman va musaddas shakllarida ham she‘rlar yozgan. Shoir devoni qo‘lyozmasida 3 ta musamman (112^a-120^a-sahifalar) va 2 ta musaddas (115^b, 121^b – sahifalar 1-nashrda yo‘q) ko‘chirilgan. Bundan tashqari, 2 ta tarji‘band (122^a-125^a-betlar) va 1 ta masnaviy (125^b-129^a-betlar) janrlariga oid she‘rlar mavjud.

Qo‘lyozmaning 129^a-134^b-sahifalarida noma janriga oid 8 ta she‘r bo‘lib, shundan 1 tasi fors tilida. Qasidalar ham jami 7 ta bo‘lib, ulardan birinchisiga 12 misralik izoh berilgan. Qasidalardan biri ustoz mullo Abdulmo‘minga, qolganlari mullo Oxunjon, Xoliqjon qozi, Mirzokalonboy, Mirzo, mullo Hasan mingboshi singari zamondoshlariga bag‘ishlangan.

Devonga ta‘rix janriga doir 31 ta she‘r ko‘chirilgan. Ular ham o‘zbek va fors-tojik tillarida bitilgan. Ta‘rixlar qo‘lyozmaning 141^a-155^a-betlariga ko‘chirilgan.

Ilmiy o‘rganish natijasida Muhsiniyning 7392 inventar raqamli devonida 7426 misra she‘r mavjudligi aniqlandi. Muallif devondagi she‘rlar yozilishida ham o‘ziga xos shakllardan foydalangan. Masalan, g‘azallar to‘g‘ri chiziq bo‘ylab sahifa ikkiga bo‘lingan va har bir qismiga 15 qatordan yozilgan. Muxammas, musaddas, musamman, tarje‘band, noma, qasida, tarix va ruboiylar esa qiya shaklda sahifa ikki bo‘lakka ajratilgan va har bir bo‘lakka 10 qatordan yozilgan. G‘azallar boshqa janrdagi she‘rlarga nisbatan chiroyli husnixat bilan bitilgandir.

Muhsiniy ijodiy merosining manbalari xususida gapirganda, avvalo, shoir devonining o‘zi ko‘chirgan dastxat qo‘lyozmasining ilmiy qimmatini baland ekanini ta’kidlash kerak. Matnshunoslik ilmida har qanday asarning muallif qo‘li bilan

yozilgan nusxasi eng ishonchli manba bo‘lishi ta’kidlangani e’tiboridan ushbu 7392 inventar raqamli qo‘lyozma shoir devoni ilmiy-tanqidiy matni uchun tayanch manba bo‘la oladi.

Muhsiniy devonida an’anaviy devon tuzish tartiblariga ko‘ra oldin alifbo tartibida g‘azallar, undan keyin esa boshqa turdagi she’rlar – muxammas, murabba’, musaddas, mustazod va hokazo asarlar ko‘chirilgan. Shoirning ruboiy janridagi she’rlari barcha boshqa janrlar so‘ngida kitobat qilingan.

Dastxat devondagi 239 ta o‘zbekcha va forscha g‘azallarning eski o‘zbek alifbosi tartibida joylashishi hamda ularning umumiy soni quyidagicha:

G‘azal bitilgan harf	Umumiy soni	Shundan o‘zbek tilida	Shundan fors-tojik tilida
ا	21	15	6
پ va ب	8	7	1
ت	8	2	6
ث	3	3	
ج	5	5	
ح	2	2	
خ	3	3	
د	5	2	
ذ	2	2	
ر	19	17	2
ز	11	11	
س	6	6	
ش	5	5	
ص	2	2	
ض	4	4	
ط	4	4	
ظ	2	2	
ع	3	3	
غ	5	5	

ف	5	5	
ق	6	6	
ك va گ	14	14	
ل	5	5	1
م	20	19	1
ن	17	13	4
و	7	4	3
ه	12	12	
ى	35	33	2

Muhsiniy arab alifbosida bitta harf bilan ifodalanadigan “b” va “p” hamda “k” va “g” harflari bilan tugagan g‘azallarni bir-biridan ajratmasdan aralash holda joylashtirgan.

Shoir devonidagi g‘azallarning hajm jihatidan eng kichigi 3 baytli bo‘lsa, eng yirik hajmlisi 16 baytdan tarkib topgan. Ulardan eng ko‘p uchraydigani 9 baytli bo‘lib, jami 79 g‘azal ana shu hajmda bitilgan. Keyingi o‘rinda 7 baytli g‘azallar turadi – 60 ta. Undan so‘ng 11 baytli g‘azallar soni 41 tani tashkil etadi. Eng kami: 12 baytlisi – 3 ta , 15 baytli g‘azal – 1 ta, 16 baytli – 2 ta.

Yuqoridagi qiyosiy tahlillardan ayon bo‘ladiki, Muhsiniyning aksar g‘azallari 7, 9 va 11 baytlidir. Mumtoz adabiyotda Navoiy va boshqa shoirlar g‘azallarining ko‘p qismi 7 va 9 baytdan iborat bo‘lgani ma’lum. Shoirning 11 baytli g‘azallari esa ko‘proq axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy mavzularda yozilgan.

Madaminjon Nuriddinov shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma devon. Muhsiniyning hozirgi kunda Qo‘qon shahri Lutfiy ko‘chasi 14-uyda yashovchi avlodlari qo‘lidagi ushbu qo‘lyozma devon o‘lchami 20x15 sm bo‘lib, yozuv qismi 7x15 sm. Devon yaxshi saqlangan, biroq ayrim sahifalarida chaplashgan va siyoh to‘kilgani kuzatiladi. Qo‘lyozma devon kotibi Muhsiniyning o‘zidir. Devon rus fabrika qog‘oziga qora rangli siyohda nasta’liq xatida mayda harflarda ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning 1-varag‘i yirtilgan, 2-sahifadan raqam qo‘yilgan. Mazkur devon jami 210 sahifani tashkil etadi. Debocha 2^b-9^b-

sahifalardan o‘rin olgan. Debochadan so‘ng 9^b-sahifada kolofonda forsha “*Tamom shud sana 1333 jumadu-s-soniy no‘hum ast, ya’ni jumadu-s-soniy oyining 9-kuni (milodiy 1914-1915 yilga to‘g‘ri keladi) tugatilgan, deb kitobat sanasi ko‘rsatilgan. 9^b-sahifadan boshlab g‘azallar ko‘chirilgan. Lekin 15^{ab}, 16^{ab}, 17^{ab}, 84^{ab}, 100^a, 101^{ab}, 102^a, 155^{ab}, 176^{ab}, 177^{ab}, 178^{ab}, 179^{ab}, 180^{ab}, 181^{ab}, 193^a, 194^{ab}, 195^{ab}, 196^{ab}, 197^{ab}, 198^{ab}, 201^b-sahifalar ochiq qoldirilgan. Har bir sahifa qora qalamda raqamlangan, biroq varaqlar jadvalga olinmagan va bezak berilmagan. Har bir sahifada 10 bayt, ya’ni 20 qatordan qilib qora siyohda she’rlar yozilgan. Sarlavha va qaydlar qizil siyohda bitilgan.*

Qo‘lyozmaning 9a-betida devon ahamiyati, shoir she’riyati mohiyati haqida to‘qqiz baytli g‘azal keltirilgan va 1310 hijriy sana qo‘yilgan. Keyin fors-tojik tilida bitilgan oltita qasida bor.

Devonda jami 6 ta qasida bo‘lib, ulardan 1 tasi o‘zbek (38 misra) va 5 tasi fors-tojik (jami 144 misra) tilidadir. Bu janrning 15 baytdan iborat dastlabki namunasi qo‘lyozmaning 10^b-18^b-sahifalaridan o‘rin olgan. Qasidaga qizil siyohda shunday sarlavha qo‘yilgan: “Ushbu qasida jon ustodimiz muallim Abdumo‘ming‘a”. Keyingi qasidalar domla Oxundxon, Mirzo Kalonboy, mullo Xoliqjon qozi hamda Mirzo Umarxonga bag‘ishlangan. Muhsiniy qasida yozgan insonlar o‘sha davrda el-yurt orasida hurmat-e’tiborli va shoirning yaqin kishilari, deb hisoblash mumkin. Qasidalar mazmunidan ularning odamiylik fazilatlari, ilmu ma’rifatdagi kamoloti darajasi, el-yurt oldidagi xizmatlari anglashilib turadi. Ular shaxsini aniqlashtirish Muhsiniy biografiyasini qanday yangi ma’lumotlar bilan boyitishiga oydinlik kiritish galdagi vazifalardandir.

Qo‘lyozmaning 18^b-36^a sahifalaridan shoirning ta’rix janriga doir jami 38 ta she’ri o‘rin olgan. Shulardan 10 tasi fors-tojikcha bo‘lib, 214 misrani tashkil qiladi. Ta’rixlarning 28 tasi o‘zbek tilida bitilgan. Ularning umumiy hajmi 506 misradan iborat. Mazkur qo‘lyozma devondagi ta’rixlarga muallif qizil siyohda sarlavhalar qo‘ygan. Devondagi ta’rix janriga doir she’rlarni mavzusiga ko‘ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Turli inshootlar qurilishiga bag‘ishlab bitilgan ta’rixlar. Bularga masjid, jome’, hammom, mehmonxona, maktab va boshqa imoratlar bunyod etilishiga bag‘ishlab yozilgan ta’rixlarni kiritish mumkin.

2. Milliy urf-udum va marosimlarga bag‘ishlab bitilgan ta’rixlar. To‘y, saylov, atoqli zamondoshlari hayotidagi muhim voqealar hamda yaqin kishilarining vafotiga bitilgan marsiya-ta’rixlar shular jumlasidandir.

Devonning 37^b-143^a-sahifalarida basmala bilan g‘azallar bitilgan. Dastlab, 5 ta hamd va keyin 4 ta na’t g‘azal ko‘chirilgan. G‘azallarga qizil siyohda “*ba alfozi turkiy*”, “*ba alfozi forsiy*” tarzida sarlavhalar qo‘yilgan.

Ma’lumki, an’anaviy devon tuzish tartibiga ko‘ra oldin alifbo tartibida g‘azallar, undan keyin muxammas, murabba’, musaddas, mustazod va boshqa janrlardagi she’rlar ko‘chiriladi. Muhsiniy devonining ushbu qo‘lyozmasida bu tartibga amal qilinmagan. Avval qasidalar, keyin ta’rixlar, g‘azallar, muxammaslar, musammanlar, tarje’bandlar, musaddaslar, maktublar va oxirida masnaviy shaklidagi she’rlar joylashtirilgan. Bu hol ushbu qo‘lyozma Muhsiniy devonining qoralama nusxasi ekanligini ko‘rsatadi. Shoir ushbu ilk devonni debochada “Gulshani jovid” deya forsha nomlaydi. Devonga kiritilgan masnaviyalar 7392 inventar raqamli Toshkent nusxasida uchramaydi. Mazkur devondagi she’rlar joylashishi qat’iy tartibda bo‘lmay, muxammaslar asosan tarje’bandlardan keyin kelsa, bir muxammas devonning oxirida ko‘chirilgan.

Muhsiniyning qo‘lyozma qoralama devonida jami 236 ta g‘azalning alifbo tartibida joylashishi va ularning umumiy soni quyidagichadir:

G‘azal bitilgan harf	Umumiy soni	O‘zbek tilida	Fors tilida
ا	23	17	6
ب va پ	8	7	1
ت	7	6	1
ث	3	3	
ج	5	5	
ح	2	2	

خ	3	3	
د	1	1	
ذ	2	2	
ر	20	18	2
ز	12	12	
س	6	6	
ش	5	5	
ص	1	1	
ض	4	4	
ط	4	4	
ظ	2	2	
ع	3	3	
غ	4	4	
ف	3	3	
ق	7	7	
گ va ك	13	13	
ل	5	5	1
م	18	17	1
ن	18	13	5
و	7	4	3
ه	12	12	
ى	35	34	1

Muhsiniy devonining ushbu qo'lyozmasiga kiritilgan g'azallar 4 baytdan 16 baytgacha bo'lgan hajmda bitilgan. Ulardan eng ko'pi 9 baytli bo'lib, 76 g'azaldan iborat. Ikkinchi o'rinda 7 baytli – 65 ta, uchinchi 11 baytli – 37 ta. Eng kam sonlisi esa 4, 14, 15, 16 baytli g'azallar bo'lib, ulardan har biriga 1 tadan g'azal yozilgan.

Qo'lyozma devondan 24 ta muxammas o'rin olgan. Ularning barchasi o'zbek tilida bo'lib, jami 475 misrani tashkil etadi. Shuningdek, devonda 3 ta musamman berilgan bo'lib, jami 216 misradan, 2 ta tarje'band

320 misradan iboratdir. Devonning keyingi sahifalarida 3 ta musaddas (270 misra), 2 ta masnaviy (138 misra), 6 ta maktub (244 misra) ko‘chirilgan. Devondagi she‘rlarning umumiy hajmi 7438 misradir.

Muhsiniy avlodlari qo‘lida saqlanayotgan ikkinchi qo‘lyozma devon.

Hozirgi kunda shoirning Qo‘qon shahrida yashovchi avlodlaridan Madaminjon Nuriddinov qo‘lida devonning yana bir nusxasi saqlanadi. Devon besh tamg‘ali jigarrang karton bilan muqovalangan. Matn halli jadvalga olingan bo‘lib, sariq rus fabrika qog‘oziga nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Matn o‘lchami 22x17 sm, yozuv qismi 15x7 sm ni tashkil qiladi. Varaqlari butun, faqat so‘nggi muqova qismi yirtilgan. Qo‘lyozmaning 1^a-8^a-sahifalarida forsiy tilda chiroyli bo‘lmagan xatda debocha yozilgan. Ushbu devocha qoralama bo‘lib, 8^{ab}-sahifada varaq chetlariga ham bitilgan. Qo‘lyozmaning 9^b-sahifasidan halli jadval va unvon ishlanib, yangi chiroyli husnixatda ikkinchi asosiy debocha yozilgan. Debochada diniy kalimalar va oyatlardan namunalar qizil siyohda bitilib, tagiga chizib qo‘yilgan. Forsiy tildagi debocha so‘ngida 14^b-sahifa kolofonida “Husayn hoji Muhsiniy. Sana 1310” jumalari yozilgan. Ushbu sana milodiy 1897 yilga to‘g‘ri keladi. Qo‘lyozmaning 14^a-15, 16-sahifalari bo‘sh qoldirilib, she‘rlar yozilmagan. 17^b-26^b-sahifadan yangi halli jadval va chiroyli unvon chizilgan bo‘lib, o‘zbekcha debocha bitilgan. Debocha siyohrang xatda ko‘chirilgan bo‘lib, she‘r keltirilgan o‘rinlar “nazm” deb qizil siyohda qayd qilingan. Shuningdek, arabcha kalimalar, oyat va hadislar matnlari ham qizil siyohda yozilib, tagiga chizib, ajratilgan. 26^b-sahifadagi kolofonda ham 1310 hijriy sana qayd qilingan.

Devonning 27^b-sahifasidan turkiy hamd g‘azal bilan she‘rlar matni boshlangan. Dastlab 5 ta hamd va 4 ta na‘t g‘azal, 29^b-sahifada payg‘ambarimizdan keyin o‘tgan to‘rt ulug‘ xalifalar vasfiga bag‘ishlangan 8 baytli turkiy g‘azal keltirilgan va forsiy tilda “*Dar bayoni ulfat chahoryori bosaf*” sarlavhasi bitilgan. Devonning 30^b-sahifasidan forsiy she‘rlar boshlangan va “*In g‘azaliyoti forsiy bar radifi alif*” degan sarlavha qo‘yilgan. Qo‘lyozma devonning 30^b-33^b-sahifalariga 7 ta forsiy g‘azal ko‘chirilgan. 33^b-sahifadan “*Tahrir in g‘azaliyoti ba lafzi turkiy bar radifi alif*” sarlavhasi bilan yana turkiy, ya‘ni

o‘zbekcha g‘azallar boshlangan. Shoir o‘zbekcha g‘azallarga ham forscha sarlavha qo‘ygan.

Qo‘lyozmaning 33^a-sahifasi chekka qismida 11 baytli turkiy tildagi alif harfi bilan yakunlangan g‘azal bitilgan. Devondagi she‘rlar siyohrang xatda yozilgan bo‘lsa, ushbu g‘azal boshqalaridan farqli ravishda qora siyohda bitilgan. Oxirida 1316 hijriy sana qo‘yilgan. Demak, Muhsiniy birinchi devoniga 1310 yilda tartib bergani hisobga olinsa, oradan 6 yil o‘tgandan so‘ng qo‘lyozma sahifa chetiga ushbu g‘azalni bitgani anglashiladi. Qo‘lyozma sahifalari pastki qismida chap tomoniga poygir qo‘yilgan. 65^a-sahifada g‘azallar tugagan va 66^b-sahifada basmaladan so‘ng ikki qator forsiy tilda izoh bayon etilgan.

Ushbu qo‘lyozma devonning 67^b-79^a-sahifalarida 10 ta o‘zbekcha va 2 ta forsiy tildagi muxammaslar ko‘chirilgan. Forsiy tildagi har ikki muxammas Jomiy g‘azaliga bitilgan. Turkiy 10 ta o‘zbekcha muxammasdan 2 tasi o‘z davri shoirlaridan Furqat va Nisbatiy g‘azallariga bog‘langan. Muxammaslardan biri shoirning amakisi Nabiqulga bag‘ishlangan. *“Hech mo‘min Ahmadi Muxtoridan ayrilmasiun”* misralari bilan yakunlanuvchi muxammas hajman katta bo‘lib, 23 banddan iboratdir. Ushbu muxammas payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamga bag‘ishlab yozilgani bilan diqqatga sazovordir.

Devonning 94, 96, 97, 98, 100-sahifalarida ham g‘azallar orasida 6 ta turkiy muxammas ko‘chirilgan. Ulardan biri Usmonxo‘ja Zoriy g‘azaliga bog‘langan bo‘lib, qolgan 5 tasi mustaqil muxammaslardir. Mazkur devondan o‘rin olgan ayrim muxammaslar shoir devonining O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondidagi 7392 inventar raqamli Toshkent nusxasida va nashr qilingan “Barhayot gulshan” devonida ham mavjud.

Qo‘lyozmaning 80^a-81^a-sahifasidan boshlab Muhsiniyning o‘zbek va forstojik tillaridagi 4 qasidasi ketma-ket ko‘chirilgan. Ulardan birinchisi Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyya bag‘ishlangan bo‘lib, 25 baytdan iborat. Avvalo, ushbu qasida Muqimiy tiriklik davrida yozilgani bilan ahamiyatlidir. Muhsiniy o‘z

davrida Muqimiydek zabardast shoir iste'dodini yuqori baholaydi va unga bo'lgan hurmatini qasidasi orqali izhor qiladi. Qasida quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Zubdai davroni Xo 'qand ichra xud yakto Muqim,

Ahli donishlar ichinda rutbasi a'lo Muqim.

Fitratu fazlu balog'at bo'lg'usidur shunchalar,

Ko'rmadi gardun seningdek shoire aslo Muqim⁴³.

Muhsiniy Muqimiyga bag'ishlab qasida yozish bilan cheklanib qolmagan, shoirning bir qancha g'azallariga tatabbu'lar bitgan. Bu hol Muhsiniy Muqimiyning ustoz deb bilgani hamda uning ijodidan bahramand bo'lganini tasdiqlaydi. Qasidalaridan 2 tasi fors-tojik tilida. Devonda qasidalar tarqoq holda keladi. Jumladan, 48^{ba} va 56^a-58^b-sahifalarda ham fors-tojikcha qasidalar, 82^b-83^a-sahifalarda masnaviy yo'lidagi hikoyat berilgan bo'lsa, 90, 102-sahifalaridan 13, 25 baytli ikki fors-tojikcha qasida, 91-betdan 15 baytli o'zbekcha qasida matni o'rin olgan.

Devon qo'lyozmasining 83^a-88^a-sahifalarida 16 ta ta'rix (ulardan 7 tasi fors-tojikcha) ko'chirilgan. Ta'rixlarni shartli ravishda quyidagi mavzularga ajratish mumkin: 1) ta'rix-marsiya; 2) imorat yoki masjid qurilishiga bag'ishlangan; 3) kitobat, ya'ni biror bir asar ko'chirilgan sana yashiringan. Qo'lyozmaning 89^b-betida fors-tojikcha izoh bitilgan va 89^a-sahifada yana 2 ta turkiy g'azal berilgan. 90^b-91^b-betlarda yana 2 ta ta'rix, 91^b-92^b-sahifadan yana 2 ta qasida matni kelgan. 92^b-94^b-betlardan 2 ta turkiy masnaviy, 94^a-100^a-sahifalardan muxammaslar, 100^a-106^b-sahifalardan g'azallar matni o'rin olgan.

136^b-141^{ab} -142^b sahifalarda forsiy 132^b-166^a sahifalarda forsiy bir asar va jadvallar yozilgan.

Qo'lyozmaning 14^a, 15, 16, 106^a, 107, 108, 109, 142, 159, 160^a, 161-betlari ochiq qoldirilgan va she'rlar yozilmagan. Muhsiniyning ilk devonidagi aksariyat she'rlarni g'azallar tashkil qiladi. Ular jami 135 ta bo'lib, shundan 14 tasi forsiy tilda. G'azallardan aksari – 22 tasi /- “alif” harfiga bitilgan. Keyingi o'rinni ب va پ harflariga yozilgan g'azallar egallaydi – 14 ta. خ (xe), ض (zod), ع (g'ayn) va ف

⁴³ Кўлэзма девон. Тўқ жигаррангда Кўкон шахрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. 80-^a саҳифа.

(fe) harflariga esa 1 tadan gʻazal yozilgan. Gʻazallarining hajman eng kichigi 5 baytli boʻlsa, eng koʻp hajmlisi 16 baytdan tarkib topgan. Eng koʻp gʻazallar 7 baytli boʻlib, 43 tani (shundan 2 tasi forsiy) tashkil etadi. Ikkinchi oʻrinda 9 baytli gʻazallar boʻlib, jami 41 gʻazaldan 6 tasi forsiy tilda. Uchinchi oʻrinni 11 baytli gʻazallar egallaydi – 12 ta (shundan 2 tasi forsiy). 15 va 16 baytli gʻazallar 1 tadan.

Umuman, mazkur qoʻlyozmadagi gʻazallarning aksariyati oʻzbekcha boʻlib, forsiy tildagi sheʼrlar asosan, qasida va taʼrixlardir.

4303 raqamli qoʻlyozma. Qoʻqon davlat muzey- qoʻriqxonasi qoshidagi Qoʻqon adabiyot muzeyida 4303 raqam ostida saqlanayotgan ushbu manba turli rangdagi rus fabrika qogʻoziga qora siyohda nastaʼliq xatida qiya shaklda har bir sahifaga 10 baytdan koʻchirilgan. Boshi va oxiri butun. Qora karton bilan muqovalangan. Oʻlchami 21x17sm boʻlib, yozuv qismi 7x15sm. Devonning 1-sahifasida siyohrang xatda quyidagilar bitilgan: “Bir adabiy parcha gar ushbu muqaddimasining chala holda qoldigʻidir. Xoʻqandli shoir ham husnixat sohibi domla Husayn Hoji Muhsiniyning taqriri erur. Husnixat ila yozilmish qalam tahriri sanʼat namunasidir, 16 sahifalik toʻplamdur”.

Qoʻlyozmaning 2^a-8^a-betlarida basmala bilan debocha koʻchirilgan. 9^{ab}-betlar ochiq qoldirilgan. Matn jadvalga olinmagan, unvon ham ishlanmagan. Sahifalarning pastki chap tomonida poygir qoʻyilgan. 10^b-113^b-betlaridan gʻazallar oʻrin olgan boʻlib, kotib sarlavha va sheʼrlar chegarasini ajratmagan. Faqat gʻazallarning maqtaʼida qizil siyohda belgi qoʻyilib, Muhsiniy taxallusi bitilgan. Ammo ayrim sahifalarda bunday belgi ham yoʻq va gʻazal maqtaʼidagi taxallus orqaligina sheʼrlarni ajratib olish mumkin.

Ushbu manbadan shoirning gʻazal, muxammas, tarjeʼband, musamman, murabbaʼ, musaddas va maktub janrlaridagi sheʼrlari oʻrin olgan. Dastlab oʻzbekcha hamd va naʼt gʻazallar berilib, keyin bu janrdagi oʻzbekcha va forscha sheʼrlar aralash koʻchirilgan. Baʼzi oʻrinlarda fors-tojikcha gʻazallar qizil siyoh bilan ajratiladi. 113^b-124^b-sahifalarda “yo” harfi bilan tugagan 31 gʻazal takror yozilgan.

Muxammaslar (124^b-156^b, 162^a-163^a, 166^{ab}, 166^a-168^b, 182^a-183^a), musaddaslar (168^a-172^b, 174^b-178^b), tarje'bandlar (156^a-159^b, 159^b-160^a), musammanlar (153^b-154^b, 164^b-166^b, 172^a-174^b), murabbalar (168^b-168^a, nomalar (175^{ab}, 175^a-176^a, 176^a-179^b, 179^b-181^b) sahifalarda o'rin olgan bo'lsa, masnaviy (181^a-182^a) janrlaridagi she'rlarga qizil siyohda fors-tojikcha sarlavha qo'yilgan.

Ushbu manba O'zR FASHI fondidagi 7392 inventar raqamli qo'lyozmadan oldin ko'chirilgan. Ikki qo'lyozma qiyosiy o'rganilganda, turli janrlardagi she'rlarning joylashish tartibi bir xil ekani ham buni tasdiqlaydi. G'azallar matnida ayrim farqli jihatlar ham borligi kuzatiladi. Bunday farqlar baytlar miqdorida, g'azallarning matla'si va maqta'sidagi so'zlarda ko'rinadi. Ushbu manba she'rlar matnida ba'zi saktaliklar borligi bilan ham Toshkent nusxasidan farqlanadi. Ikkala qo'lyozmadagi tafovutlar qisman muxammas va musaddaslarda ham ko'rinadi. Mazkur manbada qasida va ta'rixlar yo'q. Murabba'lardan 1 tasi esa Toshkent nusxada uchramaydi.

Qo'lyozmadan shoirning 239 ta g'azal, 32 ta muxammas, 3 ta musamman, 2 ta musaddas, 1 ta murabba', 2 ta tarje'band, 4 ta maktub, 1 ta masnaviy janriga oid she'rlari o'rin olgan.

Kotib tomonidan devon ko'chirilgan sana hijriy 1334-yil ekani ko'rsatilgan. Ushbu sana milodiy hisobda 1916-yilga to'g'ri keladi. Muhsiniy devonining 7392 inventar raqamli Toshkent nusxasi 1917-yili kitobat qilingani hisobga olinsa, ushbu qo'lyozma bir yil oldin ko'chirilgani ma'lum bo'ladi. Shu sababli Toshkent nusxasini shoir devonining muallif tahriridan o'tgan manbasi, deyish mumkin.

Usmonjon Ne'matov ma'lumotiga ko'ra, Muhsiniy devonining muallif tomonidan ko'chirilgan 3 ta, boshqa kotib tomonidan kitobat qilingan 1 ta qo'lyozmasi mavjud. Ulardan 2 tasi shoirning Qo'qon shahrida yashayotgan nevarasi To'xtasin Nuriddinov uyida saqlanmoqda. Yana bir qo'lyozma nusxa xattot Mullo Abdullajon maxdum domla Ali Oxund o'g'li Xo'jandiy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, hozirda Qo'qon davlat muzey- qo'riqxonasi qoshidagi Qo'qon adabiyot muzeyida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma nusxalari orasida 7392 inventar raqamli nusxa mukammalroq bo'lib, joriy imlodagi nashrga asos bo'lgan.

178 inventar raqamli qo‘lyozma bayoz. Shu paytgacha adabiyotshunoslikda Muhsiniy adabiy merosi shoir devonining faqat uch dastxat nusxasi va boshqa xattot tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmasida jamlangan, degan qarash mavjud edi. Keyingi ilmiy izlanishlar natijasida boshqa manbalarda ham shoir qalamiga mansub she‘rlar borligi aniqlandi. Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyida 178 inventar raqam bilan saqlanayotgan qo‘lyozma bayoz buning isbotidir. Qizil karton bilan muqovalangan bayoz besh tamg‘ali halli jadvalga olingan. Qo‘lyozma bayoz yaxshi saqlangan: yirtilgan, chizilgan joylari yo‘q. O‘lchami: 25x17 sm, matn qismi 15x12 sm. Matn rus fabrika qog‘oziga husnixat bilan qiya shaklda bitilgan. Halli jadval chizilgan va har bir g‘azal muallifi qizil siyohda yozilgan. Betlar so‘ngida qizil siyohda poygir bitilgan. Q‘lyozma bayozning hajmi 252 sahifadan iborat.

Bayozning 2^b-sahifasida unvon chizilib, basmala bilan g‘azallar boshlangan. Qo‘lyozmaning 11^a-betigacha Muhsiniyning 16 ta g‘azali ko‘chirilgan. Varaqlar pastki chap tomonida poygir qo‘yilgan, ayrim sahifalarda interpolyatsiya, ya‘ni muallifning qizil siyohdagi qaydlari bor. Har bir bet ikki qismga ajratilib, 8 qatordan qiya shaklda she‘rlar bitilgan. Bayozning 12–24-sahifalari ochiq qoldirilgan. 25^b-27^a sahifalarda Bedilning 5 ta forsiy g‘azali yozilgan, 28-39-sahifalar ham bo‘sh qoldirilgan. 40^b-60^a-sahifalarda Amiriyning 41 ta g‘azali bitilgan bo‘lib, 60^a-62^b-betlarida Navoiyning 2 g‘azali ko‘chirilgan. 62^a-64^a-betlarida Fuzuliy va Mavlaviyning 1 tadan g‘azali yozilgan. Bayozning 65-252-betlari raqamlangan bo‘lsa ham, she‘rlar yozilmay, bo‘sh qoldirilgan.

Bayozdan Muhsiniyning “alif” harfi bilan tugagan 12 ta o‘zbekcha va 4 ta forscha – jami 16 ta g‘azali o‘rin olgan. Ulardan 4 tasi to‘qqiz, 3 tasi etti va 3 tasi sakkiz baytli g‘azallardir. Bundan tashqari, bittadan 10, 11, 13, 18 baytli, ikkita 12 baytli g‘azallari ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma bayozda, shuningdek, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Amiriy, Mavlaviy kabi ulug‘ shoirlarining sara g‘azallari jamlangan. Bu hol shoir ularning asarlarini mutolaa qilgani va ular ijodiga ixlos qo‘yganini anglatadi. Muhsiniy ushbu shoirlar ijodidan bahramand bo‘lish barobarida ularning she‘rlariga tatabbu’

va muxammaslar bog‘lagan. Bayozda kolofon va boshqa izohlar qayd etilmagan, kitobat sanasi va kotibi haqida ham ma’lumot uchramaydi. Varaqlar o‘lchami, chizilgan unvon va jadval ham Muhsiniy devonining Toshkent nusxasi bilan bir xil shakldadir. Bayoz qog‘ozi va xatini Muhsiniyning dastxat devoni bilan qiyoslaganimizda o‘xshash ekanligi ayon bo‘ldi. Ushbu qiyoslarga asoslanib, kotibi Muhsiniyning o‘zi ekanini taxmin qilish mumkin. Bayoz varaqlari orasida muzey xodimlari tomonidan yozilgan o‘zbekcha va ruscha “Muhsiniyning dastxat bayozi” deb yozilgan qog‘oz parchasi ham fikrimizni dalillaydi.

79/12 raqamli qo‘lyozma konvert papka. Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida 79/12 inventar raqamli konvertida Muhsiniyning bir mustazodi yozilgan qo‘lyozma saqlanadi. Ushbu mustazod shoir she‘rlari nashr qilingan “Barhayot gulshan” devoniga ham kiritilgan. Shu bilan birga, ushbu konvertida ikkita qog‘ozda qora siyohda 1 ta 9 baytli, 1 ta 10 baytli va 1 ta 7 baytli o‘zbekcha g‘azal yozilgan. Ushbu konvert papkadagi qo‘lyozmalar matni nashr qilingan devon tarkibidagi she‘rlarni qiyoslaganda ayrim so‘zlar o‘qilishida farq va xatoliklar borligini ko‘rsatdi. Kelajakda Muhsiniy asarlarining mukammal nashrini amlga oshirishda yuqorida keltirilgan konvert papka qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi.

Muhsiniy hattot sifatida ham ilm ahliga ma’lumdir. Muqimiy she‘rlari jamlangan 7521 inventar raqamli qo‘lyozma bayozning 85^a-sahifasidagi she‘rlarni Muhsiniy yozganligini adabiyotshunos olim Abduvohid Shokirov bir necha misollar bilan isbotlagan.

Xulosa qilib aytganda, Muhsiniy devonining mavjud 4 qo‘lyozmasi va Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyida saqlanayotgan 178 inventar raqamli bayoz 79/12 raqamli konvert papka shoir asarlarining asosiy manbalaridir. Ushbu manbalardan to‘rtta qo‘lyozma Muhsiniy dastxati ekani jihatidan qimmatlidir. Ular shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda tayanch manba bo‘la oladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar:

1. Husaynquli Muhsiniy biografiyasiga doir manbalarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) shoirning o'z asarlari; 2) o'sha davrda yozilgan tazkiralalar. Ushbu manbalar tahlili ijodkorning tavallud sanasi "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" asarida aytilganidek 1863-yil emas, 1860-yil ekani haqidagi to'xtamga olib keladi. Shoirning vafoti sanasi haqidagi munozarali ma'lumotlarga oydinlik kiritib, bu sana 1919- yil emas, balki 1917-yil ekanini ko'rsatadi.

2. Manbalar Muhsiniy ijodining takomil bosqichlari, uning Qo'qondagi adabiy muhit sharoitida shakllangani, nafaqat shoir, balki xattot sifatida ham shuhat qozongani, Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy kabi ulug' salaflari adabiy merosini katta ixlos bilan o'rgangani, arab va fors tillari, Qur'oni karim va hadisi sharif ahkomlarini puxta bilgani va she'rlarida buning ijobiy ta'siri sezilishidan darak beradi.

3. Po'latjon domla Qayyumovning "Tazkirayi Qayyumiy" asari Muhsiniyning nafaqat tarjimayi holi, tashqi qiyofasi, tabiati, lirik she'rlarining ko'lami va xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manba ekani aniqlandi. Shu muallifning "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" asari, ayrim xatoliklarni istisno qilganda, "Tazkirayi Qayyumiy"dagi shoir biografiyasiga oid ma'lumotlarni to'ldiradi.


4. Muhsiniy devoni va she'rlarining jami besh qo'lyozma nusxasi: O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondidagi 7392, Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi qoshidagi Qo'qon adabiyot muzeyidagi 4303 va 178 inventar raqamli hamda shoirning avlodlari shaxsiy kutubxonasidagi ikki qo'lyozmasi, shuningdek, Qo'qon adabiyot muzeyidagi 79/12 konvert papkada saqlanayotgan mustazodi va ikki g'azalining matni shoir adabiy merosining janr va mavzu ko'lami keng ekani isbotidir. Ulardan 7392 inventar raqamli qo'lyozma avtograf ekani jihatidan qimmatlidir. Shoir devonining 7392 inventar raqamli qo'lyozmasini asarlarining mavjud nashrlari bilan qiyoslash natijasida ijodkorning shu paytgacha ilm ahliga ma'lum bo'lmagan g'azal, murabba', muxammas, musaddas, musamman, qasida, masnaviy, maktub, ruboiy, ta'rix

janlariga doir jami 2241 misra she'ri aniqlangani Muhsiniy ijodi bo'yicha ilmiy izlanishlarni muttasil davom ettirish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

II BOB. IJODKOR ADABIY MEROSINING KO'LAMI VA MATN XUSUSIYATLARI

2.1. Shoir adabiy merosining ko'lami

Sharq mumtoz she'riyati darg'alari asarlarining mutolaasi Husaynquli Muhsiniyning shoir sifatida shakllanishida katta omil bo'lgan. Ijodkor o'z devoni debochasida mana bunday yozadi:



“Farg‘ona muzofoti va Movarounnahr iqlimig‘a zodai tab‘i fusunsozimdin bir asare safhai ro‘zgor uzra yodgor qo‘ymoq tamannosi ko‘nglum oynasidin jilvagar o‘lub, “Al-shuarou min talomiyzi-r-Rahmoni” g‘aybu-l-lison Hofiz Sheroziy rahimahulloh al-Boriy arvohi tayyibalaridan ionat va ham janob sulton

*ul-ulamo val-fuzalo, maorif va haqoyiq mahofilining mahbub va matlubi valoyat va karomat majolisining shohidi marg'ubi va majzubi, daqoyiq va haqoyiq gulistonining andalibi g'azalsaroyi, a'ni hazrat amir Alisher al-mutaxallas bin-Navoiy toballohu sarohu va ja'ala jannata masvahu ravoni xuldi makonlaridin madadu istimdod tilab, ushbu bodiyayi bepoyong'a qadam qo'y dum. Vallohu-l-Hodiy ilassabiylir-rashodi. Va huva hasbiy va ne'mal vakiyl'*⁴⁴. Ya'ni shoir ikki buyuk salafining muborak nomlarini ehtirom bilan tilga olyapti. Ular – Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy. Bu ulug' zotlarning ruhlaridan madad so'rayapti. Shoirning ushbu duolari mustajob bo'lib, mazkur buyuk salaflarining ruhlari qo'llab, she'riyatda kamolot darajasiga ko'tarila oldi.

Husaynquli Muhsiniy mumtoz she'riyatimizning g'azal, murabba', muxammas, musaddas, musamman, tarje'band, qasida, masnaviy, ta'rix, maktub va ruboiy kabi janrlarida samarali ijod qilish orqali o'zining shoir sifatida iste'dodi va salohiyatini ko'rsatgan. U she'riyatda salaflari an'alarini davom ettirish barobarida o'z davrining dolzarb mavzularida ham asarlar yozdi. Shoir devonida jamlangan lirik asarlarining salmoqli qismini g'azallar tashkil qiladi. Bu g'azallar ifoda shakli va mavzusiga ko'ra ham turlichadir. Muhsiniy she'riyatining mavzu ko'lamini shartli tarzda quyidagicha tasnif etish mumkin:

- 1) ishq-muhabbat;
- 2) diniy-tasavvufiy;
- 3) marifatparvarlik;
- 4) ijtimoiy mavzudagi;
- 5) axloqiy-falsafiy she'rlar.

Mumtoz she'riyatda muhabbat mavzusidagi she'rlar asosiy o'rinni egallashi ma'lum. Muhsiniy devonidagi bu mavzuda bitilgan she'rlar uning shoir sifatida katta ijodiy salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Mavzuning "...asarda qo'yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot

⁴⁴ Қўлёзма девон. ЎзР ФАШИ фонди. Инв. 7392. 6-бет (Бундан кейин шоир шеърларидан олинган иқтибослар ушбу манбадан келтирилади. Ўрни билан девоннинг "Барҳаёт гулшан" номли нашр вариантидан ҳам шеърлий парчалар олинади).

materiali”⁴⁵ ekani e’tiborga olinsa, Muhsiniy lirikasining mavzu qamrovi keng ekani ayon bo’ladi. Shoir ishqiy mavzuni, ayniqsa, shunday zavq-shavq bilan kuylaydiki, natijada muhabbati eng ulug’ kuch bo’lib, kishiga ruhiy quvvat bag’ishlovchi, uni kamolga etkazuvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. Adib g’azallarida muhabbat mavzusi, do’stlik, vafodorlik, oliyjanoblik, sadoqat kabi insoniy fazilatlar bilan uyg’un tarzda talqin etiladi. G’azallarda ma’shuqaning go’zalligi, pok va beg’ubor sevgisi tarannum qilinadi. Shu sababli shoir g’azallarida majoziy muhabbat go’zal tashbehlar va sifatlashlar bilan yo’g’rilgan holda kuylanadi.

*Ey yuzi qirmizi gul, la’li labi qandu sharob,
Araqi orazi bemorina tadbiri gulob⁴⁶.*

Ushbu baytning birinchi misrasida yorning yuzi – qirmizi gulga, labi –qandu sharobga tashbeh qilingan bo’lsa, ikkinchi misrada ma’shuqa yuzidagi ter bemor bo’lgan oshiq uchun malham gulobga qiyoslangan. Shu tarzda yorning zohiriy go’zalligi tashbeh san’ati vositasida badiiy suvratlantiriladi.

Yana bir g’azalida ma’shuqa yuzini oynadan ko’rgan oshiq aqlidan adashib hayratda qolgani, quyoshday ruxsorini ko’rib, ko’ngli iztirobga to’lgani ifodalanadi:

*Hayrat oldi aqlimi mir’oti diydoring ko’rib,
Iztirob etti ko’ngil xurshidi ruxsoring ko’rib⁴⁷.*

Shoir kuylagan ma’shuqa surati nihoyatda go’zaldir. Gulzorga kirib xirom aylasang, jamolingni ko’rgan tovus sening oldingda o’zining xunukligidan uyalib dashtu sahroga qochadi, deya ma’shuqa chiroyini mubolag’ali tasvirleydi.

*Aylasang sahni chamanda jilvai noz-u xirom,
Dasht aro oldi o’zin tovus raftoring ko’rib⁴⁸.*

Ma’shuqa qanchalik go’zal bo’lmasin, oshiqni hajr azobida qiynab, sitamga giriftor etadi, unga rahm-shafqat qilmaydi.

Jona ettim hajr aro dardu g’ami hijron chekub,

⁴⁵ Д. Куронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр. 2010. – Б.157.

⁴⁶ Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.15.

⁴⁷ Ўша манба – Б.15

⁴⁸ Ўша манба. – Б.15.

Bir tarahhum etmading dilxasta bemoring ko 'rib⁴⁹.

Muhsiniy g'azallarida tasvirlangan ma'shuqa Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Muqimiy, Furqat she'rlari mazmun mohiyatiga monanddir. Shoirning "Kelmadi", "O'ldurgusi" radifli g'azallari Navoiyga nazira tarzida yozilgan.

*Kecha yolg'on va'da aylab ul pariro' kelmadi,
Fikri vasli birla tokim ko'zg'a uyqu kelmadi⁵⁰.*

Nazira g'azal Navoiy g'azali kabi etti baytli bo'lib, qofiya va radif bir xil, shuning barobarida she'r mazmuni ham hamohang.

*Fig'onkim, bag'riming ul lolarux qon o'ldig'in bilmaz,
Jigar pargolasinda dog'i pinhon o'ldig'in bilmaz⁵¹.*

Yuqoridagi bayt Fuzuliy qalamiga mansub bo'lib, Muhsiniy ushbu g'azal ta'sirida quyidagi nazirani bitgan:

*Fig'onkim, dardu g'am-la ko'nglumi qon o'ldug'in bilmaz,
To'kub qonli yoshimni, chashmi giryon o'ldug'in bilmaz⁵².*

Mazkur nazira g'azal ishqiy mavzuda bo'lib, Fuzuliy g'azali kabi etti baytdan tarkib topgan, bir xil radif va vaznda yozilgan.

Shunisi xarakterliki, oshiqni maftun etgan ma'shuqa dastavval o'z husni bilan olamga chiroy baxsh etgudek barno, "yuzi qirmizi gul", "la'li labi qandu sharob", "ko'zi nargis", "qomati sarv", "kiprigi novak", "so'zlari shahdu shakardan laziz", "sochi sunbul", "gul yuz", "labi g'uncha", "nozik nihol", deya sifatlanadi. Shoir uning vasfiga butun qalb harorati bilan fikr xayolida jilvalanuvchi barcha ezgu kalomini baxsh etadi. Aksincha yor husnining har a'zosi: ko'z va qosh, lab va yonoq, soch va yuzi qanchalik go'zal bo'lmasin, u oshiq ko'nglini quvontirmaydi, g'am-alamga mubtalo qilib, hajr azobiga giriftor qiladi:

*Yod aylab ikki ko'zi kecha-kunlar,
Bo'ldi bemor tanim, za'fila ahvol xarob.
Keldi dargohinga bu ojizu miskin Muhsin,
Och ani yuzig'a tavfiq ila fathi avvob⁵³.*

⁴⁹ Muhsiniy. Barha'et gulshan. – Farfona, 2008. – B.15.

⁵⁰ Usha manba. – B.89.

⁵¹ Fuzuliy. Qalb gavxari - T.: "Hilol-nashr" – B.133.

⁵² Muhsiniy. Barha'et gulshan. – Farfona, 2008. – B.37.

Shoir muhabbat mavzusida shu kabi fikrlari orqali sevgi muqaddas tuyg‘u, inson pok muhabbati bilan go‘zaldir degan xulosaga keladi.

*Ko‘zlarining fitnasidur jong‘a balo ey, qaroko‘z,
Har birin g‘amzasidur inja biyo ey, qaroko‘z.
Qatliom etti ko‘zing amri ila qoshing qilichi,
Bir qalam birla hama nomasiyo ey, qaroko‘z⁵⁴.*

G‘azalda majoziy ishq ifodalangan. Mumtoz she‘riyatda ko‘z – fitna qo‘zg‘atuvchi hisoblanadi. Oshiqning joniga balo bo‘lgan bu – fitna qo‘zg‘ovchi qaro ko‘zli ma‘shuqadir. Ishva bilan suzilgan ikki ko‘z go‘yo oshiqni bu yoqqa kel, deya yoniga chaqirayotganday.

Muhsiniy she‘riyatida ishq-muhabbat Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Haziniy, Zoriy, Nisbatiy an‘analariga monand bo‘lishi barobarida o‘ziga xos uslubda talqin etiladi. Uning ishqiy lirikasi mavzu va g‘oyaviy jihatdan teranligi, uslub va ohang rang-barangligi, obrazlar tizimining mukammalligi, poetik takomili bilan diqqatga sazovordir. Shoir she‘riyatida tasvirlangan lirik qahramon o‘zida insoniy shuur va orzu intilishlarni, murakkab his tuyg‘u va kechinmalarni mujassam eta olgan sabr-bardoshli oshiq timsolini namoyon etadi.

Muhsiniy she‘riyatini o‘rganish jarayonida shu narsa ayon bo‘ldiki, shoir mumtoz adabiy an‘analarni davom ettirish bilangina cheklanmay, uni yangilashga, badiiy kashfiyotlar qilishga uringan ijodkordir. Shoir she‘riyatida lirik qahramon obrazi etakchi o‘rinda turadi.

*O‘lar holatg‘a ettim, so‘rmadi bu xasta ahvolim
Tag‘ofulpesha, zolim, purjafo, mastona yorim bor.
O‘sha g‘unchadahon yodida qong‘a to‘ldi bu ko‘nglum,
Dilim xunobasidan ashki chashmi lolazorim bor.
Kamina Muhsiniy yuz novaki hajrida giriyondur,
Demaydur bir za‘ifu notavonu dilafgorim bor⁵⁵.*

⁵³ Muhsiniy. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б. 15.

⁵⁴ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма 33-а саҳифа.

⁵⁵ Muhsiniy. Барҳаёт гулшан, -Фарғона, 2008. – Б. 28.

Hijron azobida qolgan oshiqning ahvoli o'lar holatga yetsa-da, bevafo sitamgar ma'shuqa uning holiga beparvo yoridan shikoyat qiladi. Bu jafokash g'unchadahanni o'ylab, dili qonga botadi. Keyingi misralarda oshiq holati yanada yorqin va ta'sirli o'xshatishlar bilan tasirlanadi. Dili siyoh bo'lgan oshiq ko'zidan oqqan yoshlar selidan lolazor paydo bo'lgan. So'nggi baytda shoir yor hajrida giryon ekanini, ammo ma'shuqa zaif, notavon va dilafgor oshiqqa e'tiborsizligidan shikoyat qiladi. Bu mahzun ohanglarda yor va zamondan ozor chekkan shoir ko'ngil olamining tug'yonlari o'z aksini topgan.

G'azallarda tengsiz go'zallik timsoli sifatida kuylangan yor aksar holatlarda o'z tashqi malohatiga zid tarzda bevafo va sitamkor, oshiqni hijron azobida qiynovchi tarzida talqin etiladi. Lekin bu holat oshiqni ishq yo'lidan qaytara olmaydi. Aksincha, uning qalbidagi ishq otashini yanada kuchaytiradi, oshiqni ishq olovida toblaydi, kamolot darajasiga yuksaltiradi.

*Menga yorimni ishi javru jafu,ozordur,
Husn elini nazdida oshiqlar ko'p xordur.
Ul ko'zi jallod qonim to'kkali rahm aylamas,
Qirmizi kamzur ila ham ko'ngluki gulnordur,
Tobakay javru jafu tortar quling, berahm yor,
Ko'ngil olmoq fikrin et andin bo'lak bekordur,
Muhsiniyning chehrai zardig'a kulmang, do'stlar –
Kim, aning mahzun dilida g'ussasi bisyordur⁵⁶.*

Lirik qahramon, ya'ni oshiq yorini qanchalik sevmasin, yori unga javr-u jafodan ko'rsatishdan to'xtamaydi. Go'yoki go'zal husnli ma'shuqalar nazarida oshiqlar ko'p xordir. Shu sababli ma'shuqa ko'zi jallod kabi rahm qilmasdan oshiq qonini to'kmoqchi. Shuning uchun uning libosi ham qon rangida – qirmizi, ko'ylagi gulnordir. Oshiq berahm yor hajrida javr-u jafu tortar ekan, undan ko'ngil olmoq fikrida bo'lishini o'tinadi. Oshiq yuzining hajrdan sarg'ayishiga kulmaslikni so'raydi, negaki uning g'amgin dili g'ussaga to'liqdir.

⁵⁶ Ўша манба. – Б.28.

Shoir lirikasidagi ishqiy mavzudagi she'rlar uning Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlar an'anasiga rioya etgan holda majoz vositasida haqiqatni kuylaganidan dalolat beradi. Bunda oshiq-ma'shuqa va raqib obrazlari uchligi asos sifatida olingani kuzatiladi. Garchi an'anaga rioya etgan bo'lsa ham, Muhsiniy muayyan obrazlar talqinida yangicha yondashishga intilgan va bunga muvaffaq bo'la olgan.

Diniy-tasavvufiy she'rlar. Muhsiniy she'riyatida bu mavzu etakchi o'rin tutadi. Mumtoz adabiyotimizda badiiy tafakkur cho'qqisiga ko'tarilgan ushbu mavzu shoir yashagan davrda ham munosib davom ettirildi. Adabiyotshunos Begali Qosimov bu haqda shunday yozgan edi: "Asrimizning dastlabki yigirma yilida shakllangan yangi she'riyat an'anaviy diniy-tasavvufiy she'riyat bilan yonma-yon yashadi. Mirmuhammad Qoriy (1834-1904), Yusuf Saryomiy (1845-1912), Usmonxo'ja Zoriy (1839-1916), Husaynquli Muhsiniy (1860-1917), ayniqsa, Ziyovuddin Haziniy (1861-1921) bu yo'lda samarali ijod etdilar: "Devoni Qoriy" (T., 1912), "Devoni Yusuf Saryomiy" (T., 1332 h.), "Bayozi Haziniy" (T., 1911), "Devoni Muhsiniy" (qo'lyozma, O'zR FASHI inv. №7392) va h. k."⁵⁷.

Darhaqiqat, diniy-tasavvufiy mavzu milliy she'riyatimizning adabiy-irfoniy an'anasi sifatida Muhsiniy ijodida ham munosib davom ettirilgani kuzatiladi. Ushbu an'ana, birinchi navbatda, hamd, munojot va na'tlar mazmunidagi she'rlarida yaqqolroq ko'rinadi. Garchi hamd mazmunidagi she'rlar barcha sohibi devon shoirlar ijodida uchrasa ham, Muhsiniy hamd-g'azallari, birinchidan, tilining nisbatan murakkabligi, ikkinchidan, mazmunan o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi.

Siposi beadam Xalloqi olam jumlai ashyo,

Berib ta'lim Odamg'a ulumi "Allamal asmo"⁵⁸.

Baytda olamdagi barcha narsalarning Yaratguvchisiga maqtovlar aytilar ekan, "Baqara" surasi 31-oyatidan Alloh taoloning Odam alayhissalomga hamma

⁵⁷ Qosimov B va bo'sh. "Milliy uifonish davri uzbek adabiyeti" Universitetlar va pedagogika oliy ukuв yurtlari uchun darслиk. – T.: Maъnaviyat, 2004. – B.173.

⁵⁸ uZR FA ШИ, Kuлeъma №7392. – B. 10^a (Fazalning кейинги байтлари ҳам шу манбадан олинган).

yaralmishlarning ismlarini o‘rgatganiga doir “Allamal asmo” iqtibosini keltiradi. Diniy-ma’rifiy mazmundagi she’rlarida Qur’oni karim va hadisi shariflardan iqtibos olish – Muhsiniy lirikasining xos xususiyati. Ushbu iqtiboslar, birinchidan, g‘azal ma’nosining ta’sir kuchini oshirsa, ikkinchidan, badiiyatining mukammal bo‘lishini ta’minlashi jihatidan qimmatlidir.

Chiqorub xulddin “Lo taqrabo” hajr ila Odamni,

Bir oni turmadilar lahzayi Odam bila Havvo.

“Xuld” – jannat ma’nosida. “Lo taqrabo” – “Baqara” surasi 35-oyatdan iqtibos bo‘lib, ma’nosi: “...(bu daraxtga) yaqinlashmanglar”. Ushbu ilohiy amrga itoat etmaganlari sababli Odam ota bilan momo Havvo jannatda bir lahza ham qola olmadilar, hijronda yashashga mahkum bo‘ldilar. Bir baytda ana shu ibratli tarixni bu darajada muxtasar va ta’sirli ifodalash, tabiiyki, shoirdan katta mahoratni talab qiladi. Talmeh san’ati zamiriga ana shunday ibratli kechmishni joylay olgani Muhsiniyning shoir sifatidagi salohiyati yuqori bo‘lganidan darak beradi.

Yuborub mavji to‘fon qahr aylab Nuh qavmig‘a,

Quruq er qolmadi ofoq aro bir zarrag‘a aslo.

Qilub Namrud o‘tin gulzor Ibrohim Xalilig‘a –

Ki, bir amrida gulzor o‘ldi anda otashi hamro.

Agarchi podshoh bahru bar ahvoli zorini,

Sulaymoni nabiyg‘a arz qildi mo‘rchai bemo.

Ko‘rub nuri tajalliy Turi Sino tog‘ida Muso,

Asosin ajdahou ikki ilkini yadi bayzo.

Otasiz keldi Maryam qornida Ruh ul-quds birla,

“Nafahtu fiyhi min ruhiy” kim ul Isoi Ruhulloh.

*Yo'lig'a Muhsiniy tavfiqin hamroh aylag'il yo Rab ,
Bahaqqi sayyidi kavnayn vasfi "Yosin"u "Toho".*

Ushbu baytlarda Nuh, Ibrohim Xalil, Muso, Iso (Ruh ul-quds) alayhimussalom kabi payg'ambarlar, Tur va Sino tog'larining nomlari orqali mazkur nabiyalar tarixiga ishora etiladi. Maqta' bayt esa alohida badiiy-irfoniy qimmatga ega. Chunki unda shoir nomi zikr etilmagan bo'lsa ham, vasfida "Qur'oni karimning qalbi" deya ta'riflangan "Yosin" hamda aqida, mo'minlik sifatleri va axloqlari haqida bahs yuritilgan "Toho" suralari nozil bo'lgan sayyidi kavnayn – ikki olam sarvari Muhammad alayhissalomni ta'riflar ekan, Tangri taolodan uning yo'lida yurishga tavfiq – madad berishini so'rab iltijo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, Muhsiniyning g'azal zamiriga katta ahamiyatga ega ma'rifiy mazmun yuklaganidan dalolat beradi.

"Gulshani jovid" devonida na't g'azallar ham salmoqli o'rin egallaydi. Na't ruhidagi she'rlari ham Muhsiniyning irfoniy-ijodiy salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi. Jumladan, na't g'azallaridan birining matla'i mana bunday:

*Zihi chobuksuvori arsai maydoni "Av adno",
Mubin oyai me'rojina "Subhonallaziy asro"⁵⁹.*

Muhsiniy har bir bayt, har bir satrda teran mazmunni go'zal badiiyat bilan ifoda etadi. Mazkur g'azal me'roj mazmunidagi na't ekani bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun shoir me'rojga doir ikki oyatdan iqtibos oladi. Birinchisida "Av adno" – "Najm" surasi 9-oyatidagi Muhammad alayhissalomning Haq taologa ikki kamon oralig'i yoki undan ham yaqin masofaga borgani haqiqati aks etgan bo'lsa, ikkinchisida "Isro" voqeasi, ("Isro" surasi, 1-oyat) ya'ni Rasululloh sallollohu alayhi vasallamni kechaning ma'lum bir qismida Makkai mukarramadan Quddusi sharifdagi Al-Aqso masjidiga sayr qildirgan Alloh taoloning pok Zoti ta'riflangan.

*Savodi chashminga "Zog'a-l-basar" tafsirdur notiq,
Musalsal sunbuli zulfing'ga "Val-layli izo yag'sho".*

⁵⁹ ЎзР ФА ШИ, Кўлёзма №7392. – Б. 11-^{аб} (Ғазалнинг кейинги байтлари ҳам шу манбадан олинган).

Baytda Payg‘ambarimiz alayhissalomning muborak nigohlariga “Najm” surasi 17-oyatidagi “Zog‘a-l-basar” (“Nigohi burilmadi ham” mazmunida) ta’rifi, bamisoli zanjirdek bog‘lanib ketgan qora zulflariga “Layl” surasi 1-oyatidagi “Qoplab kelayotgan tun bilan qasam” tafsir bo‘la olishi yuksak fasohat va balog‘at bilan talqin etilgan.

*Vujudi komilingdur “Rahmatan lil-olamin” Haqdin,
Sifoting o‘ldi Haqdin surai “Yosin” ila “Toho”.*

Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning barcha sifatleri Qur‘oni karimda ta’rif etilgan. Jumladan, “Anbiyo” surasi 107-oyatida ul zotning “Rahmatan lil-olamin” sifati keltirilgan. Mazmuni: “(Ey Muhammad), darhaqiqat Biz sizni barcha olamlarga faqat rahmat (ya’ni Ollohning rahmati — jannatiga etaklaguvchi) qilib yubordik)”⁶⁰. “Yosin” bilan “Toho” suralari Payg‘ambarimiz alayhissalom vasfida nozil bo‘lgani yuqoridagi g‘azal tahlilida zikr etilgan edi. Bular barchasi Muhsiniyning Qur‘oni karim ilmini mukammal egallagani hamda she’rlari zamiriga ushbu ilohiy manbadagi haqiqatlarni mahorat bilan singdira olgani isbotidir.

*Bo‘lundi bir ishorang birlan ikki moh charx uzra,
Qilub i‘joz kuffor ahlig‘a shaqqul qamar paydo.*

Bu baytda Payg‘ambarimizning barmoq ishoralari bilan oyni ikki bo‘lakka ajratganlari bilan bog‘liq mashhur mo‘jizasi va ul zotning “Shaqqu-l-qamar” – “Oyni ikki bo‘lakka ajratuvchi” sifatleri bilan kofirlarni ojiz qoldirgani vasf etilgan. Muhsiniy na’t-g‘azalining o‘ziga xosligi – Rasuli akram sallollohu alayhi vasallamni ta’riflaganda, birinchidan, Qur‘oni karim oyatlariga tayanishida, ikkinchidan, islom tarixidagi muhim voqealarga asoslanishida namoyon bo‘ladi.

*Shafi‘i avvalinu oxirin san ro‘zi Mahsharda,
Sango yuz keltururlar anbiyolar ul arsai volo.*

Shoir bu baytda Rasululloh sallollohu alayhi vasallamning Mahshar kunida O‘zlaridan avvalgi va keyingi ummatlarni ham shafolat qilishini vasf etadi. Hatto ul

⁶⁰ Куръони карим маъноларининг изоҳли таржимаси. (Таржимон: Шайх Аловуддин Мансур). - Т.: Чўлпон, 1992.- Б. 236.

arsai volo – Qiyomat maydonida Ul zotga boshqa payg‘ambarlar ham shafolat so‘rab yuzlanishlarini teran mazmun va betakror badiiyat uyg‘unligida ta’riflaydi.

Kelub oyoti nasru fathinga “Inno fatahno”kim,

Musallam o‘ldi hukmingg‘a bilodi Yasribu Batho.

Muhammad alayhissalomning mushriklar ustidan g‘alaba qozonishi sharafiga “Fath” surasi nozil bo‘lgani, Yasrib – Madinai munavvara hamda Batho – Makkai mukarrama Uning hukmiga bo‘ysungani talqin etilgan ushbu bayt ham mazmun jihatdan avvalgilarining uzviy davomi ekani bilan alohida ahamiyatga ega.

Vujuding nuridin ko‘rdi tajalli hazrati Muso,

Asosin ajdahou ikki ilkini yadi bayzo.

Topub fayzi qarobat bu‘satingo Iso Ruhulloh.

Kelib Ruhu-l-qudsdin murdalarni ayladi go‘yo.

Agar sen Muhsiniyni ummatim deb so‘rmasang holg‘a,

Hama ahli Qiyomat yig‘lashurlar holig‘a Tonglo.

Ushbu baytda Muso alayhissalomning hassasi ajdahoga, ikki qo‘llari oppoq qo‘lga aylanishi Payg‘ambarimiz alayhissalom nuridan tajalli olgani sababidan ekani, Iso Ruhulloh esa ul zotning payg‘ambar etib yuborilishi tufayli Tangri taologa qurbat – yaqinlik kasb etib, o‘liklarni tilga kiritgani vasf qilinadi.

Maqta’-baytda esa shoir Mahshar tongida Rasuli akram sallollohu alayhi vasallam “ummatim” deb hol so‘ramasa, Qiyomat ahlining hammasi uning holiga yig‘lashini ta’kidlab, umidvor ekanini izhor etadi. Bu esa, o‘z navbatida, shoirning ushbu na’t-g‘azali uning iymoni mustahkam ekanining dalolati ekanini ko‘rsatadi.

Shoir Muhammad alayhissalom vafotlariga bag‘ishlangan 23 banddan iborat bir marsiya-muxammas ham yozgan. Muxammasda payg‘ambarlar tarixiga ishora va islom dini tarixida muhim o‘rin tutgan tarixiy shaxslar faoliyatiga munosabat aks etgan. Odam Ato va onamiz Havvo, shuningdek, Nuh, Ibrohim,

Ismoil, Muso, Iso kabi payg‘ambarlar nomi zikr etilishi orqali ularga yuborilgan sinovlar hikmati ifodalanadi. Me’roj kechasi vasfi va chahoryorlar sifati talqin etiladi. Umuman, ushbu muxammas orqali shoir Muhammad alayhissalomga bo‘lgan cheksiz muhabbatini izhor etadi.

Muhsiniy o‘n to‘qqiz yoshida islomning beshinchi farzi – haj ibodatini ado etadi. Shu sababli bo‘lsa kerak, chin iymon-e‘tiqodni ulug‘lovchi, Alloh vasliga etishish uchun islom sha’riatiga amal qilish zaruratini ifodalovchi she’rlar bitadi. Albatta, yuqoridagi kabi baytlarni bitish uchun Allohga iymon keltirish va qalban uning buyukligini his qilish uchun komil musulmon fazilatlariga ega bo‘lish kerak edi. Muhsiniy ana shunday taqvodor, iymoni mustahkam shaxs bo‘lgan.

Shoir devonida 28 ruboiy bo‘lib, ular diniy-tasavvufiy mavzu tizimli ifodalangani bilan ahamiyatlidir. Ruboiylar ketma-ketligiga e‘tibor berilsa, biri ikkinchisini ma’no va mazmun jihatdan to‘ldirishi kuzatiladi. Ruboiylar hamd, na’t va chahoryorlar madhi hamda irfoniy mazmunda ekani yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Quyidagi ruboiy tasavvufiy mazmun yoritilgani jihatidan ahamiyatlidir:

*Vahdat mayidan sog‘arimi qilsam no‘sh,
To ursa ko‘ngul ichra oning nishoti jo‘sh –
Kim, tark qilam so‘ngra jahon ta‘liqin,
Majnun kabi mahvi hayrat o‘lsam madhush⁶¹.*

Shoir hamd va na’t g‘azallarida hayot mohiyati, inson zimmasidagi mas’uliyat haqidagi teran mazmuni o‘ziga xos badiiy talqin etadi. Insonlarga qarata noumid bo‘lmaslik kerakligi, chunki mo‘minlar umid bilan yashashi bilan bog‘liq haqiqatni uqtirmoq istaydi. Alloh er yuziga ko‘p payg‘ambarlar yuborgan, ularning ba’zilarini podshoh qilib taxtga o‘tqazsa, ayrimlarini og‘ir mehnatga mubtalo qilib sinagani baytlarda ifodalanadi. Ayrim she’rlarda musulmon Sharqida g‘am-alam timsoli bo‘lgan Ya‘qub alayhissalom, go‘zallik ramzi sifatida talqin qilinadigan Yusuf alayhissalom va boshqa payg‘ambarlar hayotiga doir ibratli

⁶¹ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.151.

voqealar talmeh san'ati vositasida badiiy talqin etilgan. Mana bu baytlar mazmuni ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Ya'qub (n)i o'g'li furqatida zor yig'latub,
Yusufni hibbs qildi necha yil zeri cho(h).
Tavahhumida yig'ladi Yahyo ba ashki xun,
Ikki bo'lundi arra birla shoh Zikriyo⁶².*

G'azal mazmunidan anglashiladiki, umid har bir inson, mo'min kishi uchun eng muqaddas tushuncha bo'lishi kerak, musulmon kishi umidsiz kamolotga erisha olmasligi ta'kidlanmoqda.

Na't g'azallarda bir qancha payg'ambarlarni zikr etib, Muhammad sallallohu alayhi vasallam sifatleri va ul zotni Alloh taolo olamlarga rahmat qilib yaratgani hamda barcha nabiyalar sarvari ekanligi, gunohkor ummatlarini shafolat qiluvchi ekanligi haqidagi mohiyat betakror badiiy talqin qilingan:

*Aflokini olamdin nari, nuri Muhammad ilgari,
Barcha nabiyalar sarvari, ul shofi'i ro'zi jazo⁶³.*

Muhsiniy diniy mavzudagi she'rlaridagi lirik qahramon Allohga chin dildan iymon keltirgan, hamisha unga solih banda bo'lishni xohlaydi. Shu sababli bo'lsa kerak, ko'pgina she'rlarida islomiy tushuncha va iboralar faol qo'llaniladi. Shoirning Tangri taologa e'tiqodi shunchalik kuchliki, Undan to'g'ri yo'l ko'rsatishini, Ul Zotdan o'zga yori yo'q ekanini aytib, tavfiq so'raydi:

*Tavfiqi roh ayla karam Muhsiniyig'a sen
Yo'qtur o'zingdin o'zga anga yoru muttako⁶⁴.*

Alloh taolo ishqini Muhsiniyini asir etib, ko'nglida mudom unga ishonch ortganini o'z ash'orlarida yorqin bo'yoqlar orqali ifodalaydi. Shu bois shoir ijodida ilohiy ishq mavzusi pafos bilan tarannum etiladi. Ijodkor she'rlaridagi lirik qahramon o'z ko'nglini barcha yomon illatlardan toza tutishini Allohdan o'tinib so'raydi. Chunki barcha narsaning avvali va oxiri, har bir ishga qodir bo'lgan Allohgina unga yordam bera oladi.

⁶² Muhsiniy. Barha'et gulshan. – Farfona, 2008. – B.12.

⁶³ Usha manba. – B.12.

⁶⁴ Usha manba. – B.12.

*Ko 'nglumi oynasidin ketkuzub zangu g'ubor,
Jumla asbobi jahondin mosivo qilg'il, Karim,⁶⁵*

deya yozganida ham inson ko'ngli pok bo'lsagina, e'tiqodi mustahkam bo'lishi mumkinligiga doir shoir konsepsiyasi o'z aksini topgan. Oshiq tun-u kun, hattoki umr bo'yi Alloh taolo zikri bilan o'tishga tayyor. Doimo tilidan Rabbisining nomi tushmasin, deya o'tinadi. Najot yo'lini topolmagani uchun sham yorug'i bilan yo'lini oydin qilishini o'tinib so'raydi. Muhsiniy ilohiy ishqqa bo'lgan intilishini faqat o'zi uchun emas, zamonasining hamma insonlarga xos hayot tarzi, deb biladi.

Shoir o'zining iymon-e'tiqodini ojizona baholaydi va Allohdan Mahshar kuni xatolarini, isyonlarini kechirishini va hasanot yozishini iltijo qiladi. Boshqa bir baytda quyidagicha fikrni bildiradi:

*Muhsiniy Hashr aro tursa gunahdin mahzun,
Rahmat aylab ani o'ng qo'lig'a ber xatti barot⁶⁶*

deya Yaratganga iltijo qiladi.

Shoir lirik qahramoni diyonatli, taqvodor, komillikka intiluvchi, hamisha Allohni qalbida tutadigan inson sifatida gavdalanadi. Ijodkor g'azallarida ilohiy ishqni kuylar ekan, arabcha so'z va birikmalardan o'rinli foydalangani kuzatiladi:

*O'z dadur o'zga makone, yo'qg'a qilsang justujo',
"Ayna mo kuntum" – dedi, nuri Xudo istar esang⁶⁷.*

Bu baytda "Qaerda bo'lsangiz ham Alloh taolo siz bilan birgadir", mazmunidagi hadisga iqtibos qilingan. Bu kabi misollar Muhsiniyning Qur'oni karim va hadisi shariflarni mukammal bilgani, zarur o'rinlarda she'rlarida bu ikki mo'tabar manbadagi ko'rsatmalardan foydalangani ayon bo'ladi.

Umuman, Muhsiniy lirikasida ilohiy ishq alohida zavq-shavq bilan kuylanganligi she'riyatida yaqqol ifodalangan. Shu sababli shoirni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida diniy va tasavvufiy ruhda ijod qilgan shoirlar sirasiga mansub, deyish uchun etarli asoslar bor.

⁶⁵ Muhsiniy. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.66.

⁶⁶ Ўша манба. – Б.18.

⁶⁷ Ўша манба. – Б.62.

Ma’rifatparvarlik mavzusidagi she’rlar. Millatning ilmu ma’rifatni egallashi orzusi shoir she’riyatida zo‘r pafos bilan kuylangan. Muhsiniy lirikasi mavzulari mohiyatiga ko‘ra Qo‘qon adabiy muhitining Muqimiy, Furqat, Muhyi, Muhayyir, Zoriy, Zavqiy kabi namoyondalari asarlariga hamohangdir. Adib yashagan davr ijodkorlari asarlarida ma’rifatparvarlik, millatparvarlik g‘oyalari aks etgan. Ilm-ma’rifatga doir asarlar Muhsiniy lirikasida salmoqli o‘rin tutadi. Shoir bir g‘azalida, jumladan, shunday yozadi:

*Ilm odob o‘la insona sharaf,
Yo‘qsa asli ani bir tiyra xazaf⁶⁸.*

Inson – koinot gultoji, ilm-ma’rifat uni ulug‘laydi. Inson ilmi va odobi bilan sharaf topadi, aks holda odam bir qora tuproqdan boshqa narsa emas. Shoir bu bayt orqali vatandoshlarini insonlik sharafiga munosib bo‘lishga chaqiradi. G‘azalning keyingi bir baytida ushbu mazmun yanada kuchaytiriladi:

*Ma’rifat topsa, o‘shal insondir,
Varna hayvon ishidir obu alaf⁶⁹.*

Ma’rifat – insonning o‘zini va o‘zligini, Yaratganni anglashidir. Shoir nazdida, ma’rifat topgan kishigina inson demoqqa munosibdir. Aks holda u umri faqat o‘t eb, suv ichib o‘tadigan hayvonga mengzaydi.

Ma’lumki, XX asar avvalida ijtimoiy hayotdagi keskin o‘zgarishlar, Turkistonning Rusiya mustamlakasiga aylanishi natijasida xalqimiz hayotiga yangi tushunchalar, an’analar kirib keldi. Shoirlar ushbu yangiliklarni boshqalardan ko‘ra tezroq idrok etib, munosabat bildirdi. “Bekasman” radifli g‘azalida Muhsiniy ilm ahli orasida bo‘layotgan yangi xat haqida shunday bayt bitadi:

*O‘lubtur ushbu kunlar fazlu donish xati o‘rischa,
Oningdek ilmu fanni qilmag‘on takror bekasman⁷⁰.*

Baytda bilimli, dono kishilar orasida rus tilida yozish, gapirish ommalashayotgani e’tirof etiladi. Bu ilmu fanni o‘qimangani va o‘rganmagani bois

⁶⁸ Muhsiniy. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.53.

⁶⁹ Ўша манба. – Б.53.

⁷⁰ Muhsiniy. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.79.

shoir o‘zini bekasman, deya malomat qiladi. Til va boshqa xalqlar yozuvini o‘rganish zarurligiga urg‘u beradi.

Shoir tarje‘bandlarida ma‘rifat mavzusini keng va teranroq ifodalab, quyidagi satrlarni yozadi:

*Ham maorif sarfi ermastur garon,
Uhdasidin kelg‘usi har notavon.
Bersa maktabga kishi farzandini,
Topgusi Tongla savobi begaron...
Vorisim dedi nabiy olim elin,
Qildi onlar vorisi payg‘ambaron⁷¹.*

Shoir maorif, ilm o‘rganishga mablag‘ sarflashni har qanday notavon ham uddalashini ta‘kidlaydi. Kimki, maktabga farzandini ilm olish uchun bersa, Mahshar tongida hadsiz savobga sazovor bo‘ladi. Nabiy alayhissalom hadisda olimlar mening vorislarimdir, degani uchun bolasini maktabga bergan kishi uni payg‘ambarga merosxo‘r qilibdi. She‘rda ana shu mazmun xalqona uslubda ta‘sirli ifodalangan.

Ko‘rinib turibdiki, Muhsiniy lirikasida ilm-ma‘rifat mavzusi kuchli ehtiros bilan kuylanib, bu mavzu shoir yashagan davrda dolzarb bo‘lgani kuzatiladi. Albatta, Muhsiniy o‘z davrining ma‘rifatli kishisi bo‘lib, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy o‘zgarishlarni o‘tkir nigoh bilan kuzatib, muhim xulosalar chiqaradi. Shoir muxammaslarida, tarje‘bandlarida maorif va ilm insonga sharaf bag‘ishlashi ta‘kidlanib, bizning millat ilm-ma‘rifatdan orqada qolgani afsus-nadomatlar bilan talqin etiladi. Tavallo g‘azaliga bog‘lagan muxammasida shoir mana bunday yozadi:

*O‘zga millat topadur ilm maorif-la rivoj,
Bizni aylar o‘zini hiylalarig‘a muhtoj⁷².*

Muhsiniy lirikasida ilmu maorif haddi a‘losiga ko‘tarilib tarannum etilgan asarlari musamman va tarje‘bandlar hisoblanadi. Bizningcha, bu she‘r namunalari shoir ijodining nisbatan so‘nggi yillarida yozilgan bo‘lsa kerak. Chunki asarlarida

⁷¹ Ўша манба. – Б.79.

⁷² Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.108.

ilgari surilgan g‘oyalar va tushunchalar shunday xulosaga asos beradi. Ayniqsa, bir musammani o‘ziga xos shakl va mazmunga egaligi bilan xarakterlidir. Shoir quyidagicha yozadi:

*Ilm bir gavhar erur, atfol ko‘nglidur sadaf,
Topg‘usi farzandi odam ilm ila izzu sharaf⁷³.*

Musammanning mazkur ikki misrasida tashbeh va takrir san’atlari mahorat bilan qo‘llangan. She’rda ilm – gavharga, bola ko‘ngli sadafga qiyoslanib, tashbehi mo‘kad hosil qilingan. “Tashbehi mo‘kad (ta’kid yo‘li bilan o‘xshatish). Bunda o‘xshatish vositalari (yordamchi so‘zlar, -dek qo‘shimchasi) ishlatilmaydi, balki o‘xshatilgan va o‘xshalgan narsa hukmu mahkum (ega+ot kesim) tarzida keladi”⁷⁴. Yuqoridagi misralarda “ilm” – *mushabbih* ega bo‘lsa, “gavhar erur” – *mushabbihun bih* kesim vazifasidadir. Ikkinchi tashbehta “ko‘ngil” – *mushabbih* ega bo‘lsa, “sadam” – *mushabbihun bih* kesim vazifasida kelib, tashbehi mo‘kad hosil qilingan.

“Takrir” atamasi lug‘atda takror ma’nosini anglatadi. Shoir baytda biror so‘zni ikki yoki uch marta qo‘llasa, takrir san’ati sodir bo‘ladi”⁷⁵. Ilm so‘zi birinchi misra boshida va ikkinchi misra o‘rtasida takror qo‘llanishi takrir san’atini hosil qilgan. Mazkur misralarda ilm gavharga, ko‘ngil sadafga tashbeh qilinishi shoirning o‘ziga xos badiiy topilmasidir. Tashbeh va takrir san’atlari ifodalanayotgan fikrning obrazli va ta’sirli bo‘lishini ta’minlagan. Shoir bandning keyingi misralarida johilu nodon inson el-ulus ichida beqadr, hurmatsizdir, degan fikrni ta’kidlaydi. Shu bilan birga, odam umrini behuda narsalarga sarflamasligi zarurligi uqtiriladi. So‘nggi baytda kimki javonmard, millatparvar inson bo‘lsa, madrasa-yu maktab bunyod qilish orqali dinning yuksalishiga yordam berishi kerakligini ta’sirli ifodalaydi:

*Johilu nodon eli beqadr monandi xadaf,
Buyladur hukmi ilohiy, sunnatu qavli salaf,
Tashlangiz rohi safohat, ham jaholat bir taraf,*

⁷³ Ўша манба. – Б.126.

⁷⁴ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. .:Т- “Зарқалам”, 2006. – Б.88.

⁷⁵ Раҳмонов В. Шеър санъатлари. –Т.: “Sharq”, 2020. – Б.79.

*Bo 'lmasun behuda bu umri garonmoya talaf –
Kim javonmard o 'lsa, din yo 'lig 'a imdod aylasun,
Madrasa, avqofu maktabxona bunyod aylasun*⁷⁶.

Ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan tarje'bandiga shoir "Padari jonibidin farzandlarga", deya sarlavha qo'yadi. Muhsiniy farzandlari timsolida o'z davridagi barcha millat yoshlarini ko'zda tutadi. Bugungi yosh avlod uchun ham shoir so'zlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilm olish islom dinida farzi ayn – barcha birday bajarishi zarur bo'lgan ish ekani hadislarda ta'kidlangan. Erkak-ayol, yosh-qari ilm o'rganishi farzligi uqtirilgan. Johil va nodonlik kishini zalolatga olib boradi. Shoir farzandlariga bunday kimsalardan yiroq bo'lishga chaqiradi:

*Ey dilimni quvvati, nur ul-basar,
Go 'sh aylang nuktai durru guhar,
Farzi ayn o 'lmish maorif, kasbi ilm,
Keldi buyla ramzi oyotu xabar.
Eru xotin, xoh piru xoh javon,
Jahlu nodonlig ' erur jong 'a zarar.
Ey dilimni ravshani, nur ul-basar,
Jahlu nodonlig 'din aylangiz hazar*⁷⁷.

Muhsiniy o'z davri shoirlari kabi mumtoz she'riyatimiz an'analariga sodiq qolish barobarida o'zi ham shakl va mazmun jihatdan barkamol she'rlar bitdi. Millatni ilm-u ma'rifatga chaqirdi. Uning taraqqiy etishi yo'liga butun ilmini, salohiyatini safarbar etdi.

Ijtimoiy mavzudagi she'rlar. Muhsiniy devonida ijtimoiy mavzu yoritilgan asarlar ham bir qanchadir. Zero, shoir yashagan davr ijodkorlari asarlari ijtimoiy mazmun kasb etishi bilan harakterlidir. Adabiyot ushbu paytda kelib, millat hayotining og'ir va ayanchli ahvolini yoritishdek muhim bir vazifani bajarishga kirishgan edi. Turkiston o'lkasining ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy-ijtimoiy jihatdan inqirozga yuz tutganini ko'rib, bundan hadsiz iztirob chekkan ma'rifatparvarlar qatori Muhsiniy ham she'rlarida jaholat, adolatsizlik va jabr-zulmni qoraladi.

⁷⁶ Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.126.

⁷⁷ Ўша манба. – Б.130.

Muhsiniy nechog‘lik murakkab va ziddiyatli davrda yashaganini she‘rlarida mana bu tarzda ta‘sirli ifodaladi:

*Jahon lazzatig‘a ko‘p chekmag‘il ranj,
Achchig‘durkim oxiri ta‘mi noranj.
El ichra o‘lg‘usi qadri ziyoda,
Sadoqat birla o‘lsa kim suxansanj.
Nifoqu kufr birlan to‘ldi olam,
Buxoro, xoh Farg‘ona, ham Urganj⁷⁸.*

Shoir fikricha, bu olam lazzatidan bahramand bo‘la olmadim deb ranju alam chekish to‘g‘ri emas. Chunki noranj – apelsinning oxirini esangiz, ta‘mi achchiq. Kimki sadoqatli, so‘zamol bo‘lsa, el ichida hurmat va izzat topadi. Ammo bu olam nifoq va kufrga to‘ldi. Shu sababli shoir nobakorlar, ilmsizlar ulug‘lanayotganidan achinadi. Butun Turkiston – Buxoro, Farg‘ona va Urganj kabi shaharlar ham shu ahvolga tushib qolganidan afsuslanadi. Shoir millat ahlini ilmi, dinu diyonatli, ozod ko‘rishni xohlaydi, uning taraqqiysini orzu qiladi. Albatta, bu orzularga erishish uchun ilm-ma‘rifatni asosiy vosita deb biladi, millatni ma‘rifatli bo‘lishga chaqiradi. Shoir xuddi jadidlar kabi maktab ochishga xayrixoh bo‘lib, islom dini ahkomlarini ham unutmastlikni o‘z she‘rlarida ifodalaydi. Adib she‘rlari mazmun-mohiyatiga ko‘ra jadidlar g‘oyalariga hamohangdir. Zamon manzarasini shoir mana bu g‘azalida yaqqol tasvirlab beradi:

*Ketti Farg‘onadin insofu diyonat afsus,
Bu sababdin boshimiz uzra kelib qavmi o‘rus.
Qildi Xo‘qand shahi o‘rdau Arki oliysin
O‘zig‘a butxona, osub anga jalojil noqus.
Qolmadi yoshu qari o‘rtasida sharmu hayo,
Ketti odob, yana or ila nangu nomus⁷⁹.*

Muhsiniy tom ma‘noda taqvodor inson bo‘lganligi uchun zamondagi o‘zgarishlarni, ayniqsa, islom dini qoidalariga mos kelmaydigan yangi odat va amallarni o‘z vaqtida tez tushunib etgan. Shu bilan birga, Chor hukumati

⁷⁸ Muhsiniy. Barxha‘t gulshan. – Farqona, 2008. – B.126.

⁷⁹ Muhsiniy. Barxha‘t gulshan. – Farqona, 2008. – B.39-40.

siyosatining asl maqsadini anglagan ijodkorlardan edi. Shu bois shoir jamiyatdagi illatlarni lirikasida achchiq til bilan bayon etgan:

*Vahki, Farg‘ona eli motamsaro bo‘ldi, darig‘,
Sifla, dunlar – shoh, shahlarkim gado bo‘ldi, darig‘⁸⁰*

deya afsus-nadomat chekkanida uning Vatan taqdiri uchun nechog‘lik kuyungani, ko‘ngil iztiroblarini qanchalik ta’sirli ifodalagani yaqqol namoyon bo‘ladi. Keyingi baytlarda shoir xalq ichida mustabid Rusiya hukumati qonunlari, nizomlari xuddi joriy bo‘lganidan, Muhammad payg‘ambarimiz shariatining ahkomlari qadrsizlanganidan nadomat chekadi. Hukumat qonunlari zolim poraxo‘rlarga ayni muddao bo‘ldi, deya ayrim nafs-u havo quli bo‘lgan amaldorlarga nafratini izhor etadi.

Axloqiy-falsafiy she’rlar. Shoir bir g‘azalida davr va jamiyat ahvolidan afsus-nadomat bilan quyidagilarni bitgan edi:

*Oldi g‘aflat ko‘nglumiz, yo‘qtur vale bedormiz,
Ketsa ham qo‘ldan diyonat, qani nangi orumiz?⁸¹*

Shoir nazdida millat ahli zohiran bedor tuyulsa-da, aslida g‘aflat uyqusida. Millatning oru-nomusi, diyonati ketganidan iztirobini mana bu tarzda ifodalagan:

*Daraxti mevalig‘dek odamiy bog‘i jahon ichra,
Anga etmas havodiskim, o‘lursa xayru ehsonliq⁸².*

Daraxt mevasi bilan qadrli bo‘lgani kabi, bu jahon bog‘ining ziynati odamiylikdadir. Xayr-u ehson ahliga hech qanday hodisa zarar etkaza olmaydi. Boshqa bir baytida shoir dilozorlik eng yomon odatlardan ekanini uqtiradi. Alloh Qof tog‘idek gunohni afv etishi mumkin, biroq kibr va dilozorlikni kechirmaydi:

*Afv etar Tangri, gunohing bo‘lsa misli Qof,
Lik kechmaydur gunohing kibr-u dilozorlig‘⁸³.*

Shoir nazdida, el aybig‘a emas, balki o‘z nuqsonlariga boqish chinakam odamiylikdir. Oqil inson qalbidagi sirlarini birovlariga aytib, noqulay ahvolga qolmasligi zarurligi bilan bog‘liq shoir qarashlari quyidagicha talqin etilgan:

⁸⁰ Ўша манба. – Б.50.

⁸¹ Ўша манба. – Б.50.

⁸² Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.49.

⁸³ Ўша манба. – Б.49.

*O'zni nuqsoningg'a boq, solma nazar el aybig'a,
Ochmag'il hargiz alarg'a diydai siyna g'alat*⁸⁴.

Bu dunyo o'tkinchi bo'lib, barqaror emasligi, hech kimsaga vafo qilmasligi, ammo ilm-ma'rifat abadiy hayotga daxldorlik asosi ekani mana bunday ifodalangan:

*Bu jahon foniy erur ham besabot,
Ilmu irfondir hayoti jovidon*⁸⁵.

Yaratganning taqdir qalami xato yozmasligi teran ma'no va go'zal badiiyat mutanosibligida quyidagicha talqin etilgan:

*Barcha taqdiri azal siri senda ojiz, faqir,
Homai tahriri qudrat yozmag'ay aslo g'alat*⁸⁶.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi tahlillardan anglashiladiki, Muhsiniy devonda jamlangan asarlari mavzu jihatdan ham keng bo'lib, o'z davrining dolzarb muammolarini yoritganligi bilan xarakterlidir. Demak, shoir lirikasida ilohiy ishq, an'anaviy sof muhabbat bilan tarannum etilgan she'r namunalari asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, ilm-ma'rifat ulug'langan, o'sha davr ijtimoiy voqeligi haqqoniy ifodalangan asarlar ham salmoqli o'ringa egadir.

Muhsiniy she'riyati janr jihatdan rang-barang bo'lib, mumtoz she'riyatimiz an'alarini yuksak mahorat bilan davom ettirdi. Adib davr ijodkorlariga hamnafas tarzda diniy-ma'rifiy, ishq-muhabbat va ijtimoiy mavzularda betakror she'rlar yaratdi. Diniy-ma'rifiy mavzudagi she'rlar shoir lirikasining asosini tashkil etadi. Umuman, Muhsiniy asarlarida ilohiy ishq mavzusi tarannum etilgan she'rlar ustunlik qiladi.

2.2. Ijodkor asarlarining matn xususiyatlari

Badiiy matn ijodiy yondashuvni taqozo etadi. Aks holda u o'zining mazmun-mohiyatni yo'qotadi. Ana shunday chinakam ijodiy yondashuv mahsuli bo'lgan matngina muallifning nomini uzoq kelajakka eltishi, unga sharaf keltirishi


⁸⁴ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.42-^б.

⁸⁵ Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.130.

⁸⁶ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б. 42-^б.

mumkin. Ijodiy yondashuv, o‘z navbatida, badiiy kashfiyotlarning asosidir. Busiz millat adabiyoti taraqqiy etmaydi, adabiy-estetik tafakkur takomil darajasiga erishmaydi. Husaynquli Muhsiniy adabiy merosi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shoirning badiiy matnga individual ijodiy tafakkur asosida, o‘ziga xos yondashganini ko‘rsatadi. Lekin, afsuski, shu paytga qadar shoir asarlari ayni nuqtai nazardan tadqiq etilmay keldi. Tadqiqotning ushbu faslida ana shunday ijodiy fazilatlardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Shoir devoni qo‘lyozmasining 33^b-sahifasida “Ey, qorako‘z” radifli olti baytli ishq-muhabbat mavzusidagi g‘azal bor. Mazkur g‘azal ijodkorning 2008-yili chop etilgan “Barhayot gulshan” devoni nashriga kiritilmagan. Ijodkor ushbu g‘azalda teran poetik fikrni ohangdosh so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llab ifodalagan. G‘azalda qofiya va radif bo‘lib kelgan so‘zlar shakl hamda mazmun jihatidan mukammal badiiy uyg‘unlik kasb etgan. Shoirning g‘azal matniga ohorli yondashuvi shunda ko‘rinadiki, so‘z shaklini teskari ko‘rinishda yozish bilan, birinchidan, uning salbiy ma‘nosini alohida ta‘kidlagan bo‘lsa, ikkinchidan, ayni so‘z vositasida baytdagi asosiy obrazga urg‘u berilgan. Uchinchidan, bu obrazga muallifning hissiy-emotsional munosabati yorqin aks etishiga erishilgan. Bunday individual yondashuv baytning badiiyati yuksak bo‘lishini ta‘minlagan. G‘azalning uchinchi baytida ma‘shuqaga da‘vogar bo‘lgan g‘anim obrazini ifodalagan “ag‘yor” so‘zi noan‘naviy shaklda bitilgani buning isbotidir:




*Bizg‘a yuz nozu tag‘oful sitamu javru jafu,
Qilar ag‘yorim ila zavqu safo, ey qora ko‘z.*

Ishqiy mavzuda yozilgan ushbu g‘azalda qo‘llangan *ag‘yor* so‘zini kotib teskari shaklda bitish orqali raqibga bo‘lgan salbiy munosabatini shaklda ham ifodalagan. Shoir talqinicha, *ag‘yor* obrazi zamirida to‘g‘rilik sifati yo‘qligi uchun ushbu so‘z teskari yozilishi kerak, degan tushuncha ham anglashiladi. Bayt mazmunicha, oshiq ma‘shuqaga quyidagicha murojaat qilyapti: *Sen yuz nozu ishva*

qilsang-da, meni tezda unutib, o'zingni bilmaganga olasan, javr-u jafu va sitam qilasan. Bu sitam qorako 'z yorning raqib – ag'yor bilan birga zavqu safo qilishida ko'rinadi.


Mazkur qo'lyozmaning 33^b-betidagi yana bir etti baytli g'azalning ikkinchi baytida ham “*raqib*” so'zi ters ko'rinishda oyog'i osmondan qilib yozilgan. Baytda lirik qahramon bir vaqtlar raqiblar so'ziga kirib do'st-yordan begona bo'lgan, ammo keyin u xatosini anglab, to'g'ri yo'l topgani uchun do'stini “xush keldingiz” deya qarshilamoqda. Bu hol *raqib*, *ag'yor* so'zlari Muhsiniyning faqat ishqiy g'azallaridagina emas, axloqiy-falsafiy mazmuni ifodalagan she'rlarida ham zid ko'rinishda yozilib, fikrning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilganidan darak beradi. Yuqorida izohlangan bayt:



Muddate begona erdingiz raqiblar so'zi-la,

Bo'ldingizmu emdi yor-u oshno, xush keldingiz.

Qo'lyozma devonning 41^a-betida to'qqiz baytli g'azal maqta'sidagi *raqib* so'zi ham ayni tarzda teskari yozilgan:




Hamisha topsa visolin raqib-u begona,

Bu Muhsiniy oni hajrig'a oshno maxsus.

Oshiq va ma'shuqa munosabatlarini buzish, ularning visolga yetishiga to'sqinlik qilish – raqib obrazining xarakterli xususiyati. Shu ma'noda, qachonki raqib yor visoliga erishish yo'lini topsa, oshiq hijron azobini tortishga mahkum. Shoirning mahorati shundaki, bu holatni u she'r mazmuni orqaligina ifoda etmay, yozuv shaklida ham tasvirlay olgan. Natijada shakl va mazmunning har jihatdan mutanosib bo'lishiga erishilib, baytning ta'sir kuchi oshgan.

Xuddi shunga o'xshash shakl qo'lyozmaning 44^a-betidagi g'azalda ham uchraydi. Misrada yor vasliga etishish yo'lida azob chekayotgan oshiqning dil

izhori bayon etilgan. Ma'shuqa oshiqqa emas, uning raqibiga noz-karashma qilmoqdaki, bu hol oshiq diliga ozor berayotir:



*Raqiblarg'a qilur noz ila karashmalarin,
Biza qolanda jafo birla muxtalif avzo'.*


Qo'lyozmaning 49^a-betida o'n bir baytli g'azal bo'lib, uning matni devonning nashr variantiga ham kirgan. Mazkur g'azalning uchinchi baytida ham "raqib" so'zi teskari ko'rinishda yozilgan. Oshiq ruhiy holatini tasvirlar ekan, shoir uning sevgisiga to'sqinlik qilayotgan raqib obraziga murosasiz munosabatini so'zning yozilish shaklida ham yorqin aks ettiradi. Ishqiy mavzuda yozilgan mazkur g'azal matla'si quyidagicha:

*Ey parirol, muncha ham oshiqni ko'p xor aylamoq,
Mehnati hijron ila jonig'a ozor aylamoq.*

Lirik qahramon pari yuzli ma'shuqasiga murojaat qilib, oshig'ini bunchalik xor aylamasligini, hijron azobi bilan joniga ozor atkazmasligini so'raydi. Ikkinchi baytda yorning tashqi ko'rinishi qanchalik go'zal bo'lmasin, e'tiborsiz ekani bois oshiqqa azob berishi tasviri beriladi:

*Chok-chok erdi ko'ngullar tiyri mijgoning ila,
Yona furqat o'tidin siynamni afgor aylamoq.*

Ushbu baytning dastlabki satrlarida oshiqning hijron azobiga yo'liqishi sababi bayon etiladi. Yor qiyo boqqani sababli oshiq qalbi sevgidan sarmast holatda. Go'yoki sevgilisining ko'zi – kamon, kipriklari – kamon o'qi, ko'zni ochib qarashi kamondan otilgan o'qdek oshiq ko'nglini ishq bilan pora-pora qilgan. Ayriliq olovi oshiq qalbini yondirib, uning ahvolini afgor qilgan. Uchinchi baytda ko'ngli siniq, shikasta oshiq qalbi bilan birga tasvirga butun hayotini qora qilgan raqib obrazi kelib qo'shiladi va bu so'z teskari shaklda bitiladi:



Yonadur sham'i jamolingkim raqiblar bazmida,

Tiyra aylab ro'zgorimni shabi tor aylamoq.


Sham odatda qorong'i uyni yoritadi, xonani nurafshon etadi. Ma'shuqa jamoli shunchalik chiroyliki, shamdek nur sochib *raqiblar* bazmini yorug' qilyapti. Ammo mahubasining bu qilayotgan ishi tufayli oshiqning holi yomonlashib, kunduzi ham zimiston tunga aylangan. Ya'ni hayoti mazmuni yo'qolib, g'am-alam tufayli kecha va kunduzning ahamiyati yo'qolgan. Ushbu baytda *raqib* so'zi tezkari yozilishi, shakliy qarama-qarshilikni yuzaga keltirish barobarida, ma'no va mazmun jihatdan oshiq hamda uning raqibi o'rtasidagi ziddiyatni yanada kuchaytirib ifodalashga xizmat qilgan.

Muhsiniy she'rlari orasida mazmuni va mavzu ko'lamiga ko'ra Muqimiy g'azallariga hamohang tarzda bitilganlari bir qanchadir. Muqimiy tanlangan asarlari tarkibida "Aylab keling" radifli ätti baytli ishqiy g'azal matla'si quyidagicha:

Kelsangiz kulbam aro ko'zni xumor aylab keling,

*Shum raqiblar ko'zidin, ey jonim, or aylab keling*⁸⁷.

Muhsiniy asarlari jamlangan qo'lyozma devonning 51^a-betida "Aylab keling" radifli to'qqiz baytli g'azal bor. G'azal matla'si quyidagicha:



Ey pariyo'yim, raqiblardin nihon aylab keling,


Diyda ag'yori benom-u nishon aylab keling.

⁸⁷Каримов Ф. Муқимий ижодий меросининг манбалари. Муқимий. Асарлар тўплами. Т.: Бадиий адабиёт, 1960, II том.– Б.83.

Yuqorida keltirilgan har ikkala g‘azal mavzusi, mazmun-mohiyati, obrazlar tizimi ifoda shakliga ko‘ra ham uyg‘undir. Ma‘lumki, Muqimiy zamonasining ilg‘or fikrlovchi, mahorat va iste‘dod borasida eng peshqadam shoirlaridan bo‘lgan. Zamondosh shoirlar uning ijodiga havas bilan qarashgan va g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan, mazmunan hamohang she‘rlar yozishga harakat qilgan. Muhsiniy ham Muqimiyga shogird darajasida bo‘lgan va g‘azallariga tatabbu‘lar bitgan. Muqimiyga bag‘ishlab maxsus “Qasidai Muqimiy” nomli qasida ham yozgan.

Yuqorida keltirilgan g‘azal baytlari ana shu ta‘sir natijasida bitilgan. Muhsiniy g‘azali mazmuni va radifi bilan Muqimiy she‘riga hamohanglik kasb etsa, baytidagi *raqib* so‘zining teskari shaklda yozilishi shakliy yangilikdir. Ushbu ohorli shakl orqali shoir ma‘shuqaning raqiblardan yashirin, bekinib, ularning ko‘ziga ko‘rinmasligi bilan bog‘liq istagini ifodalagan. Shoir oshiqning hijron azobini tortishiga sabab bo‘lgani uchun, *raqib* so‘zini ters ko‘rinishda bitadi.

Qo‘lyozmaning 81^b-betidagi to‘qqiz baytli ishqiy mavzudagi g‘azalning ikkinchi baytida ham *raqib* so‘zi teskari shaklda bitilgani kuzatiladi. Mana, o‘sha bayt:




Yo‘qmu hargiz komi vasling anisim ag‘yorsiz,

Ozg‘urur yo‘ldan raqib shum badkoring.

Asliyatdan ham ko‘rinib turibdiki, baytning ikkinchi misrasida vazn saktaligi kuzatilyapti. Baytdagi “badkoring” so‘zi kotib tomonidan noto‘g‘ri ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin. Bu so‘z muallif variantida “badkirdoring” bo‘lishi haqiqatga yaqindir. Agar shunday yozilsa, vazn saktaligi bartaraf etiladi. Baytda lirik qahramonning maqsadi yor vasliga atishmoq ekani aks etgan. Ammo hech qachon ag‘yor sitamlariga yo‘liqmasdan visolga erishish mumkin emasligini baytda o‘ziga xos ifodalangan. Qiladigan ishi yomonlik bo‘lgan raqibning maqsadi esa ma‘shuqani yo‘ldan ozdirishdir.

Yuqorida keltirilgan qo‘lyozmaning 81^a-betida ätti baytli ishqiy g‘azalning to‘rtinchi baytida ham *raqib* so‘zi teskari ko‘rinishda yozilgan. Mazkur baytda ham oshiq va uning raqibi bilan bog‘liq holat tasvirlangan. Oshiq ma’shuqa vasliga agarda raqibsiz erishishga muyassar bo‘lsa, ko‘ngilda armon dog‘i qolmasligini bayon etadi:



Xo‘bro‘ vasli agar o‘lsa muyassar beraqib,

Qolmag‘ay erdi ko‘ngilda dog‘i armonim.

Devondagi g‘azallar mazmunidan anglashiladiki, Muhsiniy aniq maqsadni ko‘zlab *raqib*, *ag‘yor* so‘zlarini teskari shaklda yozgan. *Oshiq*, *ma’shuqa*, *raqib* obrazlari mumtoz shoirlarimiz g‘azallarida an’anaviy uchlikni tashkil etishi ma’lum. Ammo salbiy ma’noni anglatuvchi *raqib*, *ag‘yor* obrazlari oshiqning ezgulik, sevgi, muhabbat, vafo, sadoqat, tuyg‘ularini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilishi ham ayni haqiqat. Ushbu obrazlarni anglatuvchi so‘zni teskari shaklda bitish, xattot mahoratining o‘ziga xos qirrasini ko‘rsatishi jihatidan ahamiyatlidir. Shoir qaysidir ma’noda mazkur so‘zlarni teskari shaklda yozish asnosida *raqib*, *ag‘yorning* qiladigan ish to‘g‘ri emas, shu bois bu so‘z ters bitilishi kerak, degan fikrni uqtirmoqchi bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillardan anglashiladiki, Muhsiniy she’riyatda mumtoz adabiyotimizning an’anaviy mavzu-mohiyatini, obrazlar tizimini davom ettirish barobarida so‘zlarning yozilish shaklida ham yangilikka intilgan shoir va xattotdir.

Shoir asarlari qo‘lyozmalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri ularda Qur’oni karim oyatlari va hadislardan iqtiboslar, bundan tashqari, arabiy va forsiy kiritmalar birikmalar ko‘plab uchrashidir. Muhsiniy devoni qo‘lyozmasida oyat va hadislar matni quyidagicha berilgani kuzatiladi:

1. Qur’on oyatidan yoki hadisi sharifdan bir tayanch so‘z yoki jumla aynan keltiriladi.

Rahmat ummidin orzu har banda aylar justujo‘,

*Farmon erur “lo taqnatu” omurzishi jurmu xato*⁸⁸.

Shoirning hamd g‘azalidan olingan ushbu baytda “La taqnatu min rahmatillah” (“Zumar” surasi, 53-oyat), ya’ni “Allohning rahmatidan noumid bo‘lmang”⁸⁹ mazmunidagi Qur’oni karim oyatidan iqtibos olingan. Oyatning bir juz’i bayt ma’nosining teran ifodasini ta’minlagan. Bu, o‘z navbatida, iqtibos san’atining go‘zal namunasi.

Shoirning hamd, munojot va na’t ruhidagi g‘azallarida aksar Qur’on oyatlaridan iqtibos oladi. Quyidagi baytlar mazmuni ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Qilma sharmanda, Iloho, meni ro‘zi arosat,

Jurmu isyonlarimi o‘rnig‘a yozg‘il hasanot.

Bandai ojizu bechoralaring aylar umid,

*“Hasbiy ne‘mal vakil innaka qoziyul hojot”*⁹⁰.

Dastlabki misrada lirik qahramon Yaratganga iltijo qilib, mahshar kuni arosatda sharmanda qilmasligini so‘rayapti. Duo mazmunidagi ikkinchi misrada lirik qahramon gunohlari o‘rniga Allohdan hasanot, ya’ni savob hamda yaxshiliklar yozishini tilamoqda. Keyingi baytda ojiz, bechora bandalar umidvor ekani aytilar ekan, dalil sifatida Qur’oni karim oyatiga tayanilmoqda: “Hasbiy ne‘mal vakil innaka qoziyul hojot” (“Oli Imron surasi, 173-oyat). Qur’oni karim o‘zbekcha izohli tarjimasida: (Bizga Yolg‘iz Ollohning O‘zi kifoya. U Zot eng yaxshi ishonchli Vakildir)”⁹¹ deya tarjima qilingan. Baytda Allohga tavakkul mazmuni ifodalangan.

Ilm insonni ulug‘ va sharaflil qilishini Muhsiniy oyatning bir juz’idan iqtibos olish usulida ta’sirli talqin etgan. Mana, o‘sha bayt:

Xalifa o‘ldi biza bulbashar Safiy Odam,

*Muallimi malak aylab va ‘allamal asmo*⁹².

“Va ‘allamal asmo” (Baqara surasi 31-oyat) oyati karimasi Qur’oni karim ma’nolarining o‘zbekcha izohli tarjimasida: “Va U Zot Odamga barcha

⁸⁸ Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.11.

⁸⁹ Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур. – Тошкент. 2004. – Б.251.

⁹⁰ Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.18.

⁹¹ Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур. – Тошкент. 2004. – Б.103.

⁹² ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма -Б.11-^а.

narsalarning ismlarini o‘rgatdi”, deya tarjima qilingan. Tarjimaga asosan baytdan quyidagi mazmun anglashiladi: insoniyatning otasi bo‘lgan Odam Safiy Yaratganning xalifasi maqomidadir. Alloh taolo unga barcha narsalarning ismlarini o‘rgatish orqali farishtalarga muallim qildi. Ushbu bayt insonning Tangri taolo huzuridagi maqomi haqidagi qur‘oniy haqiqat go‘zal badiiy talqin etilgani bilan alohida ahamiyatga ega. Shoirning insonlarni Odam atodan meros ilmni o‘rganishga targ‘ib qilishi sababi shunda.

*Yo ‘lig‘a Muhsiniy tavfiqin hamroh aylag‘il, yo Rab,
Bahaqqi sayyidi kavnayn vasfi **Yosinu Toho**⁹³.*

Ushbu baytdagi “Yosin” shu nomli suraning dastlabki oyatlari “Yo, Sin. (Ey Muhammad alayhissalom, ushbu) hikmatli Qur‘onga qasamki, hech shakshuhbasiz, Siz To‘g‘ri Yo‘l (ya‘ni, Haq Din) ustidagi payg‘ambarlardandirsiz”⁹⁴ ma‘nosini o‘zida mujassam etgan. “Toho” esa shu nomli oyatning 1,2,3-oyatlari mazmuniga ishora qilgan. Oyati karima Qur‘oni karim o‘zbekcha izohli tarjimasida: “To, Ha. (Ey Muhammad alayhissalom), Biz sizga bu Qur‘onni qiynalib jaf o chekishingiz uchun emas, balki (Olohdan) qo‘rqadigan kishilarga pand-nasihat bo‘lsin uchun nozil qildik”⁹⁵.

“Sayyidi kavnayn” – ikki olamning sayyidi ma‘nosini anglatadi. Shundan kelib chiqilsa, bayt mazmuni quyidagicha ekani ayon bo‘ladi: “Vasfida “Yosin”, “Toho” suralari nozil bo‘lgan, ikki olam sayyidi sanalgan Muhammad alayhissalom haqqi Muhsiniyning uning yo‘liga tavfiq ila hamroh qilgin”.

Yana bir na‘t-g‘azalda Rasulullohning “Ana afsah”, ya‘ni “Men Arabu Ajamda chiroyli so‘zlovchiman”, degan ma‘nodagi so‘zlari mohiyatan Qur‘oni karim oyati ramzida ifodalangani, shu bois har bir inson ul zotning so‘zlarini qulog‘iga halqadek taqib olsa, ya‘ni ularga so‘zsiz amal qilsa, durru gavhardan ham laziz ne‘matga – ikki olam saodatiga erishishi mumkinligi haqida so‘z yuritilgan. Mana, o‘sha bayt:

Durri guftoring “Ana afsah”ki, oyat ramzida,

⁹³ Ўша манба. – Б.10-а.

⁹⁴Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур. – Тошкент. 2004. – Б.489.

⁹⁵ Ўша манба. – Б. 348.

*Halqa bargo 'sh aylagach chun durri gavhardin laziz*⁹⁶.

Muhsiniy tarje'bandlaridan birida hadisi sharifdan iqtibos olish orqali zamon ahlini ilm olishga undab, shunday satrlarni bitadi:

*Sa'y aylang bizni o'qutmak uchun,
O'tmasun behuda bu shomu sabo,
"Utlub ul ilma valav bis Sin" dedi,
Ul Muhammad peshvoyi anbiyo*⁹⁷.

"Utlub ul ilma valav bis Sin" misrasi "Ilm Xitoyda bo'lsa ham borib o'rganinglar (talab qilinglar)" degan mazmunidagi hadisdan iqtibosdir. Lirik qahramon yoshlar tilidan so'zlab, bizni o'qitishga shunday harakat qilingki, shom-u tonglar behuda o'tmasin, tarzidagi fikrni ifodalaydi.

2. Muhsiniy she'rlarida oyat yoki hadisning mazmuni badiiy talqin etiladi.

Diniy-ma'rifiy mohiyatni ifodalashning bu turiga doir misollar shoir ijodida ko'plab uchraydi. Quyidagi baytda, jumladan, inson hayotining mazmuni haqidagi teran fikrning mana bunday ifodasi kuzatiladi:

*Yaxshilar qavli bo'lg'ay: Dahr kun-kundin batar,
Demagilkim bu zamon behbudlig' -la tuz o'lur*⁹⁸.

"Dahr kun-kundin batar" birikmasi hadis matnining tarjimasidir. Bu hol zinhor norozilik izhori emas. Balki olam va odamning ravishi tobora o'zgarib, evrilib borishi, inson bu qonuniyatdan xulosa chiqarib yashashi zarurligi haqidagi xulosalarini ifodalaydi.

Darhaqiqat, Muhsiniy she'rlari hikmat bilan yo'g'rilgan. Adabiyotshunos Ergash Ochilov "Hikmatlar xazinasi" kitobiga musulmon Sharqining buyuk ijodkorlari asarlaridagi purma'no hikmat va she'rlarini jamlagan. Ushbu kitobda Muhsiniy she'ralaridan ham namuna kiritilgan. Jumladan, shoirning mazkur kitobdan o'rin olgan mana bu misralari hikmat sifatida qimmatlidir:

*Bu jahon foniy erur ham besabot,
Ilmu irfondur hayoti jovidon*⁹⁹.

⁹⁶ Muhsiniy. Barxa'et gulshan. – Farfona, 2008. – B.25.

⁹⁷ Usha manba. – B.129.

⁹⁸ Muhsiniy. Barxa'et gulshan. – Farfona, 2008. – B.31.

3. She'rlarda arabcha maqol va iboralarning qo'llanilishi. Mumtoz shoirlarimiz ijodida arabcha, forscha so'z va iboralar qo'llanilishi odatiy hol hisoblangan. Biroq Muhsiniy she'riyatida arabcha so'z va maqollar o'rinli, ma'nosi chuqur anglangan holda qo'llanadi. Quyidagi bayt ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Yo man taqaddas zotih an xittat il-afkorino,
Aydi Muhammad hamdinga ajz ila louhsi sano¹⁰⁰.*

Hamd g'azal matla'sida quyidagi ma'no ifodalanadi: "Yo man taqaddas zotih an xittat il-afkorino" misrasi arabcha bo'lib, "Ey, zotining muqaddasligi fikrlar chegarasiga sig'maydigan (Olloh), Muhammad alayhissalom ojizlik bilan senga ko'p hamdu sano aytdi".

"Sho'x" radifli g'azalda ham arabcha jumla bayt ma'nosini kuchaytirish va mazmunga ziynat berish maqsadida keltiriladi. Oshiq hajr azobidagi holatini arab tilidagi "Ta'olo, yo Habibi, ilo bayt il-ahzan", ya'ni "Mening g'amxonamga xush kelgin, ey do'stim" tarzidagi satrni keltiradi. Ikkinchi satrda esa U zotning har qadamiga jonini fido etishini ta'kidlaydi:

*"Ta'olo, yo Habibi, ilo bayt il-ahzon",
Qudumingg'a o'lsun bu jonim fido sho'x¹⁰¹.*

Yana bir g'azalida sirni shoir birovga aytsa, u tezda fosh bo'lib ketishini arabcha hikmatning bir juz'i – "jovazal isnayn" (ikki kishi bilgan sir sirligicha qolmaydi) birikmasi orqali ifodalaydi:

*Ayladi olam fasonam istimo',
Kullu sirrin jovazal- isnayni sho'¹⁰².*

Muhsiniy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadism sharifdan so'z, birikmalar keltirish barobarida o'zining diniy qarashlarini asosli tarzda ifodalaydi. Shuningdek, arabcha maqol va iboralardan ham unumli foydalangan holda she'rlarining teran ma'no anglatishiga erishadi. Bu hol shoirning islom dini tarixi va Qur'on, hadis hamda arab tilining nozik jihatlarini ham teran anglangani bildiradi.

⁹⁹ Ochilov E. "Hikmatlar hazinasi" – T.: O'zbekiston. NMIU, 2010. – B. 230.

¹⁰⁰ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.11.

¹⁰¹ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.23.

¹⁰² ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.43-а.

Yuqoridagi tahlillardan anglashiladiki, Muhsiniy she'riyatda mumtoz adabiyotimizning an'naviy mavzu-mohiyatini, obrazlar tizimini davom ettirish barobarida so'zlarning yozilish shaklida ham yangilikka intilgan shoir va xattotdir.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar:

1. Muhsiniy she'riyatining mavzu ko'lami keng va hayotiy-falsafiy mohiyati terandir. Shoir lirik asarlarini mavzu jihatdan shartli ravishda: muhabbat, diniy-tasavvufiy, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy lirika hamda axloqiy-falsafiy she'rlarga bo'lib o'rganish mumkin. Ulardan eng ko'pini mumtoz nazmiy an'anaga muvofiq ravishda muhabbat mavzusidagi she'rlar tashkil etadi. Shuningdek, shoir she'riyatida diniy-tasavvufiy mavzu ham keng darajada ifodalangan.

2. Shoirning g'azal matniga ohorli yondashuvi ayrim so'zlar va so'z shakllarini teskari ko'rinishda yozishi bilan belgilanadi. Baytni ko'chirar ekan, Muhsiniy hamma so'zlarni emas, *raqib, ag'yor* kabi so'zlarni teskari yozish orqali, birinchidan, uning salbiy ma'nosini alohida ta'kidlagan bo'lsa, ikkinchidan, ayni so'z vositasida baytdagi asosiy obrazga urg'u berilgan hamda uchinchidan, bu orqali poetik obrazga muallifning hissiy-emotsional munosabati yorqin aks etishiga erishilgan. Bunday individual yondashuv baytning badiiyati yuksak bo'lishini ta'minlagan.

3. Shoir asarlari qo'lyozmalarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ularda Qur'oni karim oyatlari va hadislardan iqtiboslar keltirilishidir. Ushbu mo'tabar manbalardan iqtiboslar olinishi, birinchidan, Muhsiniyning Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarni teran bilishidan darak bersa, ikkinchidan, she'rlar matnining ta'sir kuchi hamda badiiyatini oshirgan.

4. Muhsiniy she'rlari matnida, bundan tashqari, arabiy va forsiy birikmalardan faol foydalanilgani kuzatiladi. Qo'llanish ko'lami jahatidan ular orasida arabcha so'zlar yetakchilik qiladi. Bu hol shoir asarlari asosan xoslarga mo'ljallangani hamda she'rlari matnini oddiy o'quvchi tushunishi qiyinroq ekanidan dalolat beradi.

III BOB. MUHSINIY SHE'RLARIDA MATN TARIXI VA TAHRIRI

MASALASI

3.1. Shoir asarlarida matn tarixi

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari manbalarini o'rganishda matnshunoslikning nazariy qismi bo'lgan matn tarixi va matn tahriri masalalari alohida o'rin tutadi. Dastlab matn tarixi masalasiga to'xtalib o'tsak. D.S.Lixachev fikricha: "*Matn tarixi* tushunchasi muayyan asar matnining barcha masalalarini qamrab oladi. Asarga aloqador hamma masalalarni faqat to'liq (yoki imkon darajasida to'liq) o'rganishgina bizga asar matni tarixini tom ma'noda kashf etish imkonini beradi"¹⁰³. Matnshunos Nurboy Jabborov ushbu fikrni davom ettirib, matn tarixi matnga doir aynan qaysi xususiyatlarni qamrab olishi masalasiga oydinlik kiritadi: "Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, matn tarixi qo'lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo'lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq jihatlari tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi"¹⁰⁴.

Tabiiyki, bunday yondashuv badiiy asar matni bilan bog'liq barcha masalalarni qamrovli tadqiq qilish imkonini beradi. Professor Shuhrat Sirojiddinov matn tarixi tahliliga doir tadqiqot jarayonini tadrijiy asosda tadqiq qiladi. Olim bu boradagi qarashlarini quyidagicha ifoda etadi: "Matn tarixini o'rganish qo'lyozma asarning mavjud nusxalarini qiyoslashdan boshlanadi. Matnlar *to'liq, nuqsonli, tuzatilgan* (redaksiyaga uchragan) yoki *tugatilmagan* ko'rinishlarda uchraydi. Qo'lyozma nusxalarda uning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanadi"¹⁰⁵. Ushbu jihatlar matn tarixini o'rganishning asosan zohiriy jihatlarni aks ettiradi. Matn tarixi, modomiki badiiy matnga doir barcha masalalarni qamrab olar ekan, u matn mohiyatiga bog'liq

¹⁰³ Лихачев Д.С. При участии А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург, Изд-во "Алетейя", 2001, стр. 33.

¹⁰⁴ Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танкиди, илмий-танкидий матн истилоҳларининг ўрни. / Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2019. – Б.12.

¹⁰⁵ Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б.18.

xususiyatlarni ham tadqiq qilishni nazarda tutadi. Bu jihatdan, rus matnshunosi B.V.Tomashevskiyning mana bu fikrlari e'tiborga molikdir: "Matn tarixi (bu tushuncha anglatgan keng ma'noga ko'ra) adabiyot tarixi tadqiqotchisiga adabiy yodgorlikka oid zohiriy ma'lumotlarni emas, muallif laboratoriyasining botiniy jihatlarini kashf etish imkonini beradi"¹⁰⁶. Boshqa o'tmish ijodkorlar asarlari singari Husaynquli Muhsiniy adabiy merosining matn tarixini tadqiq qilganda ham ayni xususiyatlar e'tiborga olinishi zarur.

Ma'lumki, o'zbek matnshunosligi asosan amaliy ko'rinishda rivojlanib keldi. Bu borada Porso Shamsiyev, Hamid Sulaymon, G'ulom Karimov, Shuhrat Sirojiddinov, Nusratullo Jumaxo'ja, Nurboy Jabborov, Rashid Zohid, Nafas Shodmonov, Qo'ldosh Pardayev singari olimlarning xizmatlarini alohida e'tirof etish zarur¹⁰⁷. Keyingi yillarda nazariy matnshunoslik takomiliga ham e'tibor qaratilib kelmoqda. Ayni haqiqatni matnshunos Nafas Shodmonov quyidagicha tahlil etadi: "Matnshunoslik ikki ustuvor yo'nalishda rivojlanadi: ularning biri matnni qanday o'rganish kerakligi va ikkinchisi matnni qanday nashrga tayyorlash muammolaridir. Ularning birinchisi ko'proq nazariy, ikkinchisi amaliy xarakterga ega. Bu yo'nalishlar bir-birisiz rivojlanmasa-da, ulardan qay birini avvalgi o'ringa chiqarish masalasida turlicha qarashlar mavjud. Rus matnshunoslaridan A.A.Shaxmatov avval matnni nashr qilish, keyin ilmiy o'rganishni tavsiya qilsa,

¹⁰⁶ Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М., 1959, стр. 148.

¹⁰⁷ Шамсиев П. Алишер Навоий «Сабъаи сайёр» достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари хақида: Фил.ф.н... дис. - Т., 1952; Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари: Фил.ф.д...дис. - Т., 1970; Сулаймон Ҳ. «Хазойин ул-маоний» текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. /Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. – Т.: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1959, – Б.5-28; Каримов Ғ. Ўзбек классик адабиётининг баъзи назарий масалалари. /Ғулом Каримов – маърифат фидойиси. – Т.: Мумтоз сўз, 2009. – Б.56-63; Сирожиiddинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирралари. – Т.: Akademnashr, 2015.- Б. 7-9; Матншунослик сабоқлари. – Т.: Navoiy universiteti, 2019. – Б.18; Жумахўжа Н. Нуқсонсиз нашр орзуси. //Хуқуқ ва бурч, 2019, – №2. – Б.30-35. Навоийшунослик: муаммолар қачон бартараф этилади. //Шарқ юлдузи, 2021 йил, 4-сон. – Б.66-72; Жабборов Н. Бадий матн таҳрирининг хос хусусиятлари /«Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари» мавзудаги илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2014.- Б. 28-32; Ўзбек матншунослигининг долзарб муаммолари /«Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгиланиш тамойиллари» мавзудаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, Adabiyot uchqunlari, 2016.- Б. 99-105; Матншуносликнинг айрим назарий масалалари / «Ўзбек матншунослигининг назарий ва амалий муаммолари» мавзудаги Республика илмий анжумани материаллари. – Қарши, Насаф, 2019. - Б. 3.7; Зоҳидов Р. «Саботул ожизин». (Манбалар, шарҳлар, илмий-танқидий матн). – Т.: Turon zamin ziyo, 2015.- Б. 184-185; Шодмонов Н. «Шоҳид ул-иқбол» – адабий манба. – Т.: Muharrir, 2009; Пардаев Қ. Муқимий асарларининг матн тарихи, таҳрири ва талқини: фил. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2020.

D.S.Lixachev bunga qarshi, asarni o‘rganmasdan nashr qilish imkonsiz ish ekanligini ta’kidlaydi. Matnshunoslikning ilmiy-nazariy yo‘nalishi matn tarixini tadqiq etishdan iborat”¹⁰⁸.

Darhaqiqat, A.A.Shaxmatov va D.Lixachevning ayrim qarashlari bahstlab. Aslida, badiiy matn tarixi chuqurroq yondashuvni taqozo etadi. Matn tarixi asarning muallif tafakkurida tug‘ilgan vaqtidan qo‘lyozmasigacha, undan nashr variantlarigacha matnning barcha jarayonlardagi holatini o‘rganadi. Matnshunos Rashid Zohidov fikricha: “Muayyan asar tabdili matn tarixining davomidir. Matn tarixining zamonlararo o‘zgarish darajasi qanchalik aniqlashsa, tabdil variantining aslga muvofiqlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Demak, mumtoz adabiy merosimiz namunalarining joriy imloga tabdilini tanqidiy o‘rganish matnshunoslikning fundamental masalasidir”¹⁰⁹.

Muayyan ijodkor asarlarini to‘liq yoki imkon darajasida to‘liq o‘rganish uchun matn tarixi masalasini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Muhsiniy she’riyatini ushbu ilmiy muammo kesimida o‘rganish muhim ekani shundan ham ma’lum bo‘ladi. Matnshunos Qo‘ldosh Pardayev Muqimiy asarlari matn tarixini quyidagi omillar asosida tadqiq qilgan:

“a) asar yozilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni;

b) manbalarda (devon, bayoz, tazkira va h.k) ijodkor asarlarining kitobat tarixi;

v) joriy nashrlarda ijodkor asarlar matni masalasi;

g) ijodkor asarlari ilmiy talqinlarining matn tarixi bilan bog‘liqligi”¹¹⁰.

Muhsiniyning Muqimiy bilan bir davr va adabiy muhit vakillari ekani, asarlarini o‘rganishda o‘zaro muvofiq keluvchi mezonlar asosida yondashish mumkinligi e’tiborga olinsa, shoir asarlarining matn tarixi tadqiqini avvalgi uch omil asosida amalga oshirilishi zarurligi ayon bo‘ladi.

¹⁰⁸ Шодмонов Н. “Шоҳид ул-иқбол” – адабий манба (монография). – Т.: Фан, 2009.– Б.34.

¹⁰⁹ Зоҳидов Р. “Саботул ожизин”. (Манбалар, шарҳлар, илмий-танқидий матн).– Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. – Б. 167.

¹¹⁰ Пардаев Қ. Муқимий шеърятини: матн тарихи, таҳрири ва талқини. – Т.:Muharrir, 2019. – Б.80.

1. *Asar yozilishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni.* Muhsiniy lirik she'rlarini yozish, devonlarini qayta ko'chirish jarayonida ularning yuksak badiiyatini ta'minlashga alohida diqqat qaratgan.

Muhsiniy ijodiga bir qancha shoirlar ta'sir qilgan. Shoir 7392 inventar raqamli devon debochasida Alisher Navoiy va Hofizga yuqori baho berib eslaydi. Shuning barobarida Muhsiniy “Kelmadi”, “O'ldirgusi” va “Zihi, g'ubori qudumingdin Odami xokiy” misralari bilan boshlanuvchi g'azallariga bevosita Navoiy she'riyati ta'sirida tatabbu' shaklida yaratilgan.

4131 inventar raqamli qo'lyozma bayozda ham Navoiyning “Yordin ayri ko'ngil mulkdurur sultoni yo'q, mulkkim sultoni yo'q jismidurkim joni yo'q”, baytlari bilan boshlanuvchi g'azalini kiritgan. Bu hol Muhsiniy Navoiy ijodiga har tomonlama havas bilan qaraganini anglatadi.

Qo'qon adabiy muhiti o'ziga xos xususiyatlarga va taraqqiyot tamoyillariga ega ekani ma'lum. Amiriy, Nodira, Muhyi, Muhayyir, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi ushbu adabiy muhitning salohiyatli namoyondalari sermazmun va betakror lirik asarlari bilan milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Davr adabiy harakatiga o'zining betakror ijod namunalari bilan ta'sir etgan ana shunday ijodkorlardan biri – Husaynquli Sulaymonquli o'g'li Muhsiniy (1860-1917) mashhur shoir va mohir xattot sifatida o'zidan boy adabiy meros qoldirdi. Shoir lirik asarlari, ayrim ilmiy ishlarni istisno etganda, matnshunoslik nuqtai nazaridan to'liq tadqiq etilgani yo'q. Ijodkorning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni munosib baholangan emas. Bu esa, o'z navbatida, shoir devonining qo'lyozma manbalari ustida tizimli tadqiqot ishlari olib borish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Shoir asarlari matn tarixini o'rganish ushbu ilmiy muammo ochimiga xizmat qilishi jihatidan ahamiyatlidir.

Matnshunoslikning asosiy ilmiy muammolaridan hisoblangan matn tarixini o'rganmay turib, ijodkor asarlarining mukammal nashrini amalga oshirib bo'lmaydi. “Matn tarixi tushunchasi muayyan asar matnining barcha masalalarini

qamrab olishi”¹¹¹ e’tiborga olinsa, bu muammoni o’rganish nechog’liq zarur ekani yanada oydinlashadi. O’zbek matnshunosligida ham bu masalaga alohida diqqat qaratilgan. Matnshunos Nurboy Jabborov fikricha: “...matn tarixi qo’lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko’chirgan kotibning dunyoqarashi va g’oyasini o’rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro’yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo’lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o’zaro bog’liq jihatlari tadqiqigacha bo’lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi”¹¹². Ushbu nazariy fikrni Muhsiniy ijodini o’rganishga tatbiq etish uchun shoirning “Gulshani jovid” nomli she’rlar devonining O’zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 7392 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxasi hamda uning 2008-yili Qo’qon adabiyot muzeyi xodimi Usmonjon Ne’matov tomonidan “Barhayot gulshan” nomi bilan chop ettirilgan nashr nusxasini qiyosiy o’rganish zarurati tug’iladi.

Ta’kidlash kerakki, ushbu nashr zahmatkash olimning uzoq yillik mehnatlari mahsulidir. Matnshunos Abdullatif Turdialiyev devon nashriga yozgan “Adabiy merosimizdan yana bir sahifa” sarlavhali so’zboshida Muhsiniy devoni haqida tahliliy fikrlarini bildirgan. Usmonjon Ne’matov nashrga yozgan kirish maqolasida Muhsiniy hayoti va ijodi, devonlari, tarjima asarlari hamda shoirning xattotlik mahoratiga doir qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. Ular shoir hayot yo’li va uning adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitishi bilan qimmatlidir. “Barhayot gulshan”dagi lirik asarlar qo’lyozma dastxat devondagi kabi asliyat tartibida nashr qilinishi shoir uslubi saqlanganini ko’rsatadi. Ushbu nashr Husaynquli Muhsiniy she’riyatini ilm-fan ahli hamda keng kitobxonlar ommasiga ma’lum qildi, shoir adabiy merosini tadqiq qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Muhsiniy devonining Sharqshunoslik institutidagi qo’lyozma manbalarini

¹¹¹ Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург, Изд-во “Алетейя”, 2001, стр. 33.

¹¹² Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танкиди, илмий-танкидий матн истилохларининг ўрни. / Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Mumtoz so’z, 2019. – Б.35.

o‘rganish natijasida shoirning yātmishdan ortiq g‘azallari devon nashriga kirmay qolgani aniqlandi. Jumladan, fondagi 7392 inventar raqamli qo‘lyozmada Muhsiniyning o‘zbek va fors-tojik tilida yozilgan 239 ta g‘azali mavjud. G‘azallarning 211 tasi o‘zbek va 28 tasi fors-tojik tilida. “Barhayot gulshan” nashriga esa shoirning 136 ta o‘zbekcha g‘azal kiritilgan. Ma’lum bo‘ladiki, 75 ta g‘azal nashrga kiritilmagan. Qo‘lyozmadagi she’rlar tartibi nashrda ham saqlangan. Usmonjon Ne’matov devonga yozgan kirish maqolada 7392 inventar raqamli qo‘lyozmada 7378 misra she’r borligini qayd qilgan. Kuzatishlar natijasida devonda noshir aytganidan ko‘proq, ya’ni 7426 misra she’r mavjudligi aniqlandi.

Shoir ijodini ommalashtirish yo‘lidagi dastlabki muhim ish sifatida ushbu nashrning qimmatini baland ekanini ta’kidlagan holda, asliyat bilan qiyoslaganda, ayrim she’rlar matnida tafovutlar borligini ham qayd etish lozim. Ba’zi she’rlar tarkibidagi so‘zlar xato o‘qilgani, ayrim g‘azallarning baytlari tushirib qoldirilgani kuzatiladi. Professor Shuhrat Sirojiddinovning “Matn tarixini o‘rganish qo‘lyozma asarning mavjud nusxalarini qiyoslashdan boshlanadi. Matnlar to‘liq, nuqsonli, tuzatilgan (redaksiyaga uchragan) yoki tugatilmagan ko‘rinishlarda uchraydi. Qo‘lyozma nusxalarda uning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanadi”¹¹³, degan fikrlari nuqtai nazaridan baho berilsa, Muhsiniy devoni nashridagi aksar lirik asarlari nuqsonli matnlar sirasiga kirishini ta’kidlash kerak. Bu matniy nuqsonlarni shoir she’rlarining asliyat nusxasi va joriy imlodagi nashr variantini qiyoslash orqaligina tuzatish mumkin. Matn tarixini asliyat va tabdil nusxalarni qiyoslash asnosida o‘rganish natijalari ular o‘rtasida farqlar ko‘p ekanini ko‘rsatdi. Bunday matn tafovutlarini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- harf va qo‘shimchalarning yozilishidagi tafovutlar;
- so‘zlarning o‘qilishidagi farqlar;
- g‘azallardagi baytlarning tushirib qoldirilishi;
- she’r bandlarining qisqartirilishi.

1. Harf va qo‘shimchalarning yozilishidagi tafovutlar. Muhsiniy devoni

¹¹³ Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. – Б.18.

nashriga kiritilgan she'riy asarlarda qo'llangan so'zlar tarkibidagi kelishik, egalik va boshqa qo'shimchalar hozirgi o'zbek adabiy tiliga moslashtirib tabdil etilgan. Bu esa Muhsiniy davridagi klassik she'riyat tili va ohangining yo'qolishiga olib kelgan. Shu sababli so'zlar tarkibidagi qo'shimchalar asliyatdagi singari yozilishi maqsadga muvofiqdir. Quyidagi jadvalda mazkur farqlar qo'lyozma manbaga qiyoslangan holda ko'rsatildi:

Nashrda	7392 qo'lyozmada
hamdinga	hamdingg'a
hukmingdadurlar	hukmingg'adurlar
bo'ldi	o'ldi
ko'rguzdi	ko'rguzsa
bo'lg'ay	o'lg'ay
ettim	etdim
to'kkali	to'kg'ali
o'qig'a	o'qina
tortqon	tortg'ay
tutqoy	tutg'oy
etmoqlik	etmaklig'
erur	o'lur
mulkina	mulkida
istagay	istag'ay
behbudlikda	behbudlig'la
jahonda	jahondin
o'lg'aymu	bo'lg'aymu
bo'lmasdin	bo'lmayin
etmoqqa	etmakg'a
ruhingda	ruyingda
g'amlarga	g'amlarg'a
turg'ali	turmoqa
maqdamlari	maqdamlarini
to'madin	ta'madin
ramaqqa	ramaqq'a
ko'ngulga	ko'ngulg'a
g'amim	g'amin
ko'zga	ko'zg'a
so'zonlig'	so'zonliq
pushaymonlig'	pushaymonliq
boshida	boshimda
hasratingdin	hasratingla
meni	menga

bah	baq
-----	-----

Nashrda qo‘lyozmadagi o-a harflari, jarangli va jarangsiz undoshlar o‘rtasidagi d-t, q-g‘ harflari o‘zgartirib yozilgan. Bundan tashqari, ga-g‘a, kali-g‘ali, g‘a-na, qon-g‘ay, qoy-g‘oy, lik-lig‘, na-da, gay-g‘ay, lik-lig‘, qa-g‘a, g‘ali-moqa, im-ing, lig‘-liq kabi qo‘shimchalar ham farqli tarzda qo‘llangan. Ushbu tafovutlar so‘z ma‘nosining o‘zgarishi va o‘zgacha mazmun ifoda etishiga olib kelgan.

2. So‘zlarning o‘qilishidagi farqlar. Nashrdagi she‘rlar tarkibida keluvchi ayrim so‘zlar qo‘lyozma manbadan farqlanadi. So‘zlarning xato tabdil etilishi she‘r ma‘nosining o‘zgarishiga olib kelgan. Natijada ayrim baytlardagi fikrlar g‘aliz va tushunarsiz bo‘lib qolgan. Masalan, nashr nusxada “*O‘lmaq‘il*” radifli 11 baytli g‘azalning 4-5-baytlaridagi *o‘ldururkim so‘zi – sindururkim, tammo‘ so‘zi tammoyi* tarzida noto‘g‘ri tabdil qilingan. Bu hol bayt mazmuni o‘zgarib ketishiga sabab bo‘lgan. Jumladan, mazkur g‘azalning 4-bayti nashrda quyidagicha berilgan:

Zinda ko‘ngling sindururkim ag‘niyolar suhbatl,
Faqr eli birla yurib, boylar gadoyi o‘lmaq‘il¹¹⁴.

Qo‘lyozmada:

زنده كونكلو نك او لدورور كم اغنيا لار صحبتى
فقر ايلى برلان يوروب با ييلار كدايى اولمغل
Zinda ko‘nglung o‘ldururkim ag‘niyolar suhbatl,
Faqr eli birla yurib, boylar gadoyi o‘lmaq‘il¹¹⁵.

Nashr nusxada yo‘l qo‘yilgan xatolik bois “*zinda*” va “*o‘ldururkim*” so‘zlari hosil qilgan tazod yo‘qolib qolgan. Natijada nafaqat matn mazmuniga, balki g‘azal badiiyatiga ham putur atgan. Mazkur g‘azalning 5-bayti nashrda quyidagicha tabdil etilgan:

Har ne maqsudingni sen Olloh fazlidan tila,
Qadringni kam qilmag‘il, tamomoyi boyi o‘lmaq‘il¹¹⁶.

¹¹⁴ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.65.

¹¹⁵ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б. 55-6.

Qo‘lyozmada:

هر نه مقصودينكنى سن الله فضلدين تلا

قدرينكى كم قلماغل طماع باى اولمغل

Har ne maqsudingni sen Olloh fazlidan tila,

Qadringi kam qilmag‘il, tammo‘ boyi o‘lmag‘il¹¹⁷.

Bayt mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: Har qanday maqsadingni sen Olohhdan tila, qadringni kam qilib, ta‘ma qiluvchi boylardan bo‘lmagin. Nashr nusxada *qadringi* so‘zi *qadringni* tarzida “n” harfi orttirib yozilishi natijasida vazn saktaligi yuzaga kelgan. *Tammo‘* so‘zi *tamomoy* tarzida tabdil etilgani oqibatida baytdan anglashiladigan ma‘no mavhumlashgan. “Barhayot gulshan” devonida ishqiy mavzudagi 11 baytli g‘azal qo‘lyozmasining 5-baytidagi *so‘zing* kalimasi nashrda *labing* shaklida berilgan bo‘lsa, 10-baytida *xunobalar* so‘zi *devonalar* ko‘rinishini olgan. Nashrda:

To‘tiyi jonimni yoquti erur shakkar labing,

So‘zlag‘il, jonimg‘a rohat o‘ldi, ey, shirinmaqol¹¹⁸.

Qo‘lyozmada:

طوطى جانمنى ياقوتى ايروور شكر سوزنك

سوزلغىل جانمىغه راحت اولدى اى شرين مقال

To‘tiyi jonimni yoquti erur shakkar so‘zing,

So‘zlag‘il, jonimg‘a rohat o‘ldi, ey, shirinmaqol¹¹⁹.

Matndan anglashiladigan mantiq ham tahrir etilgan so‘zning qo‘lyozmadagi kabi *so‘zing* shaklida bo‘lishini taqozo etadi. Ikkinchi satrdagi *so‘zlag‘il* fe‘li ham o‘zidan oldin *so‘zing* kalimasi kelishini shart qilib qo‘yadi. Qo‘lyozmadagi shakl badiiy mantiqqa ham har jihatdan muvofiq ekanini ta‘kidlash kerak. Ushbu g‘azalning 10-baytida xato tabdil etilgan so‘z ma‘noga jiddiy putur yatkazgan. Nashrda ushbu bayt mana bu tarzda berilgan:

Bir guli ra‘no firoqi yig‘latur devonalar,

¹¹⁶ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б. 65.

¹¹⁷ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.55-^б.

¹¹⁸ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.65.

¹¹⁹ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.56-^а.

*Chehrai zardim uza har dam to 'kub men ashki ol*¹²⁰.

Qo'lyozmada yuqoridagi bayt quyidagi shaklda kitobat qilingan:

برکلی رعنا فراقی یغلالتور خونابه لار

چهره زردیم اوزه هر دم توکوب مین اشک ال

Bir guli ra 'no firoqi yig 'latur xunobalar,

*Chehrai zardim uza har dam to 'kub men ashki ol*¹²¹.

Bamisoli guli ra'nodek yordan ayriliq devonalarcha yig'latishi ham badiiy mantiqqa zid emas. Lekin "xunobalar" so'zi lirik qahramonning ashki ol to'kishi bilan ham mantiqiy bog'lanib, poetik mazmunning ta'sir kuchini bir necha baravar oshirib yuboradi. "Xunobalar"dagi "lar" qo'shimchasi "qon yig'lash" kechinmasining muttasil davom etishini ta'sirli ifodalashga xizmat qilgan. Ma'lum bo'ladiki, matndagi xatoning tuzatilishi she'r badiiyatining ham mukammal bo'lishini ta'minlaydi. "Barhayot gulshan"da 7 baytli muvashshah g'azal matla'si quyidagicha berilgan:

Yuzingni tal'ati ortiqchadur nuri qamardan ham,

*Seningdek bormukin olam aro jinsi bashardan ham*¹²².

Qo'lyozmada ushbu bayt quyidagicha kitobat etilgan:

یوزینکنی طلعتی آرتوقچه دور شمس قمر دنهم

سنینکدیک بارموکین عالم ارا جنس بشر دنهم

Yuzingni tal'ati ortiqchadur shamsu qamardan ham,

*Seningdek bormukin olam aro jinsi bashardan ham*¹²³.

Nashr nusxaning birinchi misrasidagi *nuri* so'zi qo'lyozmada *shamsu* tarzida yozilgan. Zohiran, *nuri qamar* birikmasi ham badiiy mantiqqa zid emas. Lekin asliyatdagi kabi *shamsu qamar* tarzida o'qilganda, obrazli tafakkur teranlashgani, badiiy talqin mohiyatan kuchaygani yaqqol seziladi. Shu jihatdan, asliyat matni tiklanishi shoir ijodiy niyati to'laqonli ifodalanishini ta'minlaydi. Muallifning so'z qo'llash, obraz yaratish mahorati mukammalroq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Muhsiniy she'rlari tarkibidagi ayrim so'zlar asliyatdan noto'g'ri tabdil

¹²⁰ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.66.

¹²¹ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.56^{-а}.

¹²² Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.67.

¹²³ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.56^б.

qilingan. Nashrga kiritilgan she'rlar tarkibida xato o'qilgan so'zlarning 7392 inventar raqamli qo'lyozmada yozilish shakli quyidagi jadvalda berildi:

Nashr nusxada	¹ 7392 qo'lyozmada
afsona	hangoma
jahon	zamon
turub	burun
baxtin	islom
nomi	komi
bemoringni	xumoringni
ko'ksumni	ko'nnglimi
tiyri	yuz
birla	uzra
o'tub	o'lub
injlil	ravshan
ikki	egma
erur	afruz
bir	har
anjaq	injiq
bu	bir
gulu	niholu
husru	harn
tushub	to'lub
uzra	ichra
ayb	ta'na
nigahbori	anga bori
qilma	etmay
ayla	ila
anga	ingan
bo'lg'ay	ungay
bo'ylar	tunlar
labing	so'zin
etsalar	aylasa
davroni	arbob
tobishidin	boshdin
bo'ston	guliston
uza	ar
jonlar	jonim
osub	solib
tanin	qastin
ahli	xalqi
ichra	birla

ko‘zum	ko‘zni
birla	uzra
dardi	so‘zi
kunduz	kunlar
sahfai	mus’haf

3. G‘azallardagi baytlarning tushirib qoldirilishi. Muhsiniy she’rlari jamlangan “Barhayot gulshan” devoni nashri bilan 7392 inventar raqamli qo‘lyozmani qiyosiy o‘rganish natijalari ba’zi g‘azallarning maqta’i va ayrim boshqa baytlari tushirib qoldirilganini ko‘rsatadi.

Masalan, “*Topmadim olamda holim bilguchi ahli ramuz, Shul sababdin kechalar orom yo‘q, bexob ko‘z*” matla’li g‘azal nashr nusxada 10 bayt shaklida berilgan. 7392 inventar raqamli qo‘lyozma devonda esa 11 bayt bo‘lib, 10-bayt nashrdan tushirib qoldirilgan. Mana, o‘sha bayt:

اصلزاده نسبتدين قالمدي فرغانه ده
 قالغانى قير غز قبقاق تاجيك منغييت يوز
Aslzoda nisbatidin qolmadi Farg‘onada,
Qolg‘oni qirg‘izu qipchoq, tojiku mang‘itu yuz¹²⁴.

Ushbu g‘azalda umrni behuda o‘tkazish, havoii nafsga qullik, shariatni zalilu poymol etish, jaholat va qabohat singari shaxsni kamolotdan, jamiyatni taraqqiydan to‘suvcchi nuqsonlar qattiq tanqid qilinadi. Bu hol, o‘z navbatida, yurtning mustamlaka girdobiga tushishiga sabab bo‘lgani g‘azalning quyidagi baytida ta’sirchan ifodalangan:

Ketmasa insof eldin, kelmag‘aydi yurtg‘a,
Rus qavmikim, sarig‘ ruxsorayu feruza ko‘z¹²⁵.

G‘azal janriga oid she’rlar matnida aksar hollarda shoirning lirik kechinmasi bilan bir vaqtda ijtimoiy voqelik ham badiiy talqin etiladi. Matnda o‘zgartirish va tahrirlar ba’zan ijodkorning o‘zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Matnshunos Nafas Shodmonovning yozishicha: “...matn muallifi harakatdagi voqelikni aks ettirar ekan, muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechiradi. Shu

¹²⁴ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.35^а-.
¹²⁵ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.36.

jarayonda u obyektiv va subyektiv sabablar ta'sirida matnning ayrim o'rinlariga munosabatini o'zgartirishi va ularga turli hajmlardagi tuzatishlar kiritishi mumkin. Bunday tuzatish va o'zgartirishlar matnning materiali, yaratilishi, shakllanishi, qurilishi va hokazo tarixiy, badiiy, g'oyaviy hamda uslubiy jihatlarini o'rganishga asos bo'ladi"¹²⁶.

Shuningdek, ijtimoiy mavzudagi 11 baytli g'azalning maqta'si nashrda aks etmagan. Ushbu g'azal maqta'i asliyatda quyidagicha berilgan:

محسنى كچه قرانغوسى ايورور حامله دار

توغا دور صبح سعا دت انكا اولمه مايوس

Muhsiniy kecha qorong'usi erur homilador,

*Tug'odur subhi saodat anga o'lma ma'yus*¹²⁷.

G'azal maqta'i shoir ijodiy niyatining xulosasi ifodalangani bilan alohida ajralib turadi. Maqta'ning tushirib qoldirilishi she'r matnining mantiqiy jihatdan yakunlanmay qolishiga sabab bo'lgan. Natijada shoirning g'oyaviy maqsadi, izhor etmoqchi bo'lgan fikri kitobxon nazaridan chetda qolgan. She'rda Vatan va xalq boshiga tushgan qora kunlardan shikoyat ohangi ustuvorlik qiladi. Shoir mustamlakachilik siyosatini kecha qorong'isiga o'xshatsa, subhi saodat – baxt tongini erk va ozodlikka qiyoslaydi. Ya'ni, zulm kechasi qorong'i bo'lsa ham u ozodlikka, hurlikka homilador. Ey Muhsiniy, shu bois sen g'amdan ma'yus bo'lma, yurtning ozodlikka erishish kunlari yaqindir – baytda ana shu mazmun betakror badiiy ifoda etilgan. Darhaqiqat, kecha qanchalik qorong'u bo'lmasin, undan keyin yorug' tong keladi. Tunning subhi saodatga homilador bo'lishi – o'zga biror shoirda uchramaydigan ohorli tashbeh! Ko'rinadiki, shoir boshqa ko'plab zamondoshlari singari millat, el-yurt dardi bilan yashagan, uning erk va ozodlikka erishmog'ini orzu qilgan.

Devon nashrida "Kog'oz" radifli g'azal 9 bayt tarzida keltirilgan. Ammo asliyat bilan qiyoslanganda, jami 11 baytdan tarkib topgani ayon bo'ldi. G'azalning 5-7-baytlari nashr nusxadan tushirib qoldirilgan. Jumladan, 5-bayt mazmuni quyidagicha:

¹²⁶ Подмонов Н. "Шоҳид ул-иқбол" – адабий манба. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б.22.

¹²⁷ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.36-⁶.

كلكى شمشير نى فتحیده ايرور هرکشور
آچیلوردستی ایله جمله بر آیا کاغذ
Kilki shamshirini fathida erur har kishvar,
*Ochilur dasti ila jumla bar, oyo kog 'az*¹²⁸.

Mazkur g'azalning 7-bayti ham nashr nusxadagi matnda mavjud emas.
Ushbu bayt qo'lyozmada quyidagi tarzda berilgan:

اول نهنگی کیم ایرور قارنیغه تارتار اشیا
آله قلاب نفس اچره قیلور جا کاغذ
Ul nahangikim erur qornig 'a tortar osiyo,
*Olihi qullobi nafs ichra qilur jo kog 'oz*¹²⁹.

Mazkur ikki baytning tushirib qoldirilishi natijasida g'azaldagi betakror obrazli tasvir xira tortgan. Tashbeh va istioraga asoslangan poetik mazmun mavhumlashgan. Muallifning ijodiy niyati to'liq ifodalanmay qolgan. Tabiiyki, ularning tiklanishi g'azal matni mukammal bo'lishiga, badiiy talqinning mantiqiy izchilligi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Rus matnshunosi B.V.Tomashevskiyning fikricha: "Matn tarixi (bu tushuncha anglatgan keng ma'noga ko'ra) adabiyot tarixi tadqiqotchisiga adabiy yodgorlikka oid zohiriy ma'lumotlarni emas, muallif laboratoriyasining botiniy jihatlarini kashf etish imkonini beradi"¹³⁰.

Ma'lum bo'ladiki, Muhsiniy lirik asarlarining matn tarixini o'rganish shoir ijod laboratoriyasi sirlarini anglashda muhim o'rin tutadi.

Ijodkorning "Qoshing mehrobi toqi sajdagohi jumla mu'mindur" satri bilan boshlanuvchi g'azali asliyatda 9 baytli bo'lgani holda, devonning nashr nusxasida 8 bayt tarzida berilgan. Qo'lyozma manbada g'azalning 7-bayti quyidagicha kitobat qilingan:

آمانتگاه مضمون رمزايرور صندوق سينمده
امين ايرماس کیم اول غار يت ایتسه حرق خاین دور
Omonatgohi mazmuni ramz erur sanduqi siynamda,

¹²⁸ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.26-^a.

¹²⁹ Юқоридаги манба –Б.26-^a.

¹³⁰ Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М., 1959, стр. 148.

*Amin ermaskim, ul oriyat etsa harfi xoindur*¹³¹.

Ushbu gʻazalda mumtoz sheʼriyat uchun xos boʻlgan irfoniy mazmun badiiy talqin etilgan. Tabiiyki, ushbu baytning tushirib qoldirilishi gʻazalning matniy yaxlitligiga putur âtkazgan. Shoir ijodiy niyatining anglanmay qolishiga sabab boʻlgan.

Asliyatda 11 baytdan tarkib topgan “*Soqiyo, may berki, tegdi koʻngluma hushyorligʻ*” misrasi bilan boshlanuvchi gʻazalning 5-bayti nashr nusxada mavjud emas. Gʻazal mohiyatini anglashda muhim boʻlgan ushbu bayt matni asliyatda quyidagicha ekani kuzatiladi:

توبه ايلابسیندورسین بولسه کلکشت بهار

یوقموناموسینگ سنی تاکیغچه بیعارلیغ

Tavba aylab sendursen boʻlsa gulgashti bahor,

*Yoʻqmu nomusing sani tokaygʻacha beorligʻ*¹³².

Asliyatda mavjud baytlarning nashr nusxadan tushirib qoldirilishi matnning nuqsonli holga kelishiga sabab boʻlgan. Matn tarixini toʻlaqonli anglash imkoniyatini cheklagan.

Nashr qilingan “Barhayot gulshan” devonining 51-52-betlarida 7 baytli gʻazal mavjud. Ushbu gʻazal 7392 inventar raqamli qoʻlyozmaning 47^b-sahifada 8 bayt shaklida bitilgan boʻlib, 7-bayti nashrda berilmagan:

ایستمز کونکلوم نشاط عیش عالم ذوقدین

ربنا زدنی غمومی نجنا مما تخف

Istamaz koʻnglim nishoti ayshi olam zavqidin,

*“Rabbano zidni gʻamumi najjino mimo taxof”*¹³³.

“Barhayot gulshan” devonida qoshlaring radifli 8 baytli gʻazal kelgan. Ushbu gʻazal 7392 inventar qoʻlyozmaning 50^a-sahifasida 9 bayt ekanligini aniqladik. Nashrdan tushib qoldirilgan 4-bayt quyidagicha:

باش قویام محراب ابرو طاقنه ایلاب سجود

ایلادی برباد دین زهد تقوی قاشلارینک

¹³¹ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.30-^a.

¹³² Ўша манба –Б.45-^a.

¹³³ Ўша манба –Б.47-^a.

*Bosh qo‘yam mehrobi abru toqina aylab sujud,
Ayladi barbod din-u zuhd-u taqvo qoshlaring*¹³⁴.

Tabdil devonda 64-betda 6-baytli g‘azal, 7392 inventar raqamli qo‘lyozma devonda 55^a-sahifada 7-bayt ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu g‘azalning 4-bayti joriy nashrdan tushirib qoldirilgan. Mana ushbu bayt:

قاچسە تا آلتى جەتغە جان قوشى ايلاب ھراس
ايلا كاي آخر اسير دام صياد اجل
*Qochsa to olti jihatg‘a jon qushi aylab haros,
Aylagay oxir asir domi sayyodi ajal*¹³⁵.

“Barhayot gulshan” nomli tabdil qilingan devonning 91-betida ham 8-baytli g‘azal, 7392 inventar raqamli qo‘lyozmaning 83^b-sahifada 9-bayt ekanligi ayon bo‘ldi. Joriy imlo nashridan tushib qoldirilgan 7-bayt quyidagicha:

ايسيز افسوس قدريم بيلمدي احباب يارانيم
قيلورلار سۇرمە كوزغە سونكره زره غباريمنى
*Esiz afsus qadrim bilmadi ahbobi yoronim,
Qilurlar surmai ko‘zig‘a so‘ngra zarra g‘uborimni*¹³⁶.

Joriy imlodan nashr qilingan Muhsiniy devonining 98-betida 8 baytli diniy mavzudagi g‘azal keltirilgan. 7392 inventar raqamli qo‘lyozmada 88^a-sahifasida ushbu g‘azal 9 baytdan iborat bo‘lib, 7-bayt nashrda yozilmay tushirib qoldirilgan.

بغير شوق حریمک فلیس فی قلبی
عزمت وصلته یا سعاد سلما
*Big‘ayri shavqin harimuka fa laysa fi qolbiy,
Azzamtu vuslatahu ya Su‘ad salmoki*¹³⁷.

Muhsiniy she‘rlari jamlangan “Barhayot gulshan” devonidagi 11 ta g‘azalda jami 22 misra she‘r ayrim sabablarga ko‘ra nashrdan tushirib qoldirilgan. Mazkur misralarning yozilmay qolishi o‘quvchiga shoir g‘azallarining mazmun-mohiyatini

¹³⁴ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.50-^a.

¹³⁵ Ўша манба. –Б.55-^a.

¹³⁶ Ўша манба –Б.85-^a.

¹³⁷ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.88-^a.

to‘liq anglashni qiyinlashtiradi. Kitobxonda ayrim g‘azallar mazmuni tushunarsiz va tugallanmay qolganday taassurot paydo qiladi.

4. She‘r bandlarining qisqartirilishi. Asliyat bilan qiyoslash natijasida devon nashrida Muhsiniy she‘rlarining bandlari to‘liq berilmaslik holatlari ham kuzatiladi. Zoriy g‘azaliga bog‘lagan, Muhsiniy muxammasining 4-bandi nashrga kiritilmay qolgani ushbu fikrni tasdiqlaydi. Qo‘lyozma manbada yuqorida qayd qilingan muxammas hajmi besh banddan iborat ekani ma‘lum bo‘ldi. Tushirib qoldirilgan band matni asliyatda quyidagicha:

آدم ديمانگيز اولمسه مهر محبتى
اندين زياده اولدى بهايمنى صحبتى
قيلمانگ آينىگى تملیغنه ذره رغبتى
مين چکميشم الارقوليدىن كوب مصيبتى
چغز اولميشم که قيده باروب آشيآن قىلى
Odam demangiz o‘lmasa mehru muhabbati,
Andin ziyoda o‘ldi bahoyimni suhbati.
Qilmang oning tamlig‘ina zarra rag‘bati,
Men chekmisham alar qo‘lidin ko‘p musibati,
Cho‘g‘z o‘lmishamki, qayda borib oshyon qilay¹³⁸.

Shoirning odam va olam munosabati, hayot va e‘tiqod haqidagi falsafiy qarashlari ifoda etilgan bu kabi satrlarning tushirib qoldirilgani nashr nusxadagi matnning nuqsonli ekanini ko‘rsatadi.

Muhsiniyning “Barhayot gulshan” nomli nashr variantiga “Aylasun” radifli musamman matni 10 band shaklida kiritilgan. Shoir devonining 7392 inventar raqamli qo‘lyozmasi bilan qiyosiy tahlil etish natijalari ayrim so‘zlar noto‘g‘ri o‘qilgani va musammaning 1 bandi nashrdan tushirib qoldirilganini ko‘rsatdi. Ushbu qo‘lyozmaning 112^b, 114^{-ab} sahifalarida yuqorida keltirilgan musamman kitobat qilingan bo‘lib, 113^{-a} sahifada nashrdan tushirib qoldirilgan 5-band matni qo‘lyozmada quyidagicha bitilgan:

صرف ايتب ميئت يوليغنه قانچه نقد مالنى

¹³⁸ Ўша манба –Б.99-^a.

تاكه يتكور كاي فلكنه كو كب اقبالي
 غفلت حوا بيله اوتكاز مانك بو ماه سالني
 تابشورنك علم معارف سعيجه اطفالي
 ايكي دنيا ده كورور سيز نفع قيل قالي
 اوزيني نادانليغي كُفانداكي حُمالي
 كيم جوانمرد اولسه دين يوليغه امداد ايل سون
 مدرسه اوقاف مکتبخانه بنياد ايل سون

*Sarf etib millat yo 'lig 'a qoncha naqd molni,
 Toki atgurgay falakg 'a kavkabi iqbolni,
 G'aflati havvo bila o 'tkazmang bu mohi solni,
 Topshurung ilm-u maorif sa 'yig 'a atfolni,
 Ikki dunyoda ko 'rursiz naf' i qiylu qolni,
 O 'zini nodonlig 'i kaffondagi hammolni.
 Kim javonmard o 'lsa, din yo 'lig 'a imdod aylasun,
 Madrasa avqofu maktabxona bunyod aylasun¹³⁹.*

Musammanning ushbu bandi shu jihati bilan qimmatliki, unda topilgan mol-dunyoni millat yo'liga sarflab, uning iqbol yulduzini falakka atkazish, umrni g'aflat bilan o'tkazmaslik, atfolni – yoshlarni ilmu maorifga yo'llash zarurati badiiy talqin etiladi. Shunda ularning har so'zidan ikki dunyoda foyda ko'rish mumkinligi, haqiqiy javonmardlar din yo'lida yordam ko'rsatishi, madrasa, vaqflar va maktablar bunyod aylamog'i zarurligi haroratli satrlar orqali ifodalanadi.

Shuningdek, shoirning (Ishoqxon to'ra To'raqo'rg'oniya bag'ishlangan) deya sarlavha qo'yilgan yetti bandli musammanining to'rtinchi bandi yetti misra shaklida nashrda berilgan. So'nggi izlanishlarimiz natijasida 7392 inventar raqamli qo'lyozmaning 112-^a betida tushib qoldirilgan misra quyidagicha bitilgan:

نگار کلک تصویرده مانی محض دعوا یی

Nigori kilki tasvirida Moniy mahzi da'voyi¹⁴⁰.

Nashr qilingan "Barhayot gulshan" devonida Muhsiniyning Quva,

¹³⁹ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.113-^a.

¹⁴⁰ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.112-^a.

Namangan, Toshkent, Andijon shaharlariga yuborgan she'riy masnaviyda yozilgan maktublari kiritilgan. Ushbu maktublar matnini shoirning 7392 inventar raqamli qo'lyozmasi bilan qiyoslaganimizda uchta maktubda jami 10 misra she'r nashrdan tushirib qoldirilgani ayon bo'ldi.

Jumladan, Quva shahriga jo'natilaga she'riy maktubning nashrdan tushirib qoldirilgan to'rt misrasi qo'lyozmaning 130^a sahaifasida quyidagicha bitilgan:

ملا بالتى آخونوم هم بستر يمدور لايقم
يوزلاریده چنديگان باردور نچه آثارلار
سالماغایمزمو چمه دانلاریغه اسبابیمیز
قیلدى بو اسباب بزنى کیم ق قوپوب بزارلار

Mullo Boltiy oxunim ham bistarimdur loyiqim,
Yuzlarida necha chandigon bordur necha osorlar,
Solmag'oyimiz chamadonlarig'a asbobimiz,
Qildi bu asbob biznikim bezorlar¹⁴¹.

Xuddi shunday farq Namagon shahriga yozilgan maktubda ham mavjud bo'lib, ikki misra she'r nashrda yozilmay qolgan. 7392 inventar raqamli qo'lyozmaning 13^b sahifasida ushbu ikki misra shunday bitilgan:

باغلاديم محکم بيليمغه آشنالغ تارینی
کیلمسون کونگلو نگیزه بر زرهء اشتباه لار
Bog'ladim mahkam belimg'a oshnolig' torini,
Kelmasun ko'nglunguzga bir zarrayi ishtiboh¹⁴².

Shuningdek, Toshkentdga yozilgan maktub matnini nashr bilan qiyoslaganimizda to'rt misra nashrdan tushirib qoldirilgan. Ushbu misralar 7392 inventar raqamli qo'lyozmaning 162^a sahifasida bunday bitilgan:

منتظر دورمیز کیلور دیب ترک ایله آلمانیان
کیلغان ایردی کیلماقینه گزته پیغا لار
حقدین امید اولکه گچیسه تُرکه تورکستان زمین

¹⁴¹ Ўша манба. –Б.130-^a.

¹⁴² Ўша манба. –Б.131-^a.

بر بولوب كتسه بزيمله روم مصر شام لار

Muntazirdurmiz kelur deb turk ila olmoniyon,

Kelg'on erdi kelmoqina gazeta-u payg'omlar.

Haqdin umid ulki, kuchaysa turki Turkiston zamin,

Bir bo'lib ketsa, bizim-la Rum-u, Misr-u Shomlar¹⁴³.

She'riy maktublardan tushirib qoldirilgan 10 misra birinchidan, she'rlar hajmini kamayishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchidan ta'rixda ifodalamoqchi bo'lgan fikrni mavhum anglanishiga olib kelgan.

Yuqoridagi kabi she'r misralarini tushirib qoldirilishi ta'rix janridagi she'rlar matnida ham mavjudligi aniqlandi. Nashr qilingan devon tarkibidagi ta'rixlar matnini 7392 inventar raqamli qo'lyozma bilan qiyoslaganimzda 6 misra she'r tushirib qoldirilgani ayon bo'ldi. Jumladan, nashrda 20 misra hajmida keltirilgan ta'rix qo'lyozmada 22 misra tarzida kitobat qilgan. Mana o'sha tushirib qoldirilgan misralar:

تاڭغان ايكان قضانى امرينى يتگانىغە

تاوريخ وقت وصلت در حين کامرانى

Topg'on ekan qazoni amrini etkonig'a,

Ta'rixi vaqti vuslat dar hin komroniy¹⁴⁴.

“Barhayot gulshan” nomli nashr qilingan devon tarkibida 18 misralik ta'rix kiritilgan. 7392 inventar raqamli qo'lyozmaning 148^a, 149^a sahifada 22 misra ekanligi ayon bo'ldi. Ushbu qo'lyozma asosida tushirib qoldirilgan misralarni quyidagicha o'qidik:

بو ينگىغ بقعه بُنياد قيلمىش

سالالماس طرح خز مانى بهضاد

بيانُ سألُ تاريخنى مُحسن

دلیم لوحیغه چکتیم زیج ار صیاد

Bu yanglig' baqi'au bunyod qilmish,

Sololmas tarhi juz Boniyi Behzod.

¹⁴³ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.162-^a.

¹⁴⁴ Ўша манба –Б.147-^a.

Bayoni solu ta'rixini Muhsin,
Dilim lavhig'a chektim ziji ar sayyod¹⁴⁵.

Bu kabi nuqsonlarni tuzatish shoir asarlarining nisbatan mukammal matnlarini tiklash imkonini beradi. Chunki "...amaliy matnshunoslikning vazifasi testologik xatolardan xoli, muallifning dastxat varianti yoki shunga yaqin ishonchli ilmiy matnlarni tiklash muammolarini hal etishdan iboratdir"¹⁴⁶.

Muhsiniy lirik merosi jamlangan "Barhayot gulshan" nomli devoniga kiritilgan mumtoz she'riy janlardan g'azal, muxammas, musamman, maktub, ta'rixlar matni 7392 inventar raqamli qo'lyozma bilan qiyoslaganimizda jami 52 misra tushirib qoldirilgani ma'lum bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va tahlillardan xulosa qilish mumkinki, Muhsiniy lirik merosi jamlangan "Barhayot gulshan" devoniga kiritilgan she'rlarning asliyat asosidagi mukammal matnlarini tiklash zarur. Buning uchun, birinchidan, shoir devoni qo'lyozmalarini o'zaro qiyosiy o'rganish, ikkinchidan, asliyat va tabdil nusxalaridagi har bir she'rini so'zma-so'z, misrama-misra muqoyasa etish, uchinchidan, shu asosda xatolardan xoli, muallif variantiga muvofiq keluvchi yoki shunga yaqin matnlarini tayyorlash taqozo etiladi. Qiyosiy tahlillar kelajakda shoir asarlarining mukammal nashrlarini chop qilishga yo'l ochadi. Bu esa, o'z navbatida, Muhsiniy devonlari qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish, matniy tafovutlar va ularning kelib chiqish sabablarini tahlil etish, shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini hamda shu asosdagi nisbatan mukammal nashrlarini tayyorlash masalasini kun tartibiga qo'yadi.

3.2.Muhsiniy she'riyatida matn tahriri masalasi

Matn tahriri. Matn tarixining asosiy qismi bo'lgan matn tahriri masalasini ilmiy asosda o'rganish matnshunoslikning dolzarb muammolaridandir. Bu esa, o'z navbatida, adabiy asarlarning dastxat va unga yaqin variantlarini nashr nusxalari

¹⁴⁵ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.148-^a 149-^a.

¹⁴⁶ Жабборов, Н. "Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат мезони". Ўзбек филологиясида матншunoslik ва манбашunoslik муаммолари: Республика илмий-амалий анжумани материаллари, Тошкент.2020. – Б. 51.

bilan qiyosiy o‘rganish, aniqlangan har bir tafovutning sabablarini aniqlash va ilmiy baholash zaruratini keltirib chiqaradi.

Professor N.Jabborov mumtoz adabiyot materiallarni o‘rganishda matn tahririning alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Olim bu masalani tadqiq qilish o‘zbek matnshunosligining dolzarb vazifalaridan ekanligiga e’tibor qaratib, bunday yozadi: “D.S. Lixachevning “Tekstologiya” kitobida tahrirning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi: 1) g‘oyaviy tahrir; 2) uslubiy tahrir; 3) asarda faktlarni boyitish, kengaytirishga qaratilgan tahrir; 4) bir necha turni o‘zida mujassam etgan qorishiq tahrir. Muallif matn tahririni bu kabi turlarga ajratar ekan, tabiiyki, rus adabiyoti materiallariga asoslanadi. Bizningcha, bu tasnifni o‘zbek adabiyoti materiallariga ham tatbiq etish mumkin”¹⁴⁷. Matn tahririning mazkur turlari Husaynquli Sulaymonquli o‘g‘li Muhsiniy she’riy asarlarida ham keng qo‘llangan. D.S.Lixachev fikricha: “Matnning “g‘oyaviy tahrir”dan o‘tishi asarning stilistik jihatlari bilan bog‘liq bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin. Tahrir ba’zan butun matn tarkibiga, ayrim hollarda uning alohida qismiga aloqador bo‘ladi. Yozma yodgorlikka butunlay teskari ma’no yuklanishi, matnda u yoki bu xil “g‘oyaviy tozalash” o‘tkazilgan bo‘lishi mumkin. Hatto asarga unda mutlaqo bo‘lmagan g‘oya qo‘shilishi yoki matnda mavjud bo‘lgan g‘oya “qisqartirilishi” hollari ham uchraydi”... Hajm va ko‘lamiga ko‘ra g‘oyaviy tahrirni ikkiga bo‘lib o‘rganish mumkin: 1) butun matn tarkibiga oid tahrir; 2) matnning alohida qismiga aloqador tahrir”¹⁴⁸.

Muhsiniy asarlari shoirning avtograf nusxalari bo‘lgani bois, birinchidan, ulardagi matn tahriri asosan muallifga tegishli, ikkinchidan, tahrirlar ijodkor asarlari matni mukammal bo‘lishini ta’minlagan. Shoirning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan 17392 inventar raqamli qo‘lyozma devon, shuningdek, shoirning Qo‘qon shahrida yashovchi avlodlari qo‘lida saqlanayotgan 1897-1898 yil, 1914-1915 yilda kitobat qilingan ikkita qo‘lyozma devon va 178 inventar raqam bilan qo‘lyozma bayoz mallif tahririni ko‘rsatuvchi muhim manbalar hisoblanadi.

¹⁴⁷ Жабборов Н. Бадий матн таҳрирининг хос хусусиятлари. – “Ўзбек адабиётшунослигида талкин ва таҳлил муаммолари” мавзuidaги илмий-назарий анжуман материаллари. – Т.: Мумтоз сўз, 2014. - Б.28.

¹⁴⁸ Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург, Изд-во «Алетей», 2001, стр. 34.

7392 inventar raqamli qo‘lyozma devonini ko‘chirish davomida muallif ayrim so‘z, birikma, misra va baytlarni xattotlik tamoyillariga muvofiq tarzda tahrir qilgan. Bu jarayonda muallif matn sahifalaridagi tahrir va tuzatishlarda eski o‘zbek alifbosidagi ayrim harf, so‘z va raqamlardan foydalangan. Muhsiniy devonini qayta ko‘chirish jarayonida amalga oshirgan tahrir va tuzatishlarni shartli tarzda quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- 1) x (خ) va m (م) harflari asosidagi tuzatishlar;
- 2) she‘rlar tarkibidagi so‘zlar, so‘z birikmalarga (١,٢,٣,٤) tarzida raqam qo‘yish bilan amalga oshirilgan tahrir va tuzatishlar;
- 3) g‘azallar misralari, baytlarini (١,٢,٣,٤) raqamlarini qo‘yish orqali tahrir va tuzatishlar;
- 4) misralar tartibini tuzatilishi.

Mumtoz shoirlarimiz ijod namunalarini ko‘chirgan kotiblar xato bitilgan so‘z va misralarning ustiga chizish yoki o‘chirishni nomaqbul ko‘rishgan. Chunki sahifalardagi so‘zlar, misra va baytlar ustiga chizib, o‘chirib xatosi to‘g‘rilangan matn o‘zining mo‘tabarligini yo‘qotgan. Shu sababli matn sahifalarida xato bitilgan so‘zlar yuqorisiga turli xil belgilar, raqamlar va harflar qo‘yish bilan xatoni tuzatganlar. Bu orqali kotiblar matn sahifasini bo‘yash, chizish, o‘chirishdan saqlangan.

1. X (خ) va m (م) harflari asosidagi tuzatishlar. “Xattotlik san’atida bir misrada kelgan so‘zlarning ketma-ketligi buzilganda kotib tomonidan ushbu so‘zlar ustiga خ va م harflari (م – muqaddima; خ – oxir) shaklidagi belgi qo‘yiladi va ularning o‘rni almashtirib o‘qilishiga ishora qilinadi¹⁴⁹.

7392 inventar raqamli qo‘lyozmaning 32^b betida “*Qaroko‘z*” radifli 7 baytli ishqiy mavzudagi g‘azal bor. Ushbu g‘azal Muhsiniyning nashr qilingan “*Barhayot gulshan*” devoniga kiritilmagan. G‘azal tarkibidagi 4-baytning 2-misrasida kelgan “*necha*” va “*bizga*” so‘zlari ketma-ketligi xato yozilgan. Kotib xatoni to‘g‘rilash uchun o‘rni almashib yozilgan so‘zlar ustiga x (خ) va m (م) harflarini qizil siyoh bilan bitgan.

¹⁴⁹ Навоий А. Лайли ва Мажнун. Илмий-танкидий матн. Тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1956. – Б.224.

Ushbu tuzatish asosida bayt to‘g‘ri o‘qilishi ta‘minlangan. Qo‘lyozmada bayt quyidagicha bitilgan:

ايلادينك نچه خ بزكا م مارتبه يلغان وعده
يقمو حسن اهليدا بر نرّه وفا ايقره كوز¹⁵⁰

Yuqoridagi misradagi qizil rangdagi خ va م harflari xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish uchun qo‘yilgan. Biz ushbu belgilarga amal qilgan holda baytni shunday o‘qiymiz:

*Aylading bizga necha martaba yalg‘on vada,
Yo‘qmu husn ahlida bir zarra vafo, ey qaroko‘z.*

Qo‘lyozmaning 14-b sahifasida kelgan “Aylasa” radifli 9 baytli g‘azal nashr qilingan devon tarkibida yo‘q. Ushbu g‘azal maqta’sini kotib texnik xato tufayli 8-baytda bitib qo‘ygan, so‘ng tushirib qoldirilgan baytni yozgan. Muallif maqta’ ustiga خ-x (*oxir*) harfini, keyingi misra ustiga m-م (*muqaddam*) harfini qizil siyoh bilan bitish orqali xatoni to‘g‘rilagan.

7392 inventar raqamli qo‘lyozmada bunday bitilgan:

خ روشن اولغاي محسنی سام غمینک هم بر کونی کیم شب هجرانینگ اچره ماه تابان اویناسا
آلسه جانم نی نه غم غمزه بلان جلاّد کوز تیرکوزار هم لفظ شیرین ایله جانان اویناسا¹⁵¹ م

Biz yuqorida qo‘yilgan belgilar asosida baytni quyidagicha o‘qidik:

*Olsa jonimni ne g‘am, g‘amza bilan jallodko‘z,
Tirguzar ham lafzi shirin ila jonon o‘ynasa.
Ravshan o‘lg‘oy, Muhsiniy, shomi g‘aming ham bir kuni,
Kim shabi hijroning ichra mohi tobon o‘ynasa.*

2. She‘rlar tarkibidagi so‘zlar, so‘z birikmalarga (۱,۲,۳,۴) tarzida raqam qo‘yish bilan amalga oshirilgan tahrir va tuzatishlar. 7392 inventar raqamli qo‘lyozmaning 51-a betida “Etting” radifli ishqiy mavzudagi 9 baytli g‘azal kiritilgan. Ushbu g‘azal tarkibidagi 6 baytida muallif “el aro” birikmasini hoshiyada “aqlim olib” tarzida tahrir qilgan. Mazkur g‘azal Muhsiniyning joriy

¹⁵⁰ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.32-6.

¹⁵¹ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.14-6.

alifbodagi “*Barhayot gulshan*” devoniga kiritilgan, biroq 6-baytdagi ayrim soʻzlar oʻrni almashtirilib quyidagicha oʻqilgan:

*Ayb emas xalqi jahon aylasalar afsonam,
Badali aqlim olub telbayu Majnun etting*¹⁵².

Nashrda birinchi misra toʻgʻri oʻqilgan boʻlsa-da, ikkinchi misradagi soʻzlar oʻrni almashtirilib tabdil qilingan. Qizil siyoh bilan tahrir qilingan soʻzlarni notoʻgʻri tushunilgan. Shu sababli bayt noqis va mazmun tushunarsiz boʻlib qolgan.

7392 inventar raqamli qoʻlyozmada quyidagicha bitilgan:

عيب ايماس ايلاسه لار خلق جهان افسانم
{ ايل ارا } عشقینگ ايله تلبه مجنون ايتد ينگ ¹⁵³

Muallif tomonidan oʻzgartirilgan “*el aro*” birikmasi yuqorisiga qizil siyohda 1-1 raqami qoʻyilgan. Hoshiyada esa “*aqlim olib*” ^{ابدل} اقليم آلوب birikmasi bitilgan. Aslida “*el aro*” birikmasi oʻrniga “*aqlim olib*” soʻzlarini qoʻyib oʻqish kerak edi. Bizningcha, bayt yuqorida keltirilgan tuzatishlar asosida quyidagicha oʻqilsa shakl va mazmun mutanosib boʻladi:

*Ayb emas aylasalar xalqi jahon afsonam,
Aqlim olib ishqing ila telbayu Majnun etding.*

Qoʻlyozmaning 58-^a betida “*Oʻlmisham*” radifli 9-baytli gʻazal boʻlib, nashrga kiritilmagan. Gʻazalning 2-bayt 1-misrasidagi soʻnggi “*dilrabo*” soʻzi shoirga maʼqul kelmagan, soʻzning yuqorisiga qizil siyohda ¹ belisi qoʻyilib, hoshiyada esa qizil siyoh bilan “*Yusuf misol*” يوسف مسال soʻzini bitgan. 7392 inventar raqamli qoʻlyozmada ushbu bayt bunday yozilgan:

خيره اولدى كوزلاريم يغلاب سنكا اي دلريا ¹ كلبمی يعقوب ينكلغ بت الا حزان اتمشم ¹⁵⁴

Baytning ikkinchi misrasida Yaʼqub paygʻambar va uning sifati “*bayt ul-ehzon*” (*gʻamlar uyi*) birikmasi qoʻllanishi birinchi misrada ushbu holat sababchisi Yusuf alahissalom nomini keltirishni taqozo etadi. Shoir ushbu mantiqdan kelib chiqib, “*ey dilrabo*” soʻzini *Yusuf misol* soʻziga oʻzgartirgan va bayt mazmunini

¹⁵² Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.59.

¹⁵³ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.51-^a.

¹⁵⁴ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.58-^a.

ta'sirli bo'lishiga erishgan. Mazkur tahrirga asoslanib baytni quyidagicha tabdil qildik:

*Xiyra o'ldi ko'zlarim yig'lab sango ey, Yusuf misol,
Kulbami Ya'qub yanglig' bayt ul-ehzon etmisham.*

Qo'lyozmaning 85^a betda nashrga kiritilmagan 11 baytli "Yo'q" radifli g'azalning 3-baytining 2-misrasi muallif tomonidan tahrir qilinib hoshiyada bitilgan. Qo'lyozma matnida bayt shunday yozilgan:

اسیر اولما سمو عالم اول کمند جعد زلفیغه^۱ قویار شکر لیبیغه دانئه جالی بلان دامی¹⁵⁵

Varoqning hoshiyasida (۱) belgisi ostida kotib quyidagicha misrani tahrir qilingan shaklini yozgan: کی قویسه شگرن لب خال خط دین دانئه دامی.

"Qo'yor shakar labig'a donai xoli bilan domi" misrasi "Ki qo'ysa shakkarin labi xolu xatdin donau domi", shaklida o'zartirilgan.

Ushbu tahrir asosida baytni quyidagicha tabdil qildik.

*Asir o'lmasmu olam ul kamandi ja'di zulfig'a,
Ki qo'ysa shakkarin labi xol-u xatdin dona-yu domi.*

3. G'azallar misralariga, baytlariga (۱,۲,۳,۴) raqamlarini qo'yish orqali tahrir va tuzatishlar.

"Barhayot gulshan" devoni tarkibida 53-betda va 7392 inventar raqamli qo'lyozmaning 47^a sahifasida kelgan 10 baytli ilm-ma'rifat mavzusi ifodalangan g'azalning 2 misrasi tahrir qilinib hoshiyada bitilib, qizil siyohda (۱-1) raqami qo'yilgan.

Mazkur bayt 7392 inventar raqamli qulyozmadan quyidagicha bitilgan:

اصلى^۱ دور انى همان تيره خذف علم آداب اله انسانه شرف
يوقسه اسلى انى برتيره خذف

Qo'lyozma matnida ikkinchi misra: "Aslidur oni hamon tiyra xazaf" tarzida bitilgan bo'lib, asli so'zining yuqorisiga qo'yilgan (۱) raqami hoshiyada misra "Yo'qsa asli oni bir tiyra xazaf" shaklida tahrir qilinib, yozilganini bildiradi. Qo'lyozma matnida ifodalangan fikr usluban g'aliz, mazmunan mavhum bo'lib qolgan. Shu bois, dastlabki misra mazmuniga hamohanglik yo'qolgan. Tahrir

¹⁵⁵ Ўша манба. –Б.85^a.

qilingan bayt shakl va mazmun jihatdan mutanosiblik kasb etgan. Nashrda quyidagicha to‘g‘ri o‘qilgan:

*Ilmu odob o‘la insona sharaf,
Yo‘qsa asli oni bir tiyra xazaf¹⁵⁶.*

Devonni qayta ko‘chirish jaryonida muallif beixtiyor 10 baytli g‘azalni 8 bayt shaklida bitgan. Natijada g‘azalning 5-6 baytlari tushib qolgan. Xatoni tuzatish uchun xattot matndagi 6-baytning birinchi misrasi ustiga (1-1) va ikkinchi misrasi ustiga (2-2) raqamini qizil siyohda bitish orqali sahifa chetiga yozilgan baytlarga ishora qilgan. Hoshiyada esa tushirib qoldirilgan (1-1) raqami ostida 5-baytni va (2-2) raqami yuqorisida 6-baytni yozgan. Mazkur g‘azal joriy alifbodagi “Gulshani jovid” devonida to‘g‘ri o‘qilib tabdil qilingan. 7392 inventar raqamli qo‘lyozmaning 27^a- betida 5-6 bayt quyidagicha kitobat qilingan:

خم قليب الف قديم حمل بار هجرانينک
تا چکوب غم دردینک شد تیده افغانلار
اولدی غرقه بو جسمیم سیل اشک موجدین
توتکوسی سینی آجر قائلوچشم گریانلار¹⁵⁷
*Xam qilib alif qaddim haml bori hijroning,
To chekub g‘amu darding shiddatida afg‘onlar.
O‘ldi g‘arqa bu chashmim seli ashk mavjadin,
Tutgusi seni oxir qonlu chashmi giryonlar¹⁵⁸.*

Qo‘lyozmaning 27^b- sahifasida *re* (ر) harfi bilan tugagan 7 baytli g‘azalning 1-2 baytlari ustun shaklida yozilgan. Matnda baytlar parallel yozilib, shu tartibda o‘qilishi lozim edi. Kotib texnik jihatdan yo‘l qo‘ygan xatosini to‘g‘rilash uchun gorizontal shaklda misralar boshiga (1-1), (2-2), (3-3), (4-4) raqamlarini qo‘yish orqali g‘azal baytlarini to‘g‘ri o‘qilishini ta‘minlash barobarida, matn sahifasini chizish va bo‘yashdan saqlagan. Mana o‘sha misralar:

۱ یوزوم ساریخلیغی کونگلوم داگی دردی نها نندو ۳ سالوب بوینمغه طوق بنده لیغ قمری کبی نالان
۲ یوق بار اولغانیم آغزی ایله موی میان دندور ۴ نزاکت کلشنیده قامتی سرو رواندن دور¹⁵⁹

¹⁵⁶ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.53.

¹⁵⁷ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.27-^a.

¹⁵⁸ Мухсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.26.

*Yuzum sorig 'lig 'i ko 'nglumdagi dardi nihondandur,
Yo 'qu bor o 'lg 'onim og 'zi ila mo 'yi miyondandur.
Solub bo 'yunung 'a tavqi bandalig', qumri kabi nolon,
Nazokat gulshanida qomati sarvi ravondandur¹⁶⁰.*


4. Misralar tartibining tuzatilishi. Ushbu turdagi tahrir shakli ham Muhsiniyning qo'lyozma devoni matnida uchraydi. "Xattotlikda bayt shaklidagi she'riy asarlarning misralari, odatda, bir qatorda ketma-ket ko'chiriladi. Ayrim hollarda misralar o'rni almashtirib ko'chirilganda kotib tomonidan ularning muallif matnidagi tartibiga muvofiq ko'rinishi siniq chiziq bilan tuzatiladi"¹⁶¹.

Shoirning nashr qilingan "Barhayot gulshan" nomli devonida "Laziz" radifli 7-baytli g'azalni ko'chirishda kotib xatolikka yo'l qo'ygan. Xatoni tuzatish uchun birinchi va ikkinchi baytlar tartibi o'zgartirilib o'qilishiga siniq chiziqlar bilan ishora bergan. Biroq ishoraga amal qilinmasdan misralar o'rni almashtirilib tabdil qilingan. Shu bois g'azal mazmuni biroz g'aliz bo'lib qolgan. Nashrda g'azal baytlari quyidagicha berilgan:

Jong'a har bir so'zlaringdur shahd-u shakkardin laziz,
Sharbati maygun labingdur obi kavsardin laziz.

Sarvi mavzuning erur ul naxli to'bodini baland,
Har kaloming jismi bemoring'a shakkardin laziz¹⁶².

Ushbu baytlar 7392 raqamli qo'lyozmaning 26^a betida quyidagicha bitilgan:



Mazkur qo'lyozma asosida baytni quyidagicha o'qish mumkin:

¹⁵⁹ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.27^a-.
¹⁶⁰ Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.27.
¹⁶¹ Нуриддинов Ш. Komil Xogazmiy devoni manbalari genealogiyasi va matn tanqidida muammosi. T.: "Fan va ta'lim" nashriyoti. 2022. –Б. 203.
¹⁶² Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.25.

Jong‘a har bir so‘zlaringdur shahd-u shakkardin laziz,
Har kaloming jismi bemoring‘a shakkardin laziz.

Sarvi mavzung erur ul naxli to‘bodini baland,
Sharbati maygun labingdur obi kavsardin laziz¹⁶³.

Xulosa qilib aytganda, Husaynquli Muhsiniy iste‘dodli shoir bo‘lish bilan birga mohir hattot ham edi. Adib devonini turli yillarda ko‘chirish jarayonida yangi ijod namunalarini ham kiritib borgan. “*Gulshani jovid*” devoning so‘nggi nusxasini ko‘chirish jarayonida ayrim g‘azallar tarkibidagi so‘zlar, so‘z birikmalari va misralarni asosli tarzda tahrir qilgan. Shu bois shoir g‘azallari mazmuni va ta‘siri oshgan. Ushbu tahrirlar matnshunoslikda birlamchi manba ustida amalga oshirilgan muallif tahririning yorqin namunasi. Shuningdek, muallif beixtiyor qilgan xatolarini ham mohirlik bilan tuzatish barobarida, lirik asarlarining teran ma‘no ifodalashini ta‘minlagan.

Asardagi faktlarni boyitish, kengaytirishga qaratilgan tahrir. Matn tahririning bu turi ham, asosan, muallif tomonidan, ayrim hollarda kotib yoki boshqa ijod kishilari tarafidan amalga oshirilishi mumkin¹⁶⁴.

Muhsiniy ijodida ham shoir she‘riy asarlarining shakl va mazmunini takomillashtirib, boyitib borganligini kurishimiz mumkin. Shoir asarlari matni hozirga qadar to‘liq o‘rganilgan emas. So‘nggi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, shoir qo‘lyozma devoniga kiritilgan lirik asarlarini ma‘lum bir tartibda tahrir qilib borgan.

Matn tahriri matnshunoslikning nazariy asosi bo‘lib, bu masalani ilmiy asosda o‘rganish matnshunoslikning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bu o‘z navbatida, adabiy asarlarning dastxat va unga yaqin variantlarini nashr nusxalari bilan qiyosiy o‘rganish, aniqlangan har bir tafovutning sabablarini aniqlash va ilmiy baholash zaruratini keltirib chiqaradi.

¹⁶³ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.27-^а.

¹⁶⁴ Жабборов Н. Бадий матн таҳрирининг хос хусусиятлари. – “Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари” мавзuidaги илмий-назарий анжуман материаллари. – Т.: Мумтоз сўз, 2014. - Б.32.

Professor N.Jabborov mumtoz adabiyot materiallarni o‘rganishda matn tahririning alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Olim bu masalani tadqiq qilish o‘zbek matnshunosligining dolzarb vazifalaridan ekanligiga e’tibor qaratib, shunday yozadi: “D.S.Lixachevning “Tekstologiya” kitobida tahrirning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi: 1) g‘oyaviy tahrir; 2) uslubiy tahrir; 3) asarda faktlarni boyitish, kengaytirishga qaratilgan tahrir; 4) bir necha turni o‘zida mujassam etgan qorishiq tahrir. Muallif matn tahririni bu kabi turlarga ajratar ekan, tabiiyki, rus adabiyoti materiallariga asoslanadi. Bizningcha, bu tasnifni o‘zbek adabiyoti materiallariga ham tatbiq etish mumkin”¹⁶⁵. Matn tahririning mazkur turlari Husaynquli Sulaymonquli o‘g‘li Muhsiniy she’rlarida ham keng qo‘llangan.

Muhsiniy ijodida muallif tahriri masalasini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Shoirning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan manbalar 7392 inventar raqamli qo‘lyozma devon, 4131 inventar raqamli qo‘lyozma bayoz hamda shoirning hozirgi kunda Qo‘qonda yashayotgan avlodlari Madaminjon Nuriddinovning shaxsiy kutubxonasida ikkita qo‘lyozma devoni mavjud. Mazkur qo‘lyozmalar shoir ijodiy merosini o‘rganishda birlamchi manbalar hisoblanadi. Bu qo‘lyozmalarda muallif tomonidan bir qancha tahrirlar amalga oshirilgan, ba’zi she’rlar qayta-qayta tahrir qilingan. E’tiborli jihati, ayrim she’rlarning ikki-uch xil variantlari ham uchraydi. Shoir she’rlarini to‘plab, turli yillarda devon tartib berganda, ularni yana qayta ishlagan. Bu esa, shoirning o‘z asarlariga jiddiy e’tibor qaratganini ko‘rsatadi.

Muhsiniyning birinchi devoni “Gulshani jovid” nomi bilan 1897-1898-yillarda tartib berilgan. Devon hozirda Qo‘qonda Muhsiniy avlodlaridan bo‘lmish Madaminjon Nuriddinov kutubxonasida saqlanadi. Devonning sahifasida quyidagi matla’ bilan boshlanuvchi g‘azal keltirilgan:

Ochilur ko‘nglim bahori la’li xandon o‘ynasa,

*Xiramin guldek yuzi sahni guliston o‘ynasa*¹⁶⁶. Mazkur ishqiy mavzudagi 9 baytli g‘azal 7392 inventar raqamli qo‘lyozma devon Toshkent

¹⁶⁵ Kўrsatilgan maqola. – Б.28.

¹⁶⁶ Кўлёмза девон. Тўк жигаррангда Кўкон шахрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. –Б.32-⁶.

nusxasida ikki xil ko‘rinishda bitilgan. Dastlab, Toshkent nusxasida quyidagicha keladi:

*Ochilur ko‘nglim bahori zulfi rayhon o‘ynasa,
Orazi gul, sochi sunbul, la’li xandon o‘ynasa*¹⁶⁷.

Shoir ilk devoniga kiritilgan g‘azal so‘zlarining joylashishi va qo‘llanish o‘rnini ham ma’lum tartibda o‘zgartiradi. Bu bilan adib she’rda ifodalangan his-tuyg‘uni mazmunan mukammal ifodalashga erishadi. Birinchi satrdagi “la’li xandon” birikmasi “zulfi rayhon” tarzida o‘zgartirilgan bo‘lsa, ikkinchi “Xiramin guldek yuzi saxin guliston o‘ynasa” satri, “Orazi gul, sochi sunbul, la’li xandon o‘ynasa” shaklida o‘zgartirilgan. Shoir birinchi satrdagi “la’li xandon” sifatlashini ikkinchi misraga tushirish orqali she’rning ohangdorligi oshirgan, baytning mazmunan boy, shaklan yoqimli bo‘lishini ta’minlagan. Tahrir tufayli shoir avlodlari qo‘lida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxadagi g‘azalga nisbatan 7392 inventar raqamli Toshkent nusxasidagi g‘azal atuk bir ko‘rinish olgan.

Ilk devonning 33-^b sahifasida 7 baytli “o‘ynasa” radifli g‘azal matla’si quyidagicha bitilgan:

*Mast bo‘lir oshiqdari ul boda humso o‘ynasa,
Ko‘zlari xummor nargis la’li humro o‘ynasa.*¹⁶⁸

Ushbu g‘azalning tahrir qilingan varianti ikkinchi ko‘rinishi 7392 inventar raqamli Toshkent nusxasida ham 7 bayt shaklida bitilgan.

*Ochilur ko‘nglim guli ruxsori humr o‘ynasa,
Jomi may ilkida olib boda paymo o‘ynasa*¹⁶⁹.

Muhsiniy ilk devonidagi bir xil radifli ikki g‘azalni tahrirlab Toshkent nusxasiga kiritgan. Ammo har ikki g‘azal ham nashr qilingan devonda mavjud emas.

Muhsiniy qo‘lyozma devonlarida g‘azallar baytlar miqdoriga ko‘ra ham o‘zgarishlarga uchragan. Masalan, ilk “Gulshani jovid” devoni sahifasida 9 baytli g‘azal mavjud. G‘azalning matla’si quyidagicha:

¹⁶⁷ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.14-^б.

¹⁶⁸ Қўлёзма девон. Тўқ жигаррангда Қўкон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. –Б.33-^а.

¹⁶⁹ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.15-^а.

Hayrat oldi aqlimi mir'oti diydoring ko'rub,

*Zarra yanglig' ko'nguli mayi xurshidi ruxsoring ko'rub*¹⁷⁰.

Ushbu g'azal nashr qilingan va 7392 inventar raqamli qo'lyozma devonda 10 bayt shaklida bitilgan. Shuningdek, g'azaldagi qo'llangan so'z va jumlar ham muallif tomonidan tahrir qilingan. Shoir she'rlari nashri va 7392 inventar raqamli qo'lyozmada devonda mazkur g'azal matla'si quyidagicha berilgan:

Hayrat oldi aqlimi mir'oti diydoiring ko'rub,

*Iztirob etti ko'ngil xurshidi ruxsoring ko'rub*¹⁷¹.

Ushbu g'azalda **“Zarra yanglig' ko'nguli mayi”** birikmasi **“iztirob etti ko'ngil”** shaklida tahrir qilingan hamda g'azalga bir bayt qo'shilgan. Har ikki qo'lyozmada mavjud g'azallarning birinchi bayti qiyoslanganda 7392 inventar raqamli qo'lyozma devon o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. Ilk devondagi g'azalning misrasi mazmunidagi saktalik 7392 inventar raqamli devonda bartaraf etilgan. Tahrir natijasida g'azalning baytlari soni ko'paygan bo'lsa, ikkinchidan so'z va jumlar ma'lum bir tartibda o'zgartirilgan.

Muhsiniy she'riy asarlari jamlangan, joriy nashrdagi “Barhayot gulshan” devonida Navoiyning mashhur “Kelmadi” radifli g'azaliga tatabbu' bog'langan. Shoir tatabbu'da imkon qadar Navoiy g'azali mazmuniga, ohangiga yaqinlashadi va ijodiy yangilik sifatida muvashshah shaklida she'rni yakunlaydi. Mazkur 7 baytli g'azal mavjud 4 ta qo'lyozma devonda 3 xil variantda yozilgan. Barcha devon nusxalari va nashrda ham g'azal 7 bayt bo'lib, qofiya hamda radif bir xil shaklda. G'azalning misralari va baytlarda so'zlarning qo'llanilishi, joylashishi jihatidan ma'lum farqlar ko'zga tashlanadi.

“Gulshani jovid” nomli Muhsiniyning ilk devoni bo'lib, 1897-1898-yillarda tartib berilgan. Ushbu dastxat devonning 35-^a sahifasida “Kelmadi” radifli g'azal matla'si quyidagicha keladi:

Kecha yalg'on va'da aylab ul parirol kelmadi,

*Fikri vasli birlan ko'zlarg'a uyqu kelmadi*¹⁷².

¹⁷⁰ Қўлёзма девон. Тўқ жигаррангда Қўкон шахрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. –Б.35-^a.

¹⁷¹ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.17-^a.

Hozirda Muhsiniy avlodlari qo‘lida saqlanayotgan qora muqovali rus fabrika qog‘oziga 1914-1915-yillarda ko‘chirilgan dastxat devonning 130-^b sahifasida “*Kelmadi*” radifli g‘azalning birinchi bayti quyidagicha:

*Kecha yalg‘on va‘da aylab ul pariro‘ kelmadi,
To xayoli vasl ila ko‘zlarg‘a uyqu kelmadi*¹⁷³.

Qiyoslardan ma‘lum bo‘ladiki, shoir birinchi misrani o‘zgarishsiz qoldirib, ikkinchi misraning birinchi *fikri* so‘zini *to xayoli* birikmasi tarzida bitsa, *birlan* birikmasini esa *ila (bilan)* ko‘makchisiga o‘zgartiradi. Har ikkala baytda ham saktaliklar mavjud.

Ushbu g‘azalning uchinchi varianti 7392 inventar raqamli dastxat qo‘lyozma va joriy alifbodagi nashrda quyidagicha bitilgan:

*Kecha yalg‘on va‘da aylab ul pariro‘ kelmadi,
Fikri vasli birla tokim ko‘zg‘a uyqu kelmadi*¹⁷⁴.

Demak, bizningcha shoir ilk devon nusxasi satrini biroz tahrirlab so‘nggi devoniga kiritgan.

Ilk devonda “*Kelmadi*” radifli g‘azalning 2 bayti quyidagi ko‘rinishda keladi:

*Ul parivash furqatidin yig‘laymen zor-zor,
Yetmayincha vaslina og‘zimg‘a uyqu kelmadi*¹⁷⁵.

Ikkinchi qo‘lyozma devonda o‘zgacha ko‘rinishda bitilgan:

*Ul parivash furqatidin yig‘laymen zor-zor,
Shoyad anduh ila og‘zimg‘a kulgu kelmadi*¹⁷⁶.

Birinchi va ikkinchi devon baytining 1-misrasi bir xil shaklda bo‘lib, muallif tahriri yo‘q. Ammo ilk nusxaning ikkinchi satrida *atmayincha vaslina* birikmasi, ikkinchi devonda *shoyat anduh ila* tarzida o‘zgarishga uchragan.

¹⁷² Қўлёзма девон. Тўқ жигаррангда Қўқон шахрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. –Б.64-^a.

¹⁷³ Қўлёзма девон. Қора муқовали Қўқон шахрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. –Б.130-^b.

¹⁷⁴ ЎЗР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.80-^b.

¹⁷⁵ Қўлёзма девон. Тўқ жигаррангда Қўқон шахрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. –Б.64-^a.

¹⁷⁶ Қўлёзма девон. Қора муқовали Қўқон шахрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади. –Б.129-^b.

7392 inventar raqamli qo‘lyozma va nashr qilingan devon nusxasida bir xil shaklda yangicha shaklda quyidagicha keladi:

***Oh, ul zolim jafosi-la, dili anduh ila,
Shomi g‘am kunjida bir og‘zing‘a kulgu kelmadi***¹⁷⁷.

Bu baytda shoir yuqorida keltirilgan ikkala variantni ham tahrirlab, baytni yangi shaklda bitadi. Birinchi satrni *Oh, ul zolim jafosi-la, dili anduh ila*, shaklda ifodalaydi. 2-satrda *shomi g‘am kunjida bir* so‘zlarini keltirish bilan mazmuni o‘zgartiradi.

Muhsiniyning Hofizga bag‘ishlab yozgan “Hofiz” radifli g‘azali ham shoirning 1-devon, 2-devon va 7392 inventar raqamli qo‘lyozmada muallif tomonidan tahrir qilingani ma’lum bo‘ldi. Jumladan 1-devonning 53-^{ab} sahifasida 9 baytdan iboratdir. G‘azal matla’si quyidagicha:

***Orif billoh avliyo Hofiz,
Sohibul kashfi van-nido Hofiz.***

2-qora muqovali devonning 81-^a sahifasida va 4303 inventar devonning 53-^{ab} sahifasida “Hofiz” radifli g‘azal bir xil shaklda 9 bayt tarzida yozilgan. Ushbu g‘azalning ilk bayti:

***Xoja Shamsidin Ato Hofiz,
Orif billoh avliyo Hofiz.***

7392 inventar raqamli qo‘lyozma devonning 43-^b beti va joriy alifbodagi nashrda 8 bayt shaklida bitilgan:

***Xoja Shamsiddin Ziyo Hofiz,
Ahli irfon-u avliyo Hofiz.***

Navoiy g‘azallariga bog‘lagan tatabbu’larning birinchi, ikkinchi va 7392 inventar raqamli qo‘lyozma devonlardagi matniy farqlari mavjud bo‘lib, so‘zlar tahrir qilingan. Jumladan, shoirning “O‘ldirgusi” radifli g‘azali Navoiyga tatabbu’ tarzida yozilgan bo‘lib, mavjud har uchala devon nusxalarida muallif tahririga uchragan. Masalan, birinchi devonning 64-^a sahifasida quyidagicha o‘qiymiz.

¹⁷⁷ ЎзР ФАШИ 7392 инвентарь рақамли қўлёзма –Б.80-^б.

*Yo Rab, meni majruhni dardi nihon o'lturgusi,
Rangi ruhimdur za'fidan chun za'faron o'lturgusi.*

*Vah naylayin qoshin qoqub, mujgon o'qi birlan,
Chobuk samandin sekretib abru kamon o'lturgusi.*

*So'rmaydi holim mahvashim, gardung'a chiqti nolishim,
Anduh ila yozi qishim oh fig'on o'lturgusi.*

*Faryodi zorim bilmading, kulbam aro bir kelmading,
Holim so'rab o'ltirmading, ruhi ravon o'lturgusi.*

*Xo'boni olamlar borisi bir zarra kamtar xokari,
Misoling Eramda yo'q pari, huru xo'bon o'lturgusi.*

*Vasfingda shikasta qalam, nazdingda husun eli adam,
Soyilga boq lutfi karam shohi jahon o'lturgusi,*

*Ovora bo'ldum, hajring xunoba zikrim dardida,
Ko'zi muntazirdur girdida, nomehribon o'lturgusi.*

*Jahd ayladim vaslin topay, o'ldim labidin bir o'fay,
Tunu kechalar yotmay qo'yay, bag'rimni qon o'lturgusi.*

*Har bayt uzra Muhsiniy, qo'ydi muborak ismini,
Ko'rguzdi nazm ichra fane, tab'i ravon o'lturgusi.*

Muhsiniy avlodlari qo'lida saqlanayotgan qora muqovali qo'lyozma devonning 129-^{ab} sahifasida yuqorida keltirilgan g'azal quyidagicha bitilgan:

*Yo Rab, meni majruhni dardi nihon o'ldurgusi,
Bu za'fila rangi ruhim chun za'faron o'ldurgusi.*

*Vah naylayin qoshin qoqub, mujgon o'qi birlan otib,
Chobik samandin sakratib, abru kamon o'ldurgusi.*

*So'rmaydi holim mahvashim gardung'a **chiqti nolishim,**
Anduh **chekmakdur ishim, dodi fig'on** o'ldurgusi.*

*Faryodi **dodim** bilmading, **holim so'rarg'a** kelmading,
Kulbam aro o'turmading, oromijon o'ldurgusi.*

*Xo'boni olamlar bori, senga **qilurlar** chokari,
Qullari ichinda kamtari, shohi jahon o'ldurgusi.*

*Vasfingda shikasta qalam, nazdingda husun eli odam,
Ojiz g'ulomingdur manim, ruhi ravon o'ldurgusi,*

***Ovoradurman** hajringa, xunoba **tyuttum** dardida,
Ko'zi intizori girdida, nomehrigon o'ldurgusi.*

*Jahd ayladim vaslin topay, **la'li** labidin bir o'fay,
Ko'zi yoshimla suvlar sefay, ashki ravon o'ldurgusi.*

*Har bayt uzra Muhsiniy qo'ydi **hurufi** ismingi,
Nazm ichra **ko'rguzdi** fane, tab'i ravon o'ldurgusi.*

9273-raqamli qo'lyozma va tabdil qilingan "Barhayot gulshan" nomli devonda bir xil shaklda yozilganini ko'rishimiz mumkin.

*Yo Rab, meni majruhni dardi nihon o'ldurgusi,
Rang ruhimidir za'f ila chun za'faron o'ldurgusi.*

*Vah, naylaram, qoshin qoqur, mujgon o'qi birlan **otur,**
Chobik samandin sekretib, abru kamon o'ldurgusi.*

*So'rmaydi holim mahvashim, **charx uzra chiqti nolishim,**
Dardini **chekmakdur ishim,** zoru fig'on o'ldurgusi.*

*Faryodu zorim bilmading, **holim dilimni** so'rmading,
Bir ko'zga hargiz ilmading, nomehribon o'ldurgusi.*

*Xo'boni olam barchasi zeri qudumingda xase,
Xoki daringi bandasi, shohi jahon o'ldurgusi.*

*Vola erurman, zor ham darding-la bo'lmishman adam,
Holimg'a boq qoshi qalam, tan notavon, o'ldurgusi,*

***Ovoradurman** ishqida, xunoba **yuttim** dardida,
Sarg'aydi rangim hajrida, oromijon o'ldurgusi.*

*Jononani vaslin topay, o'ldum labidin bir o'fay,
Yo'lig'a **ko'zdin suv sefay, ashki ravon** o'ldurgusi.*

*Har bayt uzra Muhsiniy qo'ydi **hurufi** ismingi,
Ko'rguzdi she'r ichra fane, tab'i ravon o'ldurgusi¹⁷⁸.*

Mazkur g'azal shoir tomonidan uch xil shaklda o'zgartirilib tahrir qilingani ayon bo'ladi. Demak, muallif birinchi devondagi g'azalni ikkinchi va uchinchi devonga ma'lum bir tuzatishlar qilib kiritgan. Ushbu "O'ldurgsi" radifli g'azal

¹⁷⁸Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б.89.

Navoiy g‘azaliga tatabbu’ tarzida yozilgan bo‘lib, uch nusxada qo‘lyozmada ham muvashshah ko‘rinishda bitishi Muhsiniyning ijodiy yangiligidir. Baytlardan anglashiladiki, mazkur g‘azalda Yusufxo‘ja ismli kishi muvashshah qilingan. Har bir shoir dastlabki paytlariga nisbatan yildan-yilga ijodiy kamolotga yetib borishi ma’lum. Muhsiniy ham tinimsiz izlanish, o‘z ustida ishlash natijasida badiiy yetuk asarlar yaratishga intiladi. Shu ma’noda yangi asarlar yaratish bilan birgalikda avval yozgan she’rlarini ham tahrirdan o‘tkazadi, ularga sayqal beradi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar va tahlillardan anglashiladiki, Muhsiniy she’riyatida matnning muallif tahriri keng miqyosda amalga oshirilgan. Shoir devon tartib berayotganda ko‘plab she’riy asarlarini matniy saktaliklarini to‘g‘rilaydi. Mazkur tahrirlarni adib mustaqil va tatabbu’ g‘azallari doirasida amalga oshirgan.

7392 raqamli qo‘lyozma devon shoir umrining oxirida, 1917-yil tartib berilgani va so‘nggi tahrirdan o‘tkazilgan she’riy asarlari jamlangani bilan qimmatlidir.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar:

1. Muhsiniy asarlarining matni tarixini o‘rganishda asar yozilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni tahlili muhim o‘rin tutadi. Shoir ijodiga Alisher Navoiy va Hofizning ta’siri kata bo‘lgan. “Kelmadi”, “O‘ldirgusi” va “Zihi, g‘ubori qudumingdin Odami xokiy” misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari Navoiyning ushbu janrdagi she’rlariga tatabbu’ sifatida yaratilgan. Shoir asarlarining matn tarixini o‘rganishda adabiy ta’sir darajasini baholash muhim o‘rin tutadi.

2. Ijodkor she’rlarining matn tarixini asliyat va tabdil nusxalarni qiyoslash asnosida o‘rganish natijasida ular o‘rtasida tafovutlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin: 1) harf va qo‘shimchalarning yozilishidagi tafovutlar; 2) so‘zlarning o‘qilishidagi farqlar; 3) g‘azallardagi baytlarning tushirib qoldirilishi; 4) she’r bandlarining qisqartirilishi.

3. Shoir devoni qo‘lyozma manbalarining qiyosiy tahlili natijasida mavjud nashrlardan 70 dan ortiq g‘azallari tushirib qoldirilgani ma’lum bo‘ldi. O‘zR FA

Sharqahunoslik instituti fondidagi 7392 raqamli qo‘lyozmada shoirning 239 ta g‘azali bor bo‘lib, ularning 211 tasi o‘zbek va 28 tasi fors-tojik tilidadir. “Barhayot gulshan” nashriga esa shoirning 136 ta o‘zbekcha g‘azal kiritilgan, xolos. Shoir asarlarining matn tarixini o‘rganish uchun qolgan 75 ta g‘azalini ham tadqiqot doirasiga tortish zarur bo‘ladi.

4. Devonlarining xattoti Muhsiniyning o‘zi ekani ulardagi matn tahririning xususiyatini to‘g‘ri belgilash imkonini beradi. Shoir asarlari matni devonni qayta ko‘chirish jarayonida muallifning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan. Tahrirlarni: a) x (خ) va m (م) harflari asosidagi; b) she‘rlar tarkibidagi so‘zlar, so‘z birikmalarga (١,٢,٣,٤) tarzida raqam qo‘yish bilan amalga oshirilgan; v) g‘azallar misralari, baytlarini (١,٢,٣,٤) raqamlarini qo‘yish orqali; g) misralar tartibining o‘zgartirilishi tarzidagi tuzatishlarni o‘z ichiga oladi.

XULOSA

Muhsiniy adabiy merosining manbalari, matn tarixi va tahriri masalasini o‘rganishga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Husaynquli Muhsiniy biografiyasiga doir ma‘lumotlar keltirilgan manbalar birinchidan, shoirning o‘z asarlari bo‘lsa, ikkinchidan, o‘sha davrda yozilgan tazkiralardir. Shoirning “Gulshani jovid” devoniga yozgan debochasi, ayrim g‘azallari, Nabiqul amakisiga bag‘ishlangan muxammasi, “Ma‘ziratnomai Muhsiniy ba axuyi arjumand xud” sarlavhali masnaviyda bitilgan haj safarnomasi ana shunday asarlari sirasiga kiradi. Bu asarlardan Muhsiniyning bolalikdan ilmga qiziqqani, Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy asarlariga ixlosi baland bo‘lgani, Qo‘qondagi Sultonmurodbek madrasasida tahsil olgani, haj safarini ado etgani, vafoti sanasi ayrim tadqiqotlarda aytilganidek 1919-yil emas, 1917-yil ekani aniqlandi.

Ushbu ma‘lumotlar shoir biografiyasiga doir tasavvurni kengaytirishi barobarida, uning ilmiy biografiyasini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Muhsiniy biografiyasiga doir manbalardan biri Po‘latjon domla Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy”si bo‘lsa, ikkinchisi, shu muallifning “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” materiallar va xotiralar” tazkirasidir. Ushbu tazkiralarda shoirning tarjimai holi, tashqi qiyofasi, xarakteri, adabiy va tijoriy davrasi, adabiy merosining ko‘lami va xususiyatlari haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. “Tazkirayi Qayyumiy”da shoirning tavallud sanasi 1860-yil ekanini ta’kidlagan muallif “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” asarida uning tug‘ilgan vaqtini 1863-yil deb ko‘rsatadi. “Tazkirayi Qayyumiy”da shoirning ismi Muhsinjon hoji tarzida taxallusi bilan adashtirilgan bo‘lsa, keyingi asarda tavallud sanasi uch yil keyin etib belgilangan. Lekin boshqa barcha ma‘lumotlar shoirning 1860-yilda tug‘ilganini tasdiqlaydi.

3. Bizgacha Muhsiniy devoni va she‘rlarining jami besh qo‘lyozma nusxasi yâtib kelgan. Ulardan biri O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 7392 inventar raqami bilan, ikki qo‘lyozmasi Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi

qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyidagi muzeyida 4303 va 178 inventar raqamlari bilan saqlanadi. Shuningdek, yana ikki nusxasi shoirning avlodlaridan qo‘qonlik To‘xtasin Nuriddinovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.

Bundan tashqari, Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi qoshidagi Qo‘qon adabiyot muzeyidagi 79/12 konvert papkada Muhsiniy mustazodi va ikki g‘azalining matni ham mavjud. Ushbu manbalar orasida O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondidagi 7392 inventar raqamli qo‘lyozma, birinchidan, shoirning o‘z qo‘li bilan ko‘chirilgan avtograf nusxa ekani, ikkinchidan, ijodkor asarlarini ko‘proq jamlagani, uchinchidan, debocha bilan ta‘minlangani, to‘rtinchidan, matnning ishonchli va mukammalligiga ko‘ra tayanch manba bo‘la oladi.

4. Muhsiniy devonining 7392 inventar raqamli qo‘lyozmasini shoir asarlarining mavjud nashrlari bilan qiyoslash natijasida ijodkorning shu paytgacha ilm ahliga ma‘lum bo‘lmagan 75 ta g‘azal, 1 ta murabba, 8 ta muxammas, 1 ta musaddas, 1 ta musamman, 1 ta qasida, 2 ta masnaviy, 1 ta maktub, 1 ta ruboiy, 7 ta ta‘rix janrlariga doir jami 2241 misra she‘ri aniqlanib, ilmiy muomalaga olib kirildi.

Bundan tashqari, shoir devonining “Barhayot gulshan” nomi bilan chop etilgan nashridagi ayrim she‘riy asarlardan tushirib qoldirilgan misralar, baytlar va bandlar aniqlanib, turli janrlardagi she‘rlarning ishonchli matnlari tiklandi. Bu boradagi ishlar shoir adabiy merosi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitishi jihatidan qimmatlidir.

5. Husaynquli Muhsiniy zullisonayn shoir bo‘lib, turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. Shoirning lirik merosi jami 7728 misra bo‘lib, shundan 1111 misra fors-tojik tilida bitilgan. Shoir asarlarida qadimgi turkiy tilga oid so‘zlar qanchalik faol qo‘llansa, fors tilidagi noyob so‘zlar ham shunchalik keng ishlatilgan. Bu hol shoirning bolalikdan forsiy she‘riyatning buyuk namoyondasi Hofiz Sheroziy va boshqa Sharq mutafakkirlarining g‘azallari va o‘zga janrlardagi she‘rlarini sevib mutolaa qilgani, yod olgani natijasi sifatida baholanishi to‘g‘ri bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, Muhsiniyning salohiyatli shoir bo‘lganidan dalolat beradi.

6. Muhsiniy she'riyatining mavzu ko'lami keng va hayotiy-falsafiy mohiyati terandir. Shoir lirik asarlarining mavzu jihatdan: muhabbat, diniy-tasavvufiy, marifatparvarlik, ijtimoiy lirika hamda axloqiy-falsafiy she'rlarga bo'lib o'rganish mumkin. Ulardan eng ko'pini mumtoz nazmiy an'anaga muvofiq ravishda muhabbat mavzusidagi she'rlar tashkil etadi.

7. Shoirning g'azal matniga ohorli yondashuvi ayrim so'zlar va so'z shakllarini teskari ko'rinishda yozishi bilan belgilanadi. Baytni ko'chirar ekan, Muhsiniy hamma so'zlarni emas, *raqib*, *ag'yor* kabi so'zlarni teskari yozish orqali, birinchidan, uning salbiy ma'nosini alohida ta'kidlagan bo'lsa, ikkinchidan, ayni so'z vositasida baytdagi asosiy obrazga urg'u berilgan hamda uchinchidan, bu orqali poetik obrazga muallifning hissiy-emotsional munosabati yorqin aks etishiga erishilgan. Bunday individual yondashuv baytning badiiyati yuksak bo'lishini ta'minlagan.

8. Matn tarixi badiiy asar matni bilan bog'liq xususiyatlarni kompleks o'rganishi nazarda tutilib, Muhsiniy lirik asarlarining matn tarixi uch tamoyil: birinchidan, asar yozilishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni, ikkinchidan, manbalarda (devon, bayoz, tazkira va h.k) ijodkor asarlarining kitobat tarixi, uchinchidan, joriy nashrlarda ijodkor asarlari matni masalasi kesimida tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalari shoir asarlarining matn tarixini o'rganish ular matnlarining mukammal nashrlarini amalga oshirish ustida ish olib borish zarurligini ko'rsatadi.

9. Matn tarixini asliyat va tabdil nusxalarni qiyoslash asnosida o'rganish shoir ijod laboratoriyasiga chuquroq kirish, asarlarining muallif variantiga yaqin ishonchli matnlarini tiklash imkonini berishi jihatidan qimmatlidir. Qiyosiy-matniy tahlillar asliyat va tabdil matnlar o'rtasida farqlar ko'p ekanini ko'rsatdi. Bunday matn tafovutlari shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratib tahlil etildi:

- 1) harf va qo'shimchalarning yozilishidagi tafovutlar;
- 2) so'zlarning o'qilishidagi farqlar; g'azallardagi baytlarning tushirib qoldirilishi;
- 3) she'r bandlarining qisqartirilishi. Ushbu tahlil natijalari shoir asarlarining

kompleks qiyosiy tahlilini amalga oshirish, asosiy va yordamchi tayanch manbalarni aniqlash, shu asosda ijodkor lirik asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish vazifalarini kun tartibiga qo'yadi.

10. Muhsiniy devonlari qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish natijalari ularda amalga oshirgan tahrir va tuzatishlarni shartli tarzda quyidagicha guruhlashtirish mumkinligini ko'rsatadi:

- 1) x (خ) va m (م) harflari asosidagi tuzatishlar;
- 2) she'rlar tarkibidagi so'zlar, so'z birikmalarga (١,٢,٣,٤) tarzida raqam qo'yish bilan amalga oshirilgan tahrirlar;
- 3) g'azallar misralari, baytlarini (١,٢,٣,٤) raqamlarini qo'yish orqali tahrir etish holatlari;
- 4) misralar tartibining o'zgartirilishi. Shoir asarlarini qiyosiy o'rganish natijalari muallif tahriri natijasida she'rlar matnining sayqallanib, mukammallashib borganini ko'rsatadi.

Matn tahriri masalasi, ayniqsa, shoir ijod laboratoriyasiga chuqurroq kirish, uning so'zga, badiiy ijodga bo'lgan mas'uliyati yuqori bo'lganini anglash imkonini berishi jihatidan qimmatlidir.

Yaxlit xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Husaynquli Muhsiniy asarlarining qo'lyozma manbalarini, o'sha davrda yozilgan tazkiralarni tadqiq qilish natijalari shoir asarlari biografiyasini uning tavallud va vafot sanalarini oydinlashtirish, qarindoshlik, adabiy va boshqa faoliyat turlari bo'yicha yaqin kishilari bilan munosabatlarini aniqlash, shoir dunyoqarashi va ijodiy kamoloti yo'lini to'laqonli tasavvur etish imkonini berishiga ko'ra ahamiyatlidir. Shoir asarlari qo'lyozmalarini o'rganish lirik she'rlarining mavjud nashrlari talab darajasida emasligi, shoir adabiy merosini to'liq jamlamagani haqidagi to'xtanga olib keladi. Lirik asarlari matn tarixi va tahririni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar Muhsiniy asarlari bu yo'nalishda ham tadqiqotlar uchun boy material berishini, shoir ijod laboratoriyasi haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitishi jihatidan alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shoir asarlarining mavjud nashrlariga kirmagan ikki mingdan ortiq misrani jamlagan she'rlarining aniqlanishi

Husaynquli Muhsiniyning nafaqat Qo‘qon adabiy muhiti, balki o‘zbek adabiyoti tarixida katta o‘ringa ega salohiyatli ijodkor ekani isbotidir.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

I. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва методологик аҳамиятга молик нашрлар:

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.

2. Мирзиёев Ш.М. 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар Стратегияси. – Тошкент: Адолат, 2017. – 112 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 592.

4. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2017. – 4 август.

5. Мирзиёев Ш.М. “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқи ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–2995-сонли қарори, 2017 йил 24 май.

6. Мирзиёев Ш.М. “Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2789-сонли қарори, 2017 йил 17 февраль.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. // Халқ сўзи, 2017 йил 25 май.

8. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПФ-5850-сонли фармони, 2019 йил 21 октябрь.

II. Илмий-назарий адабиётлар

1) Миллий нашрлар

9. Абдуғафуров А. Зокиржон Фурқат (ҳаёти ва ижоди). –Т.: Фан, 1977. – Б. 210.
10. Абдуғафуров А. Эрк ва эзгулик куйчилари. –Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 157.
11. Абдуғафуров А. Муқимий сатираси. – Т.: Фан, 1976. – Б. 120.
12. Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди. – Т.: Фан, 2005. – Б. 125.
13. Абдулхайров М. “Лисон ут-тайр” табдили. – Т.: Янги аср авлоди, 2019. – 1-226-бетлар.
14. Адизова И. Сўзумни ўқуб англағайсан ўзумни. – Т.: 2008. – Б. 120.
15. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жаидчилик. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 228.
16. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адолат, 2004. – Б. 192.
17. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – Б. 231.
18. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 308.
19. Воҳидов Х. Фурқат ва Муқимийнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари. – Т.:Ўздавнашр, 1959. – Б. 213.
20. Ёқубов Ҳ. Ўзбек демократ шоири Муқимий. – Т.: ЎзФан, 1953. – Б. 134.
21. Ёқубов И. Муқимий ва Ғафур Ғулом. Ғафур Ғулом ва давр. – Т.: Фан, 2003. – Б.178.
22. Жалолов А. Ўзбек маърифатпарвар-демократик адабиёти. – Т.: Фан, 1978.– Б. 125.
23. Жалолов А. XIX аср охири XX аср бошларидаги ўзбек адабиёти. – Т.: 1991.– Б. 114.
24. Жувонмардиев А. Ҳарфлар рақамларга айланганда. – Т.: Фан, 1966. – Б. 60.

25. Жумахўжа Н., Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур.–Т., 1994. – Б. 114.
26. Жумахўжа Н. Феруз – маданият ва санъат ҳомийси. – Т.: Фан, 1995. – Б. 156.
27. Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Т., 2003. – Б. 124.
28. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006. – Б. 203.
29. Жўрақулов. Назарий поэтика масалалари. (Муаллиф, жанр, хронотоп). – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 352.
30. Жўрабоев О. Ҳазиний тўра. – Т.: Фан, 2007. – Б. 135.
31. Жўрабоев О. Матнинг матности сирлари. – Т.: “Tammadun”, 2017. – Б. 191.
32. Жўраева Ҳ. Ҳусайний ҳаёти ва ижодий мероси. – Т.: “Kamalak”, 2014. – Б. 122.
33. Зарифов Ҳ. Муҳаммад Амин Муқимий. Ҳаёти ва ижодига оид материаллар. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1955. – Б. 137.
34. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асари матни, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. – Т.:”Turon zamin ziyo”, 2015. – Б. 256.
35. Имомназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари. – Т.: Шарқ, 1996. – Б. 140.
36. Каримов Ғ. Тарих, халқ, адабиёт. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. – Б. 310.
37. Каримов Ғ. Каримов Ғ. Муқимий ҳаёти ва ижоди. (Монография). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1970. – Б. 213.
38. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1987. – Б. 482.
39. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б. 271.
40. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори. –Т.: Адабиёт

ва санъат, Ўзбекистон, 1999. – Б. 204.

41. Каримов Б. Жаид мунаққиди. –Т.: Университет, 2000. – Б. 103.

42. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. –Т.: Мухаррир, 2011.
– Б. 110.

43. Муродов А. Ўрта Осиё хатотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971.– Б.158.

44. Мўминов И. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан.
– Т.: Ўз ФА, 1960. – Б.289.

45. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. (Б.Қосимов, У.Долимов, Ш.Юсупов, С.Аҳмедов, Н.Жабборов, Ш.Ризаев). – Т.: Маънавият, 2004. – Б.458.

46. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. –Т.: Маънавият, 2005. – Б. 208.

47. Муҳиддинов М. Нурли қалблар гулшани. – Т.: Фан, 2007. – Б.168.

48. Мирзаева З. XX аср ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. – Т.: Akademnashr, 2017. – Б. 232.

49. Олимжонов А. Муҳаммад Амин Муқимий. –Т.: ЎзФан, 1953. - Б.126. - Б.127.

50. Отажонов У. Мушоара ёхуд шеър баҳси. –Т.: Меринос, 2009. - Б.124.

51. Расул Х. Зокиржон Фурқат ижоди. – Т.: ЎзФА, 1954. - Б.132.

52. Расул Х. Фурқат – марифатпарвар-демократ шоир. – Т.: Бирлашган нашриёт, 1954. - Б.126.

53. Раҳматова Д. Муқимий издошлари. – Т.: Фан, 1978. - Б.87.

54. Раззоқов Ҳ. Завқий ҳаёти ва ижоди. – Т.: Ўздавнашр, 1955. - Б.123.

55. Раҳмонов Н. Кўҳна битиктошлар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. - Б.132.

56. Раҳмонов Н. Турк хоқонлиги. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. - Б.144.

57. Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. - Б.132.

58. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиётини даврлаштириш. –Т.: MUMTOZ SO'Z, 2016. - Б.110.
59. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Сано-стандарт, 2017. - Б.367.
60. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011. - Б.326.
61. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарлашмалари. – Т., 2011. - Б.220.
62. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: Академнашр, 2015. - Б.128.
63. Содиков Қ. “Қутадғу билиг”нинг тил хусусиятлари. Ўлмас обидалар. – Т., 1989. - Б.167.
64. Сулаймонов И. Қорий Хўқандий адабий мероси. – Т.: Tamadun, 2014. - Б.196.
65. Содиков Қ. Эски ўзбек ёзуви. – Т., 1989. - Б.230.
66. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005. - Б.267.
67. Солихов М.Б. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. Самарқанд – 1930. Б.165.
68. Саъдий А. Ўзбек буржуа адабиёти. XIX-XX асрлар. – Т.: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1934. Б.132.
69. Собир Абдулла. Мавлоно Муқимий. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 165. Б.428.
70. Фурқат ва Муқимий ҳақида мақолалар (Тўпловчи Ғ.Каримов). Т.: Бадиий адабиёт, 1958.– Б. 151.
71. Фурқат ижодиёти (Мақолалар тўплами). – Т.: Фан, 1990.– Б. 224
72. Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. Тошкент-Самарқанд. 1927. // Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. (Нашрга тайёрловчи Ҳамроева О.) – Т., 2008. – Б. 193.
73. Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986.– Б. 164.

74. Шарафиддинов О. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. Икки томлик. –Т.: ЎзФА, 1945. – Б. 156.
75. Шодиев Э. Ўзбек-тожик адабий алоқалари тарихидан (XIX аср охири XX аср бошлари). –Т.: Адабиёт ва санъат, 1973.– Б. 107.
76. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол” – адабий манба. – Т.: Фан, 209. – Б. 232.
77. Эркинов А.С. Матншуносликка кириш. – Т.: 1997. – Б. 51.
78. Эркинов. С. Навоий “Фарҳод ва Ширин”и ва унинг қиёсий таҳлили. – Т.: 1971. – Б. 234.
79. Юсупов Ш. Фурқат йўлларида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984.– Б. 328
80. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. – Т.: Шарқ, 1995.– Б. 94.
81. Юсупов Ш. Санъат ва ҳайрат. –Т.: Маънавият, 1997.– Б. 105.
82. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. – Т.: Маънавият, 1999.– Б. 142.
83. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. V том. Т.: Фан, 1980.– Б. 452.
84. Ўзбек адабиёти. Бешинчи том. Иккинчи китоб. Т.: Адабиёт ва санъат, 1968.– Б. 514.
85. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб (Нашрга тайёрлочи: Ғ.Каримов). – Т.: Ўқитувчи, 1987. – Б. 482.
86. Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. Уч жилдлик. – Т.: Қўлёмалар институти, 1998. – Б. 560.
87. Қайюмов П. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти. – Т.: Тамадун, 2011; Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти. Т.: Тамадун, 2011. – Б. 389.
88. Қайюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII-XIX асрлар). – Т.: ЎзФА нашриёти, 1961. – Б. 562.
89. Қайюмов А. Шеърят жилолари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б. 125
90. Қодирова М. XIX аср ўзбек шоирлари ижодида инсон ва халқ тақдири. – Т.: Фан, 1977. -124.
91. Қосимов Б. Излай-излай топганим. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 268.

92. Қосимов Б. Маслакдошлар. –Т.: Шарқ, 1994. – Б. 121.
93. Қосимов Б., Долимов У. Маърифат дарғалари. –Т.: Ўқитувчи, 1990. – Б. 235.
94. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi. – Т.: Fan va texnologiya, 2008. – Б. 595.
95. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 397.
96. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Т.: Маънавият, 2011. – Б. 320.
97. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърият. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 183.
98. Ҳаққулов И. Ирфон ва идрок. – Т.: Маънавият, 1998– Б. 160.
99. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 158.
100. Ҳусайний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б. 397.
101. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашнуослик ва матншунослик. – Т.: 2000. – Б. 172.
102. Ҳақимов М. Алишер Навоий асарлари кўчирган хаттотлар. – Т.: 1991. – Б. 52.
103. Ҳақимов М. Навоий қўлёмаларининг таснифи. – Т.: 1983. – Б. 199.
104. Ҳамидова М. Қўлёмза Баёзлар - адабий манба.– Т.: Фан, 1981. – Б. 122.
105. Ҳамидова М. Манбашуносликнинг баъзи масалалари. – Т.: Шарқ машъали туркуми, 1999. – Б. 220.

2) Хорижий нашрлар

106. Бартольд В.В. Сочинения. II том (часть I), М.: Восточная литература, 1963.– С. 532.
107. Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области «Записки

восточного отделения». – Т., XXII, 1914. – Б. 312.

108. Вахидов Х. Просветительская идеология в Туркестане. – Т.: Узбекистан, 1979. – С. 215.

109. История Кокандского ханства. (Составил В.Наливкин). С-П., 1886. С. 624.

110. Каримов Э. Развитие реализма в узбекской литературе. – Т.: Фан, 1986. – С. 135.

111. Каримов Э. Реализм узбекской демократической литературы. – Т.: Фан, 1986. – С. 147.

112. Лихачев Д.С. Текстология. М.-Л.: Издательство АН СССР, 1962. – С. 605.

113. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Издание второе, дополненное. Т., 1896. – С.512.

114. Рейсер С.А. Основы текстологии. – Л.: Просвещение: УзСЭ, 1978. – 176 с.

115. Рейсер С.А. Полеография и текстология. – М., 1970. – 336 с.

116. Самойлович А. Собрание стихотворений императора Бабура. – Петроград, 1917. – 324 с.

117. Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. – М.: Наука, 1976. – С.139–153.

III. Диний манбалар, адабиётлар

118. Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур. – Тошкент. 2004. – Б.251.

IV. Қўлёзма ва тошбосма манбалар

119. Қўлёзма баёз. ЎзР ФАШИ фонди. Инв. 7521.

120. Қўлёзма девон. ЎзР ФАШИ фонди. Инв. 7392.

121. Қўлёзма девон. Гафур Гулом номидаги Фарғона вилоят Адабиёт музейи фонди. Инв.4303.

122. Қўлёзма баёз . Ғафур Ғулом номидаги Фарғона вилоят Адабиёт музейи фонди. Инв. 178.

123. Қўлёзма девон. Тўқ жигаррангда Қўқон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади.

124. Қўлёзма девон. Қора муқовали Қўқон шаҳрида яшаётган авлодларидан Тўхтасин Нуриддиновнинг шахсий кутубхонасида сақланади.

V. Луғатлар

124. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I-IV томлар. Т.: Фан, 1983, 1984, 1985. – Б. 1235.

125. Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик / Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. I ж. – Тошкент: Sharq, 2016. – 536 б.

126. Алишер Навоий: қомусий луғат. Икки жилдлик / Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. II ж. – Тошкент: Sharq, 2016. – 480 б.

127. Абдулхайров М. “Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати”га кирмай қолган сўз ва иборалар изоҳи. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 560 б.

128. Баранов Х. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – С. 926.

129. Навоий асарлари луғати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С. Иброҳимов). –Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 426.

130. Навоий асарлари учун қисқача луғат (Тузувчи: Б.Ҳасанов). – Т.: Фан, 1993. – Б. 324.

131. Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. –Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б.

132. Русско-узбекский словарь. В 2-х томах, Том I, II. – Т.: Энциклопедия, 1983. – С. 1468.

133. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз 2 ҷилд. Ҷилди 1. Душанбе: Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти Рӯдакӣ, 2008. – 950 с.

134. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз 2 ҷилд. Ҷилди 2. – Душанбе: Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти Рӯдакӣ, 2008. – 946 с.
135. Қуронон Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 392.
136. Ҳақимов М. Шарқ манбашунослиги луғати. – Т.: “Davr press”, 2013. – Б. 495.
137. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – Б. 222
138. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 382.

VII. Бадиий адабиётлар

139. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. ТАТ. Ўн жилдлик. III жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом НМИУ, 2011. – Б.764.
140. Алишер Навоий. Бадоеъул-васат. IV жилдлик. III жилд. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 780.
141. Каримов Ғ. Муқимий иждодий меросининг манбалари. Муқимий. Асарлар тўплами. Т.: Бадиий адабиёт, 1960, II том.– Б.83.
142. Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. – Фарғона, 2008. – Б. 168.
143. Фузулий. Қалб гавҳари - Т.: “Nilol-nashr” – Б.133.

VII. Диссертация ва авторефератлар

144. Абдулхайров М. Навоий асарлари матни табдилини амалга ошириш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2020. – Б. 251.
145. Амонов Ш. Ҳамза шеърятининг манбалари, матний тадқиқи: Филол. фан. номз. дисс. – Т., 2010. – Б. 156.
146. Абдуғафуров А. XIX аср иккинчи ярми ўзбек демократик адабиётида сатира. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1962. – Б.245.
147. Болтабоев Ҳ. XX аср боши ўзбек адабиётшунослиги ва

Фитратнинг илмий мероси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1996. – Б. 287.

148. Деҳқонов А.Қ. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2007. – Б. 167.

149. Жабборов Н. А. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари. Филол. фан. ном... дисс. – Т., 1994. – Б. 155.

150. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс.–Т.,2004. – Б. 298.

151. Жўрабоев О. Р. Ҳазиний Ҳўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Филол. фан. ном. дисс. – Т., 2003. – Б. 163.

152. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2018. – Б. 278.

153. Каримов Ғ. Ўзбек демократик шоири Муқимий ва унинг даври адабиёти: Филол. фан. д-ри ... дисс.– Т., 1962. – Б. 870.

154. Каримов Р. Демократ шоир Муқимийнинг социал қарашлари. Филол. фан. ном... дисс. – Т., 1955. – Б. 134.

155. Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси. (“Хамса”ларнинг биринчи дostonлари асосида). Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1995. – Б. 238.

156. Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги (“Бадоеъ ул-бидоя” девони асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.: 2005. – Б. 233.

157. Муҳаммадиев А. Муҳйининг: туркий ва форсий девони поэтикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2008. – Б. 156.

158. Маҳмудов Ж. Паҳлавон Маҳмуд ҳаёти ва адабий меросининг матний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2006. – Б. 155.

159. Мўминова В. Ўзбек адабиётида лирика: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1979. – Б. 134.

160. Мирзараҳимова А.Ш. Ўрта Осиёда тошбосма китоб тарихи: Тарих.

фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2009. – Б. 25.

161. Нуриддинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн тадқиқи муаммоси. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2022. – Б. 257.

162. Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2020. – Б. 228.

163. Раззоқов Ҳ. Завқийнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1953. – Б. 156.

164. Раҳмонов Н. Ўрхун-Енисей ёдномалари ва туркий эпослар: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1991. – Б. 270.

165. Раҳманов Н.А. Поэтика памятника Кюль-Тегену: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Т.: ИР АН РУз, 1983. – 45 с.

166. Сироҷиддинов Ш. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига доир XV–XIX асрларда яратилган форс-тожик манбалари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Т., 1997. – Б. 45.

167. Сулаймонова Н.А. М.Замахшарийнинг “Асос ул-балоға” асарининг манбашунослик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2007. – Б. 156.

168. Сулейман Хамид. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Т.: ИЯЛАН РУз, 1961. – Б. 34.

169. Сулаймонов И. Мулла Маҳмуд Қори ва унинг поэтик мероси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2010. – Б. 153.

170. Халилбеков А. Нодим Намангонийнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фанлари номзоди...дисс.- Т., 1967. – Б. 154.

171. Хамдамов Ж. Демократ шоир Муқимий асарларининг луғат састови. Фил.ф.н. дис-я, 1956.

172. Шамсиев П. Алишер Навоийнинг “Сабъаи сайёр” достони илмий-танқидий матни ва уни тузиш принциплари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1952. – Б. 23.

173. Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи

масалалари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Т., 1969. – Б. 35.

174. Шомаксудов А. Муқимий сатираси тили. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1968. – Б. 151.

175. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол”нинг ўзбек бадиий-тарихий насри таракқиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2009. – Б. 238.

176. Шониёзов М. “Мажмуаи шоирон” тазкираси матнини тайёрлаш принциплари ва матний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. –Т., 2009.–Б. 167.

177. Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV – XIX аср манбалари: Филол. фан. д-ри ... дисс.– Т., 1998. – Б. 245.

178. Эшонова С. XX аср бошларидаги Қўқон шоирлари (Нисо ва Хоний). Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2006. – Б. 145.

179. Юсупов Ш. Фурқат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 1990. – Б. 234.

180. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2008. – Б. 167.

181. Юлдашева Ҳ.А. Ҳидоя Абдурахим ибн Чиштий Ал-Усманийнинг «Сияр ул-ақтоб» асари манбашунослик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2006. – Б. 23.

182. Ғанихўжаев Ф.А. Огаҳийнинг «Таъвизу-л-ошиқин» девони ва унинг илмий-танқидий матни: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. –Т., 1998. – Б. 43.

183. Ҳасанов Н. Яссавийликка доир манбалар ва “Девони ҳикмат”: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2017. – Б. 287.

184. Ҳошимова Д.М. “Бобурнома” асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т.: ЎЗМУ, 2006. – Б. 22.

185. Ҳусаинова Ф. Демократ шоира Анбар отин: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Т., 1966. – Б. 144.

VIII. Илмий тўплам, журнал ва газеталардаги мақолалар

186. Аҳмедов С. Ўзбек адабиётида саёҳатнома // Адабий мерос, 1986 йил, 6-сон.
187. Абдуллаев В. Муқимий сатираси. /Ўқитувчи, 1959, 9-сентябрь.
188. Абдуллаева Б. Тошбосма баёзларнинг илмий тавсифи. // Адабий мерос, 1989, 4-сон.
189. Абдуллаева Д. Шоир Зорий // Шарқ юлдузи.-1995, 10-сон.
190. Абдулхайров М. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асари матнини тадқиқ этиш усуллари // Тил ва адабиёт таълими. – Т., 2010. -№ 9. – Б.70–76 (10.00.10№ 9).
191. Абдулхайров М. Алишер Навоий асарларининг матний хусусиятлари ҳақида/ Қиёсий тилшунослик ва таржима назарияси муаммолари. Республика илмий анжуманининг мақолалар тўплами. –Т.: Университет, 2007. – Б.43-46.
192. Болтабоев Ҳ. Ёлланган адабиёт сирлари. // ЎзАС, 1998 , 49-сон.
193. Жабборов Н. Фурқатнинг Хўжанд сафарига оид янги маълумотлар. //ЎзМУ хабарлари, 2001, 3-сон.
194. Жабборов Н. Адабий манбаларда матн таҳрири масаласи. /Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари (Илмий мақолалар тўплами). – Қарши, “Насаф”, 2013.
195. Жабборов Н. Бадиий матн таҳрирининг хос хусусиятлари. /“Ўзбек адабиётшунослигида талқин ва таҳлил муаммолари” мавзудаги илмий-назарий анжуман материаллари. – Т.: “Мумтоз сўз”, 2014.
196. Жабборов Н. Ўзбек матншунослигининг долзарб муаммолари. /“Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгиланиш тамойиллари” мавзудаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2016.
197. Жабборов Н. Матншуносликнинг айрим назарий масалалари. / “Ўзбек матншунослигининг назарий ва амалий муаммолари” мавзудаги Республика илмий анжумани материаллари. – Қарши, “Насаф”, 2019.

198. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни. / Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Mumtoz so`z, 2019.

199. Жўрабоев О. Қўқон шоирларининг Алишер Навоий ғазалларига мухаммаслари (ва унга нисбат берилган айрим ғазаллар борасида). // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. 4-сон.

200. Жўрабоев О. Меҳрибони топмадим. //ЎзАС, 1999, 3-сентябрь.

201. Жўрабоев О. Оразинг гулзорига бордим. ЎзАС, 2001, 9-февраль.

202. Жўрабоев О. Муқимий қўлёзмаларида форсий шеърлар. //Сино, 2007, 28-сон.

IX. Интернет сайтлари

203. Томашевский Б., Писатель и книга. Очерк текстологии, «Прибой», Л., 1928. <http://www.textology.ru>.

204. Текстология — прикладная филологическая дисциплина, изучающая приемы анализа текста лит-ых feb-web.ru/FEB/LITENC/ENCYCLOP/leb/leb-2241.htm - 12к.

205. Текстология. Монографии. Научные статьи ... www.teneta.ru/rus/textology/textology.htm - 5к.

206. Текстология. www.cultinfo.ru/fulltext/1/001/008/109/489.htm - 11к.

207. <https://ganjoor.net/hafez/ghazal/sh255>